

A.Abdusamedov,  
B.Djalilov, A.Tashanov



# DINLAR FALSAFASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**A. ABDUSAMEDOV, B. JALILOV, A. TASHANOV**

# **DINLAR FALSAFASI**

***O'QUV QO'LLANMA***

**Toshkent  
“Innovatsiya-Ziyo”  
2020**

**UDK: 373.6  
BBK: 74.200.526  
A 95**

**A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanov.**

**Dinlar falsafasi /o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo",  
2020, 164 bet.**


Mazkur o'quv-uslbiy majmua imkon qadar ushbu sohadagi barcha ma'lumot va bilimlarni o'zagiga qamrab olib, talabalar uchun din haqidagi falsafiy manba va bilimlarni o'rganish; ularni nazariy jihatdan tadqiq etish, bu jarayonning natijalarini umumlashtirish imkonini beradi.

Mazkur o'quv-uslbiy majmuada dinning falsafiy mohiyati, ibtidoiy, milliy va jahon dinlari ta'limotining shakllanishida vujudga kelgan falsafiy qarashlarga taalluqli bilimlar o'rganiladi. Shuningdek, talaba dinlar falsafasining asosiy tushunchalari bo'lgan xudo, payg'ambarlar, inson, taqdir, oxirat, iymon va boshqa murakkab tushunchalar, diniy-falsafiy oqimlar va ularning ta'limotlarini tushunishi lozim bo'ladi.

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOMONIDAN NASHRGA TASVIYA ETILGAN.**

**ISBN 978-9943-6433-8-3**

**© A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanov 2020.  
© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.**



*Mustaqillik yillarida yurtimizda ma’naviyatni yuksaltirish, vijdon rkinligini ta’minalash, dinlararo bag’rikenglik tamoyilini hayotga atbiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Buyuk ajdodlarimiz yaratgan boy diniy-falsafiy merosni, jahon diniy falsafasi isarlarini o’rganish va targ’ib qilish keng yo’lga qo’yildi. Talabalarga dinshunoslik asoslari, dunyo dinlari tarixi, jahon dinlari alsafasini o’qitish ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, diniy hissuyg’ularga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omil bo’lib hizmat yilmoqda. Din falsafasi fani yuzasian tuzilgan mazkur o’quv-uslbiy majmuuning muhim jihatlari shundaki, birinchidan, mavzular voritilishida dinning genisisi, tarixiy sharoitda din sifatida shakllanishi, rivojlanishi va qaror topishining o’ziga xos tomonlariga e’tibor qaratish; ikkinchidan, o’quv fani sifatida SHarq va G’arb namlakatlari oliy yurtlari tizimida mustaqil fan sifatida kiritilishi; uchunchidan, buddaviylik, xristianlik falsafasi va kalom falsafasi o’nalishlarining o’ziga xos xususiyatlarini sharhlash lozim.*

Mazkur o’quv-uslbiy majmua imkon qadar ushbu sohadagi barcha ma’lumot va bilimlarni o’zagiga qamrab olib, talabalar uchun lin haqidagi falsafiy manba va bilimlarni o’rganish; ularni nazariy jihatdan tadqiq etish, bu jarayonning natijalarini umumlashtirish imkonini beradi. Mazkur o’quv-uslbiy majmua din falsafasi fanining lasturi to’rt bo’limini qamrab olib, hozirgi holatida “Din alsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo’nalishlari”, “Din falsafasining nazariy-falsafiy masalalari” nomli bo’limlarning 9 ta mavzuni o’z ichiga oladi. Dasturda belgilangan “Monotiestik dinlar falsafasi”, “Din falsafasi va jamiyatdagи ijtimoiy-falsafiy jarayonlar” deb nomlangan uchinchi bo’lim va to’rtinchi bo’limlar 2-kursda o’qitilishi rejalshtirilgan. Mazkur o’quv-uslbiy majmua talabalarda diniy-falsafiy ongini shakllantirish bilan nazariy va amaliy bilimlar orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan bir qator tarkibiy qismlar- ma’ruzalar matni, nazorat savollari, test topshiriqlarini o’z iichiga olgan.. Mazkur o’quv-uslbiy najmuada dinning falsafiy mohiyati, ibtidoiy, milliy va jahon dinlari ta’limotining shakllanishida vujudga kelgan falsafiy qarashlarga taalluqli bilimlar o’rganiladi. Shuningdek, talaba dinlar falsafasining asosiy tushunchalari bo’lgan xudo, payg’ambарlar, inson, taqdir, oxirat, iyomon va boshqa murakkab tushunchalar, diniy-falsafiy oqimlar va ularning ta’limotlarini tushunishi lozim bo’ladi.

## **1-MAVZU. DINLAR FALSAFASI FANIGA KIRISH**

### **Reja:**

- 1.Din falsafasini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari.
- 2.Din falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari.
- 3.Islom va dinshunoslik.

**Tayanch tushunchalar.** *Din falsafasi, din fenomenologiyasi, din tarixi, din falsafasi, monizm, plynolizm, materializm, idealizm, klerinalizm, ontologiya, gnosologiya, obyekt va predmet, buddizm, xristianlik, islam, teologiya (ilohiyot), reformator, supernaturalizm, vahiy, kosmologiya, metodologiya.*

### **1.Din falsafasini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari**

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilimlaridan bo‘lganidek, dinni falsafiy jihatdan o‘rganish, tadqiq etish ham juda qadimiy davrlardan boshlangan. Xalqimiz qadimda e’tiqod qilgan dinlardan biri Zardushtiylik haqidagi falsafiy mushohadalar miloddan avvalgi VII-VI asrlarda boshlangan. Uning asosiy manbai “Avesto”da qadimgi xalqlarning odam va olam, umuman dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, xis va tuyg‘ulari, u bilan bog‘liq urf-odatlari aks ettirilgan. Zardushtiylikning falsafiy mazmunini ob’ektiv olamda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi doimiy qarama-qarshi kuchlar haqidagi qarashlar tashkil etadi. Shu bilan birga mazkur manbada tabiat falsafasi, diniy falsafiy qarashlar, tarix, axloqiy qadriyatlar, tibbiyotga oid ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan. Zardushtiylik ta’limoti shakillanishiga qadar O‘rta Osiyo xalqlarining ibtidoiy din shakillariga oid o‘ziga xos diniy urf-odat va e’tiqodlari bo‘lib, ularga asoslangan ba’zi diniy falsafiy qarashlarining kurtaklari ham bo‘lganligini e’tirof etish mumkin. Olimlarning fikriga ko‘ra, zardushtiylik eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davr maxsuli bo‘lgan diniy tasavvurlar va mifologik qarashlarni o‘ziga xos talqin qilgan olam va odamning yaratilishi va rivojlanishiga yangicha yondashgan yakka xudolik g‘oyasini ilgari surgan ta’limotdir.

San’at va ilm-fan bilan bir qatorda din ham shak-shubhasiz, inson sivilizatsiyasining eng asosiy va keng tarqalgan jihatlaridan biri

sifatida zarur hisoblanadi. Ular kabi bu sohani ham diqqat bilan kuzatishimiz hamda o'rganishimiz mumkin. Biroq din shunday murakkabki, inson hayotining faqatgina bir tomondan ta'lrim olishigina emas, balki bu soha bo'yicha har tomonlama ta'lrim va ilm olishga erishish mumkin bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham din bir qator turli fanlar orqali o'rganiladi: falsafa, tarix, antropologiya, sotsiologiya va psixologiya.

Fan falsafasi, huquq falsafasi, san'at falsafasi qatorida din falsafasi ham falsafaning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Biz bundan shuni anglashimiz mumkinki, din falsafasini o'rganishni biz turlicha tahlil qilishimiz mumkin. Birinchidan, din falsafasini insonlar yashay boshlagan yirik dinga ega bo'lgan tarix bilan adashtirmasligimiz lozim. Ikkinchidan, din falsafasini ilohiyot bilan adashtirmasligimiz lozim. Ilohiyot din ichidagi keng ko'lamli nizom hisoblanadi. U ba'zi diniy e'tiqodlar kabi rivojlanadi va ular insoniyat (tabiiy ilohiyot) yoki ilohiy ta'lilot (ilohiyotni ko'rsatish)ni o'rganishning umumiy sababi sifatida shakllanadi<sup>1</sup>.

Din falsafasini o'rganish Sharq va G'arb halqlarining tarixiy jarayondagi hayoti, madaniyati, dini, turmush tarzi, e'tiqodiy qarashlari bilan yaqindan tanishishni taqozo etadi. Ma'lumki, eramizdan avvalgi VII-II asrlarda Yunoniston va Rimdagi fan va madaniyat ancha yaxshi taraqqiy etgan. Qadimgi Misr va Bobilda madaniy meros eramizdan avvalgi to'rt- minginchi yillarda yuzaga keldi. Bu hududda dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, qadimgi dunyo haqidagi fanlar – astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyalarga oid qarashlar ancha rivojlandi.

Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunon va Rimda ham fan, madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Bu davlatlardagi xalqlarining odam va olamning tuzulishi haqidagi tasavvurlari diniy-mifologik qarashlarga asoslangan. Ammo o'sha davr ilg'or fikr egalari olam va tabiatni kelib-chiqishini mifologik qarashlarga diniy-falsafiy jihatdan vondashib tushuntirganlar. Xitoy mifologiyasida juda qadim zamonlarda qoinot qorong'u, shaklsiz bo'shilqdan iborat bo'lib, shaklsiz zulmot ichida ikita ruh tug'ilgan – biri In, ikkinchisi Yan bo'lib, dunyonи tartibga solganlar. Keyinchalik bu ruhlar bo'linib, Yan osmonni, In ruhi erni boshqargan. Bu tasavvurlarning diniy-falsafiy

<sup>1</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 1-2

talqini bo'yicha, mazkur ruhlar insonlarni va butun tabiatdagi jonzotlarni ham yaratgan, deb qaraladi.

Qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi II asrning o'rtasida dastlabki yozma manbalardan biri bo'lган Vedalar yuzaga keldi. Veda asosan diniy kitob bo'lib, mutaassib dindorlar uchun muqaddas ilm va bashoratdir. Manbalarning dalolat berishicha, Vedik adabiyoti ikki ming yillar davomida shakllangandir. Bu asar og'zaki qo'shiq va pangrepadan iborat bo'lib, uni "minora" deb ataladi. Uni bizgacha to'rtta to'plami etib kelgan. 1.Rigveda, 2.Samoveda, 3.Yakurveda, 4. Atxarxaveda.

Veda mazmunida qisman ta'biy hodisalarga e'tibor qaratib, bir joyda dastlabki moddiy asosi suv deyilsa, boshqalarida olov, er yoki bularning hammasi dunyoning moddiy asosi deb ko'rsatilgan. Bu masalalar talqini diniy-falsafiy nuqtai nazardan izohlangan. Masalan, rigvedada yozilishicha, dastlab dunyoni suv qoplagan, so'ng suvda Braxma (ruh) joylashgan oltin tuxum – xiron'ya grobxa paydo bo'lган. Rivojatlarga ko'ra, Braxma tuxumni yorib chiqib ikki tanaga bo'linadi va osmon va erni tashkil etadi. Ammo koinotni yaratuvchisi xudo deyilgan.

Qadimgi Yunonistonda fan va madanyatning rivoji, ayniqsa, matematika, adabiyot va falsafa sohalarida ilmiy qarashlar yuzaga kela boshladi. Bu davrda Yunoniston va Rim falsafasi o'zida Milet, Eley falsafiy manbalari, Suqrot, Pifagor, Aflatun, Arastu va boshqalarning falsafiy, ayni vaqtida diniy-falsafiy qarashlari shakllana bordi. Bu davr falsafasining o'ziga xos tomoni shundaki, ular turlicha yo'nalishda bo'lib, mifologik qarashlarga e'tibor qaratdilar. Masalan, yunon falsafasi mahsus falsafiy tadqiqotlar shaklida ravnoq topmay, balki iloxiy bilimlar, mifologiya, san'at bilan uzviy bog'liqda rivojlandi.

Din falsafasi tarixining dastlabki jarayoni umuminsoniyat, turli millat va xalqlar hayotidagi xudolar, diniy e'tiqodlarga asoslangan odam va olam haqidagi tasavvurlaridir. Din falsafasining shakllanishi va rivojlanishida mifologiyani o'mni alohida bo'lган. Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e'tirof etish bilan bog'liq bo'lsa, din falsafasi (teologiya) mifologiyadan farqli ravishda diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e'tiqod qilish bilan bog'liq masalalarni nazarda tutgan. Zero, mifologiya (mif-afsona, logiya-ta'limot) olam va odamning yaralishi, mavjudlik va rivojlanish qonuniyatlarini afsona

va rivoyatlar asosida tushuntirishni asos qilib olgan. Teologiya (teodo, logos-ta'limot) ilohiy va ruhiy qarashlarning o'rni va hamiyatini mutloqlashtiradigan tafakkurining bir yo'nalishi sifatida hakllangan.

Din falsafasini nazariy-metodologik jihatdan o'rganishda falsafaning tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez metodlaridan soydalanishni hamda ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olishni nazarida tutadi. Metodologiya – bilish va o'zgargan faoliyat usullari o'g'risidagi ta'limot bo'lganligidan din falsafasini o'rganishda tarixiylik va mantiqiylik metodini qo'llab, har bir tarixiy jarayondagi mifologik va diniy dunyoqarashlar real voqeliklar, hodisalar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Tarixiylik metodi jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzlusiz rivojlanishini ifodalab, din falsafasi tamoyillarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Din falsafasini o'rganishda mantiqiylik metodini qo'llashda mantiqiy izchillikka qat'iy rioya qilinadi. Chunki din falsafasi dunyoqarashning bir muhim yo'nalishi sifatida mantiqiy birikmalar orqali ifodalanadi.

Din falsafasi diniy-falsafiy bilimlar tizimidagi alohida yo'nalish bo'lib o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlangan. U olam va odam munosabati, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni iloxiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tushuntirishning o'ziga xos tizimini yaratgan. Uning o'ziga xos tamoyillari mavjud: birinchidan, falsafiy bilimlarning bir yo'nalishi bo'lgan din falsafasi jamiyat rivojlanishida o'ziga xos vazifani bajaradi; ikkinchidan, diniy-falsafiy bilimlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi sub'ektiv omil hamdir; uchinchidan, din falsafasi vujudga kelishi nuqtayi nazaridan obyektiv hodisadir.

Din falsafasining asosiy vazifasi diniy e'tiqod va diniy ta'limotlar haqida inson ongida aqlga mos ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunda:

- din falsafasining tarixiy jarayonda vujudga kelishi va rivojlanishi tamoyillarini o'rganish;
- xilma xil diniy falsafiy oqimlar va yo'nalishlaring madaniyat va sivilizatsion tarqqiyotda umumfalsafiy ta'limotlar ta'sirida moslashish va o'zgarish darajasini aniqlash;

- diniy-falsafiy qarashlarni tavfsislashda turli diniy ta'limotlar, qarashlar asosida umuminsoniy va milliy qadriyatlarining uyg'unligiga amal qilish;
- diniy-falsafiy muammolarni tavfsislash va izohlashda hozirgi zamon fan yutuqlariga tayanish;
- globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi jarayonda din falsafasi tamoyillarining O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, vijdon erkinligini ta'minlanishi, dinlararo va millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari bilan bog'liq holda tushuntirish.

## **2.Din falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Din falsafasi o'zining o'rganish predmetiga ega bo'lgan fan sohasidir. U borliqqa ilohiyotchilik metodologiyasi tamoyillari asosida izoh beruvchi nazariyalar (konsepsiylar), tamoyillar va tushunchalar majmuidir. Unga turli falsafiy oqimlarining muayyan tamoyillari asosida endashuvlar mavjud. Jumladan, ekzistensializm, fenomenologiya, germenevtika, pragmatizm, pozitivizm, lingvistik falsafa va psixoanaliz va hokazo.

Din falsafasi individual va ijtimoiy ongdagi alohida dunyoqarash shakli bo'lib, u insoniyatning yaratilishi, rivojlanishi, yashashidan maqsadi va kelajagi haqidagi g'oyalariga falsafiy tahlil beradi. Din falsafasi bir tomondan dunyoviy falsafiy ta'limotlar bilan uzviy bog'liq bo'lish bilan birga dinshunoslik fani bilan ham yaqindan aloqadadir. Dinshunoslikni esa din falsafasidan tashqari: sotsiologiya, psixologiya, fenomenologiya, din tarixi fanlari rivojisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Din falsafasining sotsiologiya bilan bog'liqligi shundaki, dinning jamiyatda tutgan o'rni, funksiyalari, paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy qonuniyatlari hamda tuzilishini (strukturasini) din sotsiologiyasi o'rganadi.

Din fenomenoliyasi individdag'i tasavvurlar, g'oyalar, maqsadlarni amaliy hayotga tatbiq etilishini qiyoslab, dinni klassifikatsiya qilib beradi.

Din tarixi o'tmishda mavjud bo'lgan va hozirgacha davom etib kelayotgan dunyodagi turli-tuman dinlar mavjudligi haqida ma'lumotlarni to'plab uni saqlab bizga yetkazib beradi.

SHunday qilib, din falsafasi diniy xususiyatlarining ichki chuqur mohiyatini olib bersa, sotsiologiya, psixologiya, fenomenologiya, din tarixi ularning muayyan konkret sharoitda tutgan o'rni, darajasi, ta'siri haqidagi ma'lumotlar bilan boyitadi. Din falsafasining yo'nalishlari haqida kitobning keyingi qismida kengroq fikr yurtamiz.

Dinlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi sabablarini, uning ontologik, antropologik, ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlarini, turli hil dinlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fan dinshunoslik deb ataladi. U dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lishidan urug'-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan davrda yuz bergan jarayonini hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalarini, ma'naviy omillarni – mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Din falsafasining shakllanishi va rivojlanishi falsafiy ta'limotning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan bo'lgan falsafaning dastlabki elementlari qadimgi Bobil, Yunoniston va Rimda miloddan avvalgi VI-III asrlarda vujudga kelgan bo'lsa, sivilizatsiyaning keyingi bosqichlarida u muayyan tizim sifatida dinga o'z munosabatini bildirishga harakat qilgan. Falsafaning predmeti ob'ektiv olam va uning yashashi, rivojlanishi hamda taraqqiyoti, hayot va inson umrining mohiyati haqida baxs yuritsa, diniy ta'limotlar ham ana shu masalalarning echimini o'ziga xos hollarda tuyaynan dunekarash shaklda talqin qiladi. SHuning uchun falsafa tarixining muhim masalalaridan biri dinning mazmun-mohiyatini, insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi tutgan o'rmini aniqlash hamda tahlil qilish bo'lgan.

Din falsafasi shunday bilim sohasiki, unda falsafiy muammolar bilan bir vaqtida dinshunoslikning birgalikda rivojlanishi kuzatiladi. Ya'ni ikki fan yo'nalishining to'qnashishi namoyon bo'ladi. Bunda ziddiyatli holat kuzatilmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldirish bilan din falsafasi mazmunini boyitadi.

Din hamisha kishlarni o'zaro hamkorlik va muruvvatlikka da'vat etib, ularda mehr-oqibat, yaxshilik va ezbeglik tuyg'ularini shakllantirgan. Dinlardagi adolat va bag'rikenglik g'oyalari gummanistik mohiyatga ega hayotiy ideallar shakllanishiga zamin yaratib, millatlararo va dinlararo totuvlik va hamjihatlikni

mustahkamlashga, milliy madaniyat va qadriyatlarni rivojini ta'minlab, inson va jamiyatning barqaror taraqqiyotining muhim omili hisoblangan.

Din falsafasi diniy ta'limotlar asosida yuzaga kelgan nazariya va qarashlar bilan o'z yo'nalishlarini belgilar ekan, tarixiy jarayonda dinka nisbatan turli-tuman ziddiyatli fikrlar, qarashlar, hattoki "din xalq uchun afg'ondir" (Marks) degan g'ayriilmiy qarashlar ham bo'lganligini e'tiborga olishimiz lozim.

Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida yozganidek, o'tmishda har qanday ta'qidlarga karamasdan, xalqimiz bari-bir o'z muqaddas diniga sodiq qoldi. Bugungi globallashuv jarayonida jaxonda o'z o'mini topishga intilayotgan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur egallashga intilmoqda. Shu jumladan, din falsafasi va dinshunoslik dunyoviylik bilan doimiylik tamoyillarini ilmiy asoslarini talabalargp tushunturishimiz lozim. Birinchi Prezidentimiz Islom Karmov ta'kidlangalaridek: "Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlар o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlар bir birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi"<sup>2</sup>.

Prezidentimizning metodologik ahamiyatga ega mulohazalari dinni ijtimoiy hodisa sifatida, uni doimo rivojlanib boruvchi tizim sifatida o'rganishni, diniylik va dunyoviylik munosabatlarining ilmiy asoslarini yaratishni hamda din falsafasida ushbu masalalarga e'tibor berishi ko'rsatadi.

Din falsafasining maqsadli talablari dinlarning turlari, tarixi, rivojlanish qonuniylari, ta'limoti, asosiy manbalarini o'z metodologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish bilan birga o'tmish va hozirgi zamo din falsafasi haqidagi turli nazariyalar, qarashlar va ularni xalqlar, millatlar xayotidagi tutgan o'mini ilmiy asosini muntazam tushuntirishdan iborat.

Jahon dinlarining (buddaviylik, xristianlik, islom) vujudga kelishi va ularni dunyo xalqlarining ongi va turmush tarzidan o'rın olishi

<sup>2</sup> Каримов И.А.. Юксак маънавият - ёнгилмас куч., Т.; "Маънавият", 2008. -Б. 96.

amiyat tarixiy taraqqiyotida diniy aqida va ta'limotlar haqida nuayyan falsafiy mushohada qilishga chorlagan. Bu holat falsafiy finshunoslikning ayniqsa, din falsafasining shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Din muammlariga xos dastlabki g'oyalar. Markaziy Osiyoda – monizm, deizm, ponteizm va boshqalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Zardusht supatoma, Muxammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning "ikki haqiqat" ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda boburning nabirasi SHoh Akbar, so'ngra XVIII asrda fransuz saylasuflarning dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar ezaga kelishiga katta turki bo'lgan, Binobarig XIX asrda mifologik mактab (aka- uka Y.A.va V. Grimm, M.Myuller); antropologik mактab (L.Feyerbax) va boshqa maktablar paydo bo'ldi. XX asrda dinshunoslik va din falsafasi yanada yangi nazariya va qarashlar bilan boyidi. Bunda shvetsariyalik psixolog K.Yung va ayniqsa, fransuz sotsiologi E.Dyurkgeymning "kollektiv ong" haqidagi ta'limoti dikkatga sazovordir. Ammo o'sha davr dinshunosligi dinga o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etar ekan, bu qarashlarn diniy tashkilotlar manfaatlari bilan bog'lanmagan. Mafkuraviy jihatdan betaraf qilib ko'rsatilgan. Bu urinishlarni "asoslash" va turli falsafiy hamda ijtimoiy nazariyalardan foydalilanilgan. Amalda esa ilohiyotga ko'proq yondashilgan. Qadimgi davrlardan buyon xayolparas odamlar o'zlarining diniy etiqodlarini oqlash uchun izlanganlar. Balki kechirish uchun e'tiqodga ishonchning eng ko'p asosi Allohnинг mavjudligiga ishonchni qidirib izlaganimizdir. Allohnинг abadiyligiga etiqodni oqlashga urinish umuman olganda ishonish va no ishonchlilikga faktlar yoki huddi allohnинг tajribasi yoki faqatgina o'rtacha ishonch faktlardan boshlanadi. Bu va keingi bobda biz taxminan rotsianal insonga xos faktlarga murojat qilib allohga etiqodni kuchaytirishga sabab ba'zi asosiy urunishlarni ko'zdan kechiramiz Qaysiki diniy yoki diniy bo'lmagan. Xuddi shu faktlar orqali ilohiyotchilar va faylasuflar allohnинг mavjudligi haqidagi baxs munozaralarni rivojlantirdi. Osha bahs-munozaralarda ular Allohnинг mavjudligiga xolis shubhadan uzoqda bo'lishini isbotlashini tasdiqlaydi. Allohnинг abadiyligi haqidagi bahs munozalar umuman so'ngi va oldingi baxs munozaralrga bo'linadi. So'ngi bahs-munozara

bir tamoyillini talab qiladi. Bu muqaddima bizning dunyo tajribalarimiz ma'nosini orqali mashxur bo'lishi mumkin. Oldingi bahs-munozara boshqa tomondan tamoyillarning qolganlari dunyo tajribasidan mustqailligi bn mashxur. Alohning abadiyli haqidagi 3 ta asosiy bahs-munozara koinotga oid, loyihalash, ontologik faqatgina so'ngida batamom so'ngisi koinot bahs-munozarasi dunyo haqida oddiygina faktdan boshlanadi. Xuddi boshqa narsalar orqali mangu bo'lishga sabab bo'lgan narsalarni o'z ichiga olganlari kabi. Yaratish baxs munozarasi dunyo haqida murakkab faktlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fakt dunyoni ko'rsatadi yoki uni yaratadi. Bilish argumentida biroq bu narsa alloh tushunchasi bilan boshlanadi. Bu bobda biz kosmik argumentni ko'rib chiqamiz. Keyingi ikki bobda esa biz bilish va yaratish argumentlarning tadqiq qilamiz<sup>3</sup>.

Dinshunoslik sohasidagi izlanishlar din falsafasi yo'nalishi uchun muayyan xulosalar chiqarish imkoniyatini bergen: birinchidan, har qanday din ijtimoiy hodisa fenomen hisoblanib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir; ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl va kasb etgan; uchinchidan, dinshunoslik haqidagi to'plangan ilmiy-nazariy bilimlar din falsafasi yo'nalishlari va vazifalarini belgilash imkoniyat yuzaga keltirgan.

Din falsafasining inson va jamiyat hayotidagi o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- odam va olamni yaratilishi va rivojlanishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlarda;
- hayot va o'lim, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini mushohada qilishda;
- din falsafasining ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shahs hayotidagi ahamiyati to'g'risida;
- gnoseologiya, ya'ni olamni bilishning o'ziga xos usuli sifatida;
- monizm, dualizm, plyurializm, materializm va idealizm kabi falsafiy tushunchalarga nisbatan munosabati va o'ziga xos talqini tashkil etadi.

Bu yo'nalish va vazifalarni din falsafasi nuqtai nazaridan o'rganish va tahlil qilish milliy va jaxon dirlari sohasida amalga

<sup>3</sup> William L. Rowe. *Philosophy of Religion*. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. -P. 19

oshirilgan taddiqotlar, izlanishlar va olingan ilmiy xulosalarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun har bir din bo'yicha alohida fikr yuiritish lozim bo'ladi. Dinni taddiq qilishga bo'lgan qiziqish xristianlik dini paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan. Dastlabki asrlardayoq cherkov rahnamolari qadimdan mavjud bo'lgan majusiyalar (butparastlik) din vakillari bilan muloqotga kirishib, zamondoshlari e'tiqod qiladigan diniy tasavvurlarning mohiyatini tushunishga harakat qilganlar. Keyinchalik, ayniqsa, XVII asrdan boshlab xristian missionerlari bu din ta'limotiga zid bo'lgan diniy ibodat xususiyatlarini ko'rsatib, ularga qarshi kurashganlar.

Ayniqsa, Evropada keyingi 300 yilda dinning ilohiy vahyligi haqidagi ko'pgina teologik (ilohiyot) an'anaviy qarashlarini falsafiy jihatdan talqin qilishga kirishildi. Bu holat Evropada o'rta asrlarda, hattoki hozir ham davom etmoqda. Bunday falsafiy qarashlarning davom etishi va keng tarqalishining sababi xristian dini ilohiy yozuvlaridagi asosiy mohiyatni (Xudo mavjudligi haqidagi fikr) o'zgartishga, falsifikatsiya qilishga yo'l qo'yilmasligidir.

Biz allaqachon qayd qilib qo'ydikki, ko'plab asosiy ilohlarga ko'ra Xudoning haddan tashqari yaxshiligini, uning tashqi olamdan yiroq tushunchaligini, dunyoning yaratuvchisi ekanligini, unig har narsaga qodir va ulkan kuch qudratga ega ekanini anglab ettik. Xudoga nisbatan berilgan 2ta boshqa xususiyat shundan iboratki, buyuk ilohiyotchilar, ular yagona mavjudlik va mangulik tarafdarlaridir. G'arbiy sivilizatsiyada Xudo haqidagi boshqa fikr va keyingisi, uning o'ta yaxshi bo'lganligi, uning o'zgacha dunyosi va olamdan ajralib turilishi yagona mavjudligi, har narsaga qodir ekani, katta kuch qudratga egaligi va olamning yagona yaratuvchisligidir. Albatta, Xudo haqidagi bu fikrlarning asosiy elementlari ro'yhati bizga o'zları tushuntirilganidek ochib beriladi. U qanday qudratli bo'lishhi mumkin? Yagona mavjudot g'oyasini biz qanday tushunamiz? Qaysi yo'l bilan Xudo dunyodan ajralib mustaqil bo'lishi mumkin? Xudo yolg'iz, Xudo abadiy, mangu deyilishining ma'nosi nima? Birdan bir yolg'izlik, mangulik biz bularga va shunga o'xshash savollarga javob berishimiz mumkin. Xudo haqidagi bunday g'oyalar g'arbiy sivilizatsiyada paydo bo'lganligini anglab ettik. Xudoning manguligi yolg'izligi haqidagi savollarni o'rganishdan oldin uni ya'ni bunga asoslangan savollarga javob berishga harakat qilish orqali o'zimizning Xudo haqidagi fikr va g'oyalarimizni boyitish muhim deb

bildik. Biz ko'rishimiz mumkinki, Xudoning qudratini tushunib bo'lmaydi. O'tmishda qanday o'zgarishlar bo'lgan? Aniqki, Xudo AQSH prezidenti bo'lgan Niksonni saqlab qola olmagandi. Ammo endi Xudo buni qila oladimi? Nikson hech qachon prezident bo'la olmasligi mantiqiy asos emas. Xudoning marhamati bilan paydo bo'lgan yoki uning boshqa bir yaxshiliklaridan biri, ammo garchi biz kuch qudrat haqidagi tushunchamizni oqlaadik. Va Xudoning kuch qudrati mutlaqo hech narsa emas. Biz Xudo haqidagi tushunchalarni hech qachon tasdiqlay olmaymiz<sup>4</sup>.

O'rta asirlardagi xristian dini ilohiyotchilari va faylasuflari diniy muammolarni tadqiq qilishni faqat bitta din-xristianlik Bibliya ta'limoti asosida bo'lishni talab qildilar. Boshqa dinlar haqida fikr yuritish man qilindi, hattoki o'rta asrlarda shu talabni bajarmagan kishilarni dinsizlikda ayblab, jiddiy choralar ko'rildi.

Ma'rifatparvarlik davriga kelib, xristianlikni katolik yo'nalishi Evropa faylasuflari tamonidan tanqid qilinishi bunday vaziyatni o'zgartirib yubordi. Bu davrda Angliya, Fransiya va boshqa Evropa davlatlaridan «tabiiy dinning» inson tabiatidan postulat (faraz)larini topishga qiziqish faollashgan edi. Buning uchun faylasuflar boshqa dinlarga ham murojaat qilishga majbur bo'ldilar. Natijada konfutsiychilik, daosizm, buddaviylik, islom va boshqa dinlar haqida bilimlar to'plandi. Bu tadqiqotlar dinshunoslik va din falsafasi fanining shakllanishi va rivojlanishiga hissa bo'lib qo'shildilar.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida bir qancha nemis faylasuflari: Gerder, Shlegel, I.Kant, Gegel, Shleyermixer va boshqalar tomonidan umumtarix rivojlanishi konsepsiysi ishlab chiqildi. Ular yoqlab chiqqan nazariyalari bo'yicha, dinni o'rganishga tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan qarab, uni jamiyat taraqqiyotidan ajralgan holda tadqiq qilish mumkin emasligini ilmiy asosladir. Bu holat keyinchalik dinshunoslik va din falsafasi fanini o'rganishning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi.

Germaniyada XIX asrdan boshlab dinshunoslikka qiziqish ilmiytus ola boshlaydi va bu borada nemis olimlari bu fan sohasini boshqarish (etakchilik) obro'siga ega bo'lganlar. Faylasuflar tarixni ilmiy tahlil qilish mumkinmi degan savolni o'z oldilariga qo'ydilar va

---

<sup>4</sup> William L Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 6

hunga ijobjiy javob topilgandan so'ng ular din tarixiga e'tibor jaratdilar.

SHunday qilib, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida tadqiqotchilar tomonidan to'plangan nazariy ma'lumotlar gumanitar fanlar sohasida yangi fan-«dinshunoslik»<sup>5</sup> ning shakllanishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida dinshunoslik fani falsafa, din falsafasi, antrapologiya, etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik, qiyosiy mifologiya va folklor kabi fanlar bilan to'qnashgan holda jahondagi dirlarni tadqiq qilishga kirishdi.

Din haqidagi yangi fanni vujudga keltirish harakati Evropa klerikallari (din himoyachilar) tomonidan salbiy qabul qilinib, unga qarshi tanqidiy fikrlar aytildi. Ular o'z e'tirozlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslashga harakat qildilar. Ularning fikricha, dinni ratsional (aqliy) uslubda o'rganish mumkin emas ekan, chunki din o'z mazmuni bilan irratsional (aqldan yuqori) elementlarga ega. Amaliy jihatdan dinni o'rganish esa, ya'ni turli dinlarning qiyosiy tahlili diniy qadriyatlarning ahamiyatining pasayishiga olib keladi.

Bunday e'tirozlarning mavjudligiga qaramasdan Evropa jamoatchiligidagi dinshunoslikka bo'lgan qiziqish so'nmadi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab din falsafasi va tarixi fanidan Angliya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning yirik universitetlarida ma'ruzalar o'qila boshlandi.

Din falsafasi fanining predmetini mazmuni falsafasi shundaki, undishunoslik fanidan farqli ravishda dinning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, uning ta'limoti, vujudga kelishi va shakllanishini o'rganishda falsafiy ta'limot va tamoyillarga suyanadi. Zero, bu fan jamiyat taraqqiyoti jarayonida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalarни-mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, masjid va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini falsafiy tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Din falsafasining obyekti va predmeti haqidagi qarashlarda hozirgi zamон олимларда бу масалага турлича ўндашувларни кузатиш mumkin. Aksriyat олимлар din falsafasi diniy ongning tadqiq qilish orqali din fenomeni va madaniyatni o'rganadi, degan fikri quvvatlaydilar.

<sup>5</sup> Тимошук А.С. пишет, что в англоязычной литературе эта отрасль знания стала называться «The Science of Religion», во франкоязычной - «la Sciene de Religion», в немецкоязычной - «Religionswissenschaft». См.: Тимошук А.С. last update: 12 07 2005. 10: 06: 48.

Haqiqattan ham din falsafasining asosiy o'rganadigan bosh mavzusi diniy ongdir. Diniy ongni tadqiq qilish diniy ibodat va tilni tahlil qilish hamda diniy ongda o'z aksini topgan va namoyon qilgan diniy amaliyat – turli ibodat buyumlari, xaykallar, diniy san'at va boshqalar orqali amalgalashadi.

Bu masalalar ham falsafiy dinshunoslikni ham falsafiy teologiyani o'rganish, tadqiq qilish obyektiga kiradi. Ammo ular o'rtasidagi farq shundaki, falsafiy dinshunoslikda diniy munosabatning ko'proq insondagi subyektiv tomoniga e'tbor berilsa, falsafiy teologiyada falsafiy xudoni bilish obyekti dinga qaratiladi.<sup>6</sup> Bu shundan dalolat beradiki, falsafiy dinshunoslik bilan falsafiy teologiyaning o'rganadigan predmeti bittadir, ya'ni – diniy ong hisoblanadi, obyekti esa xar xildir. Agar birinchisida insonni dinga bo'lgan munosabatida dunyodagi real hodisalarga qaratilsa, ikkinchisida esa reallik - g'ayritabi kuchlarga qaratiladi.

Din falsafasining shakllanishi va rivojlanishi, uning predmeti va obyektini aniqlash masalasi Sharq, xususan, G'arb olimlari o'rtasida turli xil yondashuvlar XVIII-XIX asrlarda, ayniqsa XX, XXI asrlarda qizg'in davom etmoqda. Bunda Amerika, Germaniya, Rossiya olimlari faol qatnashmoqdalar. Y.A.Kimelyovning yozishicha, g'arb falsafasida din falsafasi "mustahkam assosga" ega bo'lgan fan sifatida qaralmoqda. SHu bilan birga bu fanning predmeti, metodi haqida keng faylasuflar jamoasi o'rtaida yagona, bir xil fikr xonuz shakllanmagan. Bunday turli xil yondashuvlarni o'rganish hamda falsafiy tipologiyasini ishlab chiqishga harakat qilinmoqda. Misol tariqasida nemis olimi Rigard Shefler tomonidan ishlab chiqilgan beshta din falsafasi tipi (ya'ni beshta tadqiqot paradigmalari) keltirilgan:

- din falsafasi aqlga muvofiqlik davrigacha tanqidi sifatida;
- din falsafasi dinni falsafaga aylanishi sifatida;
- din falsafasi falsafiy teologiya sifatida;
- lingvistik burilishdan keyingi din falsafasi (diniy til analitikasi).<sup>7</sup>

Din falsafasi tipini aniqlashga bo'lgan harakat boshqa g'arb olimlari ijodida ham kuzatiladi, jumladan, Koliforniya universiteti professori Ninian Smart din falsafasining uchta tipiga qaratadi: din strukturasida uning mohiyatini tahlil qilish; turli diniy fikr va

<sup>6</sup> Qarang: Кимелёв Ю.А. Философия религии: Систематический очерк. М.: 1998. – С.36.

<sup>7</sup> Кимелёв Ю.А. Философия религии: Систематический очерк. М.: 1998. – С. -23-24.

terminlar hujumidan himoya qilish; diniy tilni tahliliga harakat qilish va boshqalar.

Hozirgi zamon din falsafasi muammolari Rossiya olimlarining asarlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti professori I.N.Yablokov tahriri ostda chiqqan “Vvedenie v obo‘ee religiovedenie” nomli o‘quv yurtlari uchun nashr qilingan darslikda din falsafasining hozirgi davr muammolari keng va batafsil izohlangan:

1) falsafiy dinshunoslik va boshqa bilimlar umumtizimida din; falsafasi strukturasini aniqlash, dinni falsafiy idrok etish xususiyatini aniqlash, obyekti bilishning falsafiy metodini hal qilish va boshqalar;

2) diniy bilim strukturasi va xususiyatlarining rivojlanish qonuniyatları, dinshunoslikni boshqa fanlarda tutgan o‘rnini ko‘rib chiqish;

3) din mohiyatini xilma-xil variantlarda turlicha izohlarini tahlili va ta’riflashcha oid yondashuv tomoyillarini topish va nihoyat, dinning falsafiy ta’rifini shakllantirish;

4) dinning ontologik asosini turmushda, Kosmosda, Yer Qurrasida, insoniyat etnosida, alohida odamda va boshqalarda namoyon bo‘lishini aniqlash, dinning gnoseologik yo‘lini tahlili;

5) diniy ongda bilish jarayoni xususiyatlarini o‘rganish (subyekt, obyktning o‘ziga xosligi, bilim natijalari va shakli);

6) turli tiplar va ko‘rinishlarda diniy dunyoqarashni, diniy e’tiqodni, tushuncha, tasavvurlar, mulohaza, xukm, xulosalar strukturasi, din tili, Xudo haqidagi teistik ta’limot uning borlig‘ini asoslash va hokazolarni tadqiq etish;

7) din falsafasining mazmuni va xususiyatlari – diniy metofizika va ontologiya, epistimologiya, istopiosofiya, antropologiya, etika va boshqalar.<sup>8</sup>

Din falsafasi sohasida G‘arb va Rossiya olimlari tomonidan ishlab chiqilgan muammolar bugungi globallashuv jarayonida dolzarb masalalardandir. Ma’lumki, jamiyat tarqqiyoti platonda din va diniy qadriyatlarning kishilar ongi va turmush tarziga ta’siri falsafiy dinshunoslik, ayniqsa, din falsafasi fanlarida ilmiy asoslashgina harakat

35

<sup>8</sup> Qarang: Введение в общество религиоведение: Учебник / под ред. И.Н.Яблоков. – М.: 2001. – С. 34.

qilingan. Shu nuqtayi nazardan din falsafasi sohasidagi bugun kun uchun g'oyat dolzarb hisoblangan muammolarni har birini tadqiq etish va ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhimdir. Bu borada respublikamizdagi dinshunoslar va faylasuf olimlar tomonidan muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida dishunoslik va din falsafasining muammolari din va diniy qadriyatlarga nisbatan qiziqishining ortib borishi bilan izohlanadi. Birinchidan, din falsafasining dinshunoslik fanlari tizimidagi o'rmini tadqiq etish; ikkinchidan, dinning mohiyati, falsafiy talqiniga nisbatan turlicha yondashuvlarni mohiyatini o'rganish va buzg'unchi g'oyalarni asossizligini isbotlash; uchinchidan, dinning ontologik va gnosologiya asoslarini tadqiq etishning metodolgik bazasini yaratish din falsafasi oldida turgan muammolardir.

Din falsafasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida islom va dinshunoslik munosabatlari va ilohiyot falsafasini ham o'rni bo'lar. Ular haqida qisqacha fikr yuritamiz.

### **3. Islom va dinshunoslik**

Ma'lumki, islom VII asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan jahon dinlaridan biridir. Yangi dinni o'z vatanida targ'ib, tashviq qilish va qaror toptirish bilan birga uni boshqa mamlakatlarga ham yoyish maqsad qilib olindi. Shuning uchun VII-VIII asrlarda islom ta'limoti va madaniyatini Arabistondan tashqari qo'shni mamlakatlarga tarqatish, turmush tarziga singdirish bo'yicha katta g'oyaviy va amaliy targ'ibot ishlar qilinib, natijada arab xalifaligi tarkibiga kirgan hudud xalqlarida islom mafkurasi hukmron diniy mafkura va dunyoqarashga aylanadi. Ushbu holatning vujudga kelishi jarayonida muayyan qiyinchiliklar va qarshiliklarga ham duch kelindi. Chunki mazkur mamlakatlarda islomdan boshqa dinlarning nafaqat diniy ta'limotlari, balki diniy-falsafiy qarashlari mavjudligi bu yangi dinga bo'lgan munosabatlarni takomillashtirishni, kengroq fikr yuritishni talab qildi. Ya'ni, islom ta'limotini diniy-falsafiy mushohada qilish zaruriyati tug'ilashadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, arab - musulmon o'rta asr falsafasining asosiy mazmunini

Sharq perepatetiklar<sup>9</sup> kurashi tashkil etgan. Islomdag'i falsafiy ökrlarning shakllanishi mu'taziliylar va mutakalimlar (kalom falsafasi) qarashlari bilan bog'liq bo'lib, u VIII asrning ikkinchi armidan boshlangan. Mu'taziliylar harakati O'rta Osiyoda ham keng oyilib, ilm-fan, falsafiy fikrlar rivojiga olib keldi, oqibatda ilmiy markazlar vujudga keldi. Mu'taziliylar ta'sirida vujudiyyo'n diniy falsafiy oqimlari shakllandi. Bu oqim vakillari-Al Kindiy, Ibn Rushd, Al-Maarriy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom va boshqalar mavjudotni ikkiga-vujudi mumkin va vujudi vojibga bo'lganlar. Vujudi vojib sabab-oqibat aloqalariga ega bo'lib, uning mavjudligi boshqa narsadan emas, balki o'z mohiyatidan kelib chiqadi.

Mu'taziliylikning qarashlari va vujidiyyo'n diniy-falsafiy oqim g'oyalari qo'shyaqiqat to'g'risidagi katta nazariy qoida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bunga ko'ra, ilohiy va dunyoviy (ilmiy) haqiqatlar bor bo'lib, ilohiy haqiqatga faqat alohida odamlar-payg'ambarlar, aziz avliyolar etishishi mumkin. Dunyoviy haqiqat esa aql yordamida, ilm-fan yo'li bilan uni qolgan odamlar anglab oladilar.

Bunday falsafiy fikrlar, xususan, diniy-falsafiy oqimlarning shakllanishi va rivojlanishi dinshunoslik fani shakllanishidan bir necha asrlar oldin paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Bu holat diniy-falsafiy qarashlarning islom ta'limoti tarixida dastlabki davrlardan boshlab vujudga kelganligini va bu jarayon keyinchalik ham davom etganligini ko'rsatadi. Mu'taziliyarning vujudiyyo'n diniy-falsafiy g'oyalari, qadimgi Yunon faylasuflari (Aristotel) qarashlaridan oziq olib rivojlangan Sharq falsafasi ta'sirida islomda alohida oqim-tasavvuf vujudga keldi.

Tasavvuf murakkab diniy-falsafiy oqim bo'lib, xilma-xil shakl va yo'nalishlarga ega. Unda ikkita asosiy-g'oyaviy yo'nalish ko'zga tashlanadi: birinchisi, bu dunyo o'tkinchi dunyo bo'lib, mol-mulk, mansabga ixlos qo'yish Alloho ni unitishga olib keladi; ikkinchisi, bu dunyo Alloh Taolo tomonidan yaratilgan, odamlar esa, shu dunyodagi ezgu ishlari bilan u dunyoda Alloh visoliga musharraf bo'la olishi uqtiriladi.

XIX asrning 2-yarmidan boshlab, Evropa, Amerika va Rossiyada islom, uning tarixi va manbalarini o'rganishga e'tibor qaratildi.

<sup>9</sup> Перепатетиклар (юонча. Суз булиб, луғавий маъноси "сабр қилювчилар" ни англатса ҳам, моҳият Аристотел изидан боруви файласуфларни англатади.

Ayniqsa, sobiq sho'rolar tuzumi davrida O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, SHimoliy Kavkazda islom ta'limoti, muqaddas yozuvlarni o'rghanish va tahlil, tadqiq qilishda keng ko'lamda ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Evropalik olimlar esa islomshunoslik fanini o'rghanish, islom tarixi va manbalarining tadqiqoti yo'lida ko'p xizmat qilganlar. Bu borada rus sharqshunosligida ham barakali ishlar olib borilgan. V.R.Rozen asos solgan mashhur «Rus akademik sharqshunosligi»ning vakillari N.A.Mednikov, L.E.SHmidt, A.E.Krimskiy, V.V.Bartold. I.YU.Krachkovskiy, E.E.Bertels, A.A.Semenov va boshqalar islomshunoslik sohasida qimmatli asarlar yaratganlar.

Islomning paydo bo'lishi va uning ta'limotini ilmiy nuqtai nazardan o'rghanish, umuman islomshunoslik masalasi XX asrning 30-yillarga kelib sobiq sovet tuzumida jiddiy ravishda o'rtaga qo'yildi. O'zbekiston olimlari esa islom tarixi va islomshunoslik bo'yicha 50-60-yillardan boshlab ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Akademik I.Mo'minov rahbarligida tadqiqotchi olimlardan A.Ortiqov, M.Usmonov, S.Azimov, O.Suxareva va boshqalar ilmiy ishlar olib bordilar. 70-80-yillarga kelganda, islom va uning ta'limoti, islomshunoslik sohasida akademik M.Xayrullayev, N.Ibragimov, olimlardan J.Bozorbo耶ev, I.Jabborov, Ibrohim Karimov, A.Ochidiyev, T.Toshlonov, I.Xo'jamurodov, I.Xudoyberdiev, O.Bozorov, A.Abdusamedov va boshqalar dinlar tarixi ta'limoti va dinshunoslik faniga munosib hissalarini qo'shdilar.

Mustaqillik sharofati bilan islom, uning ta'limotini o'rghanish islomshunoslik va dinshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu davr ichida Qur'oni karimning o'zbek tiliga ikkita tarjimasi va tafsiri taqdim qilindi va ko'plab yangi-yangi asarlar, to'plamlar, maqolalar chop etilmoqda.

Shunday qilib, islom ta'limoti tarixida amalga oshirilgan nazariy va amaliy ishlar Movarounnahr, Xuroson va Eronda, umuman O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkurida birinchidan, ilmiy-falsafiy, madaniy ahamiyatga ega bo'ldi; ikkinchidan, ular goldirgan ilmiy-madaniy meros dinshunoslik va din falsafasi fanlarining shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

Din falsafasi deyarlik barcha dinlarda xususan jahon dinlari (buddaviylik, xristianlik va islom)da mavjuddir. Din falsafasi

muammolarni echimini topishga ontologik, gnoseologik, kosmologik, ijtimoiy va boshqa jihatlardan yondoshiladi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning. 2007. R. 1-2
2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. –T.: O'zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.
4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. Darslik. –T.: Mehnat. 2004.

### **Mustaqil ta'lif mavzulari**

1. Din falsafasining obyekti va predmeti (Taqdimot).
2. Din falsafasini o'rganish Sharq va G'arb halqlarining tarixiy jarayondagi hayoti, madaniyati, dini, turmush tarzi, e'tiqodiy qarashlari (Referat).
3. Din fenomenologiyasi (Taqdimot).
4. Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'lifoti. (Referat).
5. Rigard Shefler tomonidan ishlab chiqilgan din falsafasi 5 tipi (ya'ni beshta tadqiqot paradigmalari)ni tavsifi. (Referat).
6. Hozirgi globallashuv sharoitida dishunoslik va din falsafasining muammolari din va diniy qadriyatlarga nisbatan qiziqishining ortib borishi. (Referat).
7. Sharq falsafasida tasavvuf oqimining ahamiyati. (Taqdimot).
8. O'rta asr Sharq allomalari Al Kindiy, Ibn Rushd, Al-Marriy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyomlarning falsafiy-diniy qarashlari. (Taqdimot).
9. Mustaqillik sharofati bilan islom, uning ta'lifotini o'rganish, islomshunoslik va dinshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlar. (Referat).
10. Din falsafasi sohasiga oid Evropa olimlari tomonidan ishlab chiqilgan muammolar. (Referat).

### **Glossary**

«Avesto» - zardushtiylikning muqaddas kitobi.

**Animizm**- lotin tilida “anima”- ruh, jon ma’nosini anglatadi. Animizim ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiyashtirish, hayvonot, o’simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong tabiat, qudrat borligi ta’limoti ilgari surilgan.

**Axura-mazda-zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohi**

**Axriman** – zardushtiylikning yovuzlik isohi.

**Vahiy-iloh** bilan insonlarning payg‘ambarlar orqali muloqot yo‘li.

**Din** – insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. Din insonni qurshab olgan atrof muhitdan tashqarida bo‘lgan va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil yo‘lni ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch, maslak, qarash ta’limotidir.

**Ilohiyat** – (arab.-xudo to‘g‘risidagi ta’limot) xudo, uning sifatlari belgilari va sifatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limot.

**Islom madaniyati** - islom dini paydo bo‘lganidan keyin shakllangan va rivojlangan madaniyat.

**Kompensatorlik vazifasi** -har qanday din o‘z e’tiqod qiluvchilar uchun to‘ldiruvchilik, tasallli beruvchilik vazifasini bajaradi.

**Regulyatorlik vazifasi** - bir din o‘z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik vazifasini bajaradi. Dinalar urf-odatlarning marosim va bayramlarning qavmlari tomonidan qat’iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo‘yadi.

**Kommunikativ vazifasi** - u yoki bu dinga e’tiqod qiluvchi kishilarning o‘z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi nazarda tutiladi.

### Seminar nazorati uchun savollar

1. “Din falsafasi” tushunchasi.
2. Din falsafasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati.
3. Din falsafasi tarixidagi ikki atama: metafizik substansiya va tarixiy hayotiy din falsafasi.
4. Diniy falsafa va falsafiy teologiya.
5. Din falsafasi dinning mohiyati va hayotiy mazmunini falsafiy anglash.

**6. Hozirgi globallashuv sharoitida dinshunoslik, din falsafasi, xususan islom diniga, uning qadriyatlariga qiziqishning sabablari.**

### **Test savollari**

#### **1. Din falsafasining asosiy vazifasi nimalardan iborat?**

A. Diniy e'tiqod va diniy ta'limotlar haqida inson ongida aqlga mos ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Din falsafasining tarixiy jarayonda vujudga kelishi va rivojlanishi tamoyillarini o'rganish.

B. Xilma xil diniy falsafiy oqimlar va yo'nalishlaring madaniyat va sivilizatsion tarqqiyotda umumfalsafiy ta'limotlar ta'sirida moslashish va o'zgarish darajasini aniqlash. Diniy-falsafiy qarashlarni tavfsislashda turli diniy ta'limotlar, qarashlar asosida umuminsoniy va milliy qadriyatlarining uyg'unligiga amal qilish.

V. diniy-falsafiy muammolarni tavfsislashda hozirgi zamondan fan yutuqlariga tayanish. Globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi jarayonda din falsafasi tamoyillarining O'zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxotlar jumladan vijdon erkinligini ta'minlanishi, dinlararo va millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari bilan bog'liq holda tushuntirish.

G. Barcha javoblar to'g'ri.

#### **2.Din falsafasining inson va jamiyat hayotidagi o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?**

A. Odam va olamni yaratilishi va rivojlanishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlarda. Hayot va o'lim, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini mushohada qilishda.

B. din falsafasining ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shahs hayotidagi ahamiyati to'g'risida;

V. Gnoseologiya, ya'ni olamni bilishning o'ziga xos usuli sifatida ahamiyat kasb etib, monizm, dualizm, plyurializm, materializm va idealizm kabi falsafiy tushunchalarga nisbatan munosabati va o'ziga xos talqini tashkil etadi.

G. Barcha javoblar to'g'ri.

#### **3.Xalqimiz e'tiqod qilgan qadimgi dinlardan biri Zardushtiylikning falsafiy mazmunini nima tashkil qilgan?**

A. Yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim kabi qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi doimiy kurash haqidagi qarashlar.

B. Tabiat falsafasi, diniy falsafiy qarashlar, tarix, ahloqiy qadriyatlar, tibbiyotga oid ma'lumotlar.

V. Ibtidoiy din shakillariga oid o'ziga xos diniy urf-odat va e'tiqodga asoslangan ba'zi diniy falsafiy qarashlar.

G. Fan falsafasi, huquq falsafasi, san'at falsafasi qatorida din falsafasi.

#### **4.Zardushtiylik bu...**

A. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr maxsuli bo'lgan diniy tasavvurlar va mifologik qarashlarni o'ziga xos talqin qilgan olam va odamning yaratilishi va rivojlanishiga yangicha yondashgan yakka xudolik g'oyasini ilgari surgan ta'limotdir.

B. Eramizdan avvalgi II asrning o'rtasida dastlabki yozma manbalardan biri bo'lib, asosan diniy kitob bo'lib, mutaassib dindorlar uchun muqaddas ilm va bashoratdir.

V. Turli millat va xalqlar hayotidagi xudolar, diniy e'tiqodlarga asoslangan odam va olam haqidagi tasavvurlaridir

G. Eramizdan avvalgi VII-II asrlarda Sharq va G'arb halqlarining tarixiy jarayondagi xayoti, madaniyati, dini, turmush tarzi, e'tiqodiy qarashlari bilan yaqindan tanishishtiruvchi ta'limot.

#### **5.Din hodisasini qaysi fanlar o'rghanadi?**

A. Falsafa, tarix, antropologiya, sotsiologiya va psixologiya.

B. Akmeologiya, aksiologiya, teologiya.

V. Dinshunoslik, teologiya, akmeologiya, falsafa.

G. Aksiologiya, tarix, antropologiya, sotsiologiya va psixologiya.

#### **6. Xitoy mifologiyasida...**

A. Juda qadim zamonlarda qoinot qorong'u, shaklsiz bo'shliqdan iborat bo'lib, shaklsiz zulmot ichida ikita ruh tug'ilgan – biri In, ikkinchisi Yan bo'lib, dunyonи tartibga solganlar. Keyinchalik bu ruhlar bo'linib, Yan osmonni, In ruhi erni boshqargan.Bu tasavvurlarning diniy-falsafiy talqini bo'yicha, mazkur ruhlar insonlarni va butun tabiatdagi jonzotlarni ham yaratgan, deb qaraladi.

B. Ta’biy hodisalarga e’tibor qaratilib, bir joyda dastlabki moddiy asosi suv deyilsa, boshqalarida olov, er yoki bularning hammasi dunyoning moddiy asosi deb ko’rsatilgan. Bu masalalar talqini diniy-falsafiy nuqtai nazardan izohlangan. Unda yozilishicha, dastlab dunyoni suv qoplagan, so’ng suvda Braxma (ruh) joylashgan oltin tuxum – xiron’ya grobxa paydo bo’lgan. Rivoyatlarga ko’ra, Braxma tuxumni yorib chiqib ikki tanaga bo’linadi va osmon va erni tashkil etadi. Ammo koinotni yaratuvchisi xudo deyilgan.

V. Fan va madaniyatning rivoji, ayniqsa, matematika, adabiyot va falsafa sohalarida ilmiy qarashlar yuzaga kela boshladi. Uning o’ziga xos tomoni shundaki, turli millat va xalqlar hayotidagi xudolar, diniy e’tiqodlarga asoslangan odam va olam haqidagi tasavvurlarni qamrab olgan edi.

G. Dunyo to‘g’risidagi tasavvurlari, his va tuyg‘ulari, u bilan bog‘liq urf-odatlari aks ettirilgan. Uning falsafiy mazmunini ob’ektiv olamda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim o’rtasidagi doimiy qarama-qarshi kuchlar haqidagi qarashlar tashkil etadi.

## **7. Din falsafasi falsafaning muhim sohalaridan biri sifatida qanday tahlil qilinadi?**

A. Birinchidan, din falsafasini insonlar yashay boshlagan yirik dinga ega bo’lgan tarix bilan adashtirmasligimiz lozim. Ikkinchidan, din falsafasini ilohiyot bilan adashtirmasligimiz lozim. Ilohiyot din ichidagi keng ko’lamli nizom hisoblanadi. U ba’zi diniy e’tiqodlar kabi rivojlanadi va ular insoniyat (tabiiy ilohiyot) yoki ilohiy ta’limot (ilohiyotni ko’rsatish)ni o’rganishning umumiy sababi sifatida shakllanadi.

B. Din falsafasini o’rganish SHarq va G’arb halqlarining tarixiy jarayondagi xayoti, madaniyati, dini, turmush tarzi, e’tiqodiy qarashlari bilan yaqindan tanishishni taqozo etadi.

V. Dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, qadimgi dunyo haqidagi fanlar – astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyalarga oid qarashlarni tashkil qilgani tufayli ahamiyatliti.

G. Odam va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlari diniy-nifologik qarashlarga asoslangan.

## **8. Din falsafasini nazariy-metodologik jihatdan o’rganishda falsafaning tarixiylik metodiga ko’ra...**

A. Tarixiylik metodi jamiyatning o’tmishi dunyoqarashlar

tarixidan iboratligini va uzlusiz rivojlanishini ifodalab, din falsafasi tamoyillarini o'rganish imkoniyatini beradi.

B. Din falsafasini o'rganishda tarixiylik metodini qo'llashda mantiqiy izchillikka qat'iy rioxaya qilinadi. Chunki din falsafasi dunyoqarashning bir muhim yo'nalishi sifatida mantiqiy birikmalar orqali ifodalanadi.

V. Din falsafasi diniy-falsafiy bilimlar tizimidagi alohida yo'nalish bo'lib o'ziga xos tarixiylik metodi asosida o'rganiladi. U olam va odam munosabati, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni iloxiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tushuntirishning o'ziga xos tizimini yaratgan.

G. Tarixiylik metodi xilma-xil diniy falsafiy oqimlar va yo'nalishlarining madaniyat va sivilizatsion tarqqiyotda umumfalsafiy ta'lomitlar ta'sirida moslashish va o'zgarish darajasini aniqlash.

## **9. Din falsafasi fanining dinshunoslik fani bilan qanday aloqada bo'ladi?**

A. Din falsafasi shunday bilim sohasiki, unda falsafiy muammolar bilan bir vaqtida dinshunoslikning birqalikda rivojlanishi kuzatiladi. Ya'ni ikki fan yo'nalishining to'qnashishi namoyon bo'ladi. Bunda ziddiyatli holat kuzatilmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldirish bilan din falsafasi mazmunini boyitadi.

B. Din falsafasi dinshunoslik bilan yuzaga kelgan nazariya va qarashlar bilan o'z yo'nalishlarini belgililar ekan, tarixiy jarayonda denga nisbatan turli-tuman ziddiyatlari fikrlar, qarashlar, hattoki "din xalq uchun afyundir" (K.Marks) degan g'ayriilmiy qarashlarni inkor qiladi.

V. Din falsafasi diniy xususiyatlarining ichki chuqur mohiyatini ochib bersa, sotsiologiya, psixologiya, fenomenologiya, din tarixi ularning muayyan konkret sharoitda tutgan o'rni, darajasi, ta'siri haqidagi ma'lumotlar bilan boyitadi.

## **10. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida umumtarix rivojlanishi konsepsiyasini mualliflarini aniqlang.**

A. Gerder, Shlegel, I.Kant, Gegel, Shleyermixer.

B. Shiller, Geigel, Yung, Froyd, Shopengauer.

V.Tolstoy, Pushkin, Dostoevskiy.

G. Paolo Koelo, A. Kamyu, Derrida, L.Fuko.

## **2-MAVZU. DIN FALSAFASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA QONUNIYATLARI**

### **Reja:**

- 1.Dastlabki diniy an'analarini o'rganishga fenomenologik yondashuv.
- 2.Dinlar kelib chiqishining falsafiy va sotsiologik talqini.
- 3.Dinning mohiyatini aniqlashda biologik va psixologik konsepsiylar.

**Tayanch tushunchalar.** Qadimiy Ahd, yangi Ahd, Tripitaka, fenomenologiya, obyekt, subyekt, ateizm, subyektiv idealzm, din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, mistika, diniy mifologiya, diniy ong, din falsafasi, gnoseologiya, pozitivizm, metodologiya, metodika, engilik, ongsizlik, ong oldi, irratsionalizm, fideizm, konsepsiya, vallyusionizm, funksionalizm, neoevallyusionalizm.

### **1.Dastlabki diniy an'analarini o'rganishga fenomenologik yondashuv**

Qadimgi zamonalardan boshlab din va uning kelib chiqishi masalasi faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Antik Javr olimlaridan boshlab o'rta asr va G'arbiy Evropa faylasuflari denga turlicha ta'rif va tavsiflar berganlar. Falsafiy tadqiqotlarda dinni g'oyalar tizimi sifatida tahlil etuvchi din falsafasi yo'nalishi shakllangan.

Dinning ta'rifi, tavsifi, ta'limoti va ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganishda hozirgi zamon fani uch yondashuv borligini e'tirof etadi:

1) ilohiyot (arab – Xudo to'g'risidagi ta'limot) xudo to'g'risidagi uayyan din tomonidan belgilangan aqidalarni haqqoniyligini e'tirof etish hamda Xudoning sifatlari, belgilari, xususiyatlari to'g'risidagi diniy ta'limotlarni asoslash va himoya qilish tizimi. Shuningdek, Muqaddas yozuvlarning kelib chiqishi masjid va cherkovlarning ilohiy mohiyatga ega ekanligi hamda muayyan dinda belgilangan ibodatlarni bajarish bilan bog'liq bir qator amaliy bilimlar yig'indisini o'z ichiga oladi. Ilohiylik ilohiyot yondashuvini asosiy mazmunini tashkil etib, "muqaddas kitoblar" odamlarga Xudo yoki xudolar tomonidan vahiy tariqasida yuborilagan degan konsepsiyaga

ishonishdir. Ilohiyot nuqtai nazaridan Judaizm tarafdorlari Qadimiy Ahd, xristianlar Qadimiy Ahd va Yangi Ahdni, buddistlar Tripitakani, musulmonlar Qur'oni Karimni "muqaddas kitoblar" deb hisoblaydilar;

2) tanqidiy ateistik yondashuv din va diniy ta'limotlar e'tirof etmaydigan, aksincha unga qarshi kurashuvchi fan ateizm deb hisoblangan. Ateizm (yunon. Thlos – xudo; xudoni inkor etish) – ruhlar, xudolar, o'lgandan keyingi hayotni va boshqalar haqidagi g'ayritabiylik e'tiqodlarni va har qanday dinlarni inkor qiluvchi tizim. Boshqacha qilib aytganda, ateizm g'ayritabiyi kuchlarni shu jumladan, diniarning mavjudligini inkor etuvchi falsafiy va ilmiy nazariy qarashlar tizimidir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida diniy ta'limotlarning hamda ateizmning o'zini rivojlanishi natijasida uning mazmuni o'zgarib bordi. Ateizmning, to'g'rirog'i "siyosiy ateizmning" eng rivojlangan kulminatsion nuqtasi sovet tuzumi davriga to'g'ri keldi. Marksistik ta'limotiga asoslangan ateizm nafaqat diniy e'tiqod, diniy ta'limotlar, milliylikni inkor etdi, balki har qanday dinga, uning qadriyatlariga g'oyaviy-siyosiy jihatdan qarshi kurashdi;

3) ilmiy nuqtayi nazaridan yondashuv din, diniy ta'limotlarga, uning qadriyatlariga obyektiv metodini qo'llab, uni ijtimoiy-tarixiy xodisa, har qanday din ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Din olain va hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida yo'li, uni idrok etishning o'ziga xos usuli, odam olam paydo bo'lganidan to bizgacha o'tgan davrlarning ilohiy tasavvurda aks etishidir. Muayyan his-tuyg'ular, toat-ibodat, diniy qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din falsafasi va dinshunoslikni din antropologiyasi, din etnologiyasi, din tarixi, din akseologiyasi, din geografiyasi, din tipologiyasi kabi sohalari mavjudki, bulardan tashqari din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi va din psixologiyasi ham mavjudki, ularning har biri haqida alohida to'xtalish lozim bo'ladi.

Mantiqsiz tortishuvlarga norozilik bildirgan Olim XVIII asrda Immanuel Kantdir. Bu noroziliklarni xatosi uning tastig'idir. Uchinchida ochiq ifoda qilinmagan ya'ni mavjudlik sifat yoki belgilash predmetning kattaligini to'ltiradi. Bu erda 2 ta tasdiq bor. 1-mavjudlik sifat yoki bashorat. 2-mavjudlik donolikga o'xshab fizikga o'xshamasdan sifat yoki bashoratni katta qilgusidir. Biror kim qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Kant tomonidan 1chiga yo'naltirilgan norozilik mashhur bo'ladi. Bu norozillikga ko'ra mavjudlikni belgilab

bo'lmaydi 3-siga ko'ra; Enselmning tortishuvi mavjudlik bashoratdir degani nazarda tutadi, tortishuv rad etilishi kerak.

Mavjudlik bashorat emas degani nimani bildiradi? Bu nazariyaning markaziy nuqtasi bizni aniq sifat yoki bashoratni nazarda tutishimizga bog'liq. Misol uchun keyingi eshikdagi ayol aqli baland yoki ozg'in deb aytsak bunda keyingi eshikdagi ayolni taxminiy holatlarini aytgan bo'lib, uni – "donoligi," "olti fit," uzunligi yoki "ozg'inligi" nazarda tutamiz. Bu nazariyadan mavjudlik bashorat emas u bashorat qilingan narsaning xususiyati. Ular biz biror narsani sifati yoki taxmini nazarda tutganimizda uni biz taxmin qilishimizni ular nazarda tutishadi. Hozir agar biz shunday qilsak mavjudlik bashorat bo'lishi mumkin emas, biz biror narsani nazarda tutib yoki "ad etishimiz deb o'yashimiz mumkin.<sup>10</sup>

**Din fenomenologiyasi** nemis faylasuflari E.Gusserl va uning shogirdlari (Landgrebe, Fink, Sheler va b.) tomonidan ishlab chiqilgan sub'ektiv idealistik ta'limot. Diniy an'analarini o'rganishga fenomenologik yondashuvni qo'llashda omilning shaxsan o'zi ishtroq etishi nazarda tutiladi. SHunday yondashilganda muayyan dinga tegishli fenomenlarni konkret mohiyatini bilib olish imkoniyati tug'iladi. Dinshunoslikka oid masalalarni tadqiq etishda fenomenologik yondashuv olimning neytral pozitsiyada turishi talab qilinadi. Ya'ni ko'rileyotgan masala yuzasidan chiqarilgan xulosa yoki mulohazalarga e'tibor qaratmaydi. "Fenomenologiya" atamasi fastlab 1974-yilda matematik va faylasuf I.T.Lambert tomonidan tiritilgan. XVIII asrda Germaniya faylasufi Immanuil Kant ham bu haqda o'z konsepsiyasini ishlab chiqqan. Fenomenologik atamaning shakllanguniga qadar XX asrda "fenomenologiya" Germaniya faylasufi V.F.Gegelning "Fenomenologii duxa" asari asosida talqin qilinlar edi. Gegel asarda "fenomenologiya"ni fanni ruh haqidagi ilimlar deb tahmin qilar edi. Chunki Gegel ongdagi subyekt va obyekt munosabatlariiga doimo e'tibor berar edi. Gegel "Fenomenologii duxa" asarida ong bilan ob'ekt o'rtasidagi uzilishni oqotishga va obyekt o'z-o'zini bilishning fenomeni ekanligini ilimiylasafiy jihatdan isbotlashga harakat qilgan. Fenomenologiyani din, hiny ta'limot va qadriyatlarni izohlash va talqin qilishda fenomenalizm tamoyiliga amal qilib – faqat hodisalarni bilish

<sup>10</sup> William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 44

mumkin, ammo ularning mohiyatini bilib bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Fenomenologiya ongni moddiy voqelikdan, inson miyasidan ajralgan hodisa sifatida tasavvur qilib, bilishning tashqi dunyoga munosabatini buzib ko'rsatadi, ideal xarakterdagi nomoddiy ob'ektni bilish predmeti deb biladi. Fenomenologik metod narsa va hodisalar, shu jumladan, din va uning ta'limotlarini bilishda quyidagi talablarga rioxaya qiladi: 1) obyektiv reallik va "sof" (ya'ni subyektiv) chegarasidan chiqadigan har qanday muhokamalardan saqlanish (edos reduksiya); 2) bilish subyektini o'zini real, emperik, sotsial va psixofiziologik vujud deb emas, balki "sof ong" deb qarashdan iborat.

Din fenomenologiyasining diniy xodisalar va diniy ta'limotlarni o'rganish va bilishdagi metodining asosiy talabi: din va uning qadriyatlarini tarixiy aloqadorlik holatidan tashqarida o'rganishni; diniy xodisalarни real mavjudlikdan va haqqoniyligidan va qadriyatli mushohada qilishdan saqlanishi; kishilarning xudo bilan ko'p qirrali munosabatlarini tushunib etishda "sof ong"ni asos qilib olishni nazarda tutadi. Bu bilan "subyektsiz obyekt yo'q" degan subyektiv idealistik tamoyilini mustahkamlaydi.

Dinning mohiyatini tushunib etishga ong mohiyatini tavsiflashga qaratilgan Gusserl asos solgan fenomenologiya nazariyasi etilganda falsafiy ta'limotning asosiy vazifasi real borliqdagi narsa va xodisalarning tushuncha va mazmunlarini aniqlash emas, balki Gusserl taklif etgan usul yordamida fenomenologik ong hayotining o'zini tashkil qiluvchi mazmunlarini aniqlashi ko'zda tutadi.

Fenomenologiyaning mazmuni va maqsadi falsafa tarixida turli shakllarda talqin qidindi. I.T.Lambert, Kant tajribaviy narsalar haqidagi fan deb talqin qilgan bo'lsa, Gegel "ruh fenomenologiya" sida uni ilmiy-falsafiy bilimlarni qaror topishi deb tushunilgan. Gusserl fenomenologiyani ong mazmunini aniqlovchi metod deb qaraydi. XX asrning boshlarida shakllangan fenomenologiya g'arb idealistik falsafa yo'naliishi rivoji Gusserl nomi bilan bog'liq bo'ldi. Olimning metodida olamning qabul qilishning intensionalligi haqidagi doktorinasi markaziy o'rinn tushgan. Bunga ko'ra, ong strukturasini tarixiylik va tajribaviylikda tashqaridaligi e'tirof etilib, u tilda va psixologik kechinmalarda real mavjudlikni ta'minlaydi. Shunday qilib, fenomenologiya tashqi olamni bilishda

iror bir narsani hodisa sifatida talqin qilmaydi, aksincha, uni ongini zida bevosita sodir bo'lgan hodisa degan fikrga asoslanadi.

Din fenomenologiyasining shakllanishi va bu yo'lda ijod qilgan himlar haqida "Din falsafasi" qo'llanmasi mualliflari yozishicha, Hollandiya va Germaniyada paydo bo'lgan din fenomenologiyasi konsepsiysi o'zining ko'plab tarafdarlariga ega bo'ldi. Germaniyada Fridrix Xeyler (1982-1967) va Yoaxim Vax (1898-1955) kabilar o'zga ko'rigan din fenomenologiyalari bo'lgan bo'lsa, XX asrning irinchi yarmida gollandskandinav o'lkasida Edvard Lemann (1862-930) va Uilyam Brede Kristensenlar (1883-1959) ham din fenomenologiya rivojiga katta xissa qo'shdilar. Ioaxam Vaxning Amerikaga emigrant bo'lib borishi esa, ushbu falsafiy yo'nalihsining AQSHda ham rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Xususan, germaniyalik him asos solgan CHikago maktabi vakillari M.Epilde, Dj.Kitagava, CH.Long, F.Eshbi kabi mutaxassislar din fenomenologiyasida o'ziga yos yondashuvlarni ishlab chiqib, o'zlarini munosib xissalarini o'shdilar.<sup>11</sup>

SHunday qilib din fenomenologik fanining vazifasi "sof ong" dagi mayyor absolyut haqiqatni, mantiqiy qoidalarni o'rganishdir. Fenomenologiya ekzistensializm falsafasining asosiy manbalaridan biri bo'ldi. Uning asosiy qarashlari hozirgi irratsionalizmda ham hamoyon bo'immoqda.

Gusserlning Luven katolik universiteti qoshidagi (Belgiyada) arxivi va "Falsafa va fenomenologik tadqiqotlar" jurnalini nashr etuvchi Xalqaro fenomenologiya jamiyati fenomenologik oqimning nozirgi davrdagi nazariy markazlaridandir. Subyektivizm, abiatshunoslik fanlari bilan bog'liqlikdan yiroqlik fenomenologiyaning jiddiy kamchiliklari bo'lsa steintizm va pozitivizmga nisbatan tanqidiylik uning ijobiy xususiyatidir.<sup>12</sup>

Dunyoga boqing butun va uning har bir qismi haqida fikr yuriting, siz uni hech narsa, lekin cheksiz hisobdag'i kam nezanizmlarga bo'lingan bitta ulkan mexanizm deb topasiz, qaysiki nson his - tuyg'ulari va qobiliyatlarining iziga tusha olishi va tushuntira bilishi zamirida mayda qismlar yana daraja deb tan olinadi. Bu turli xildagi barcha mexanizmlar va hattoki ularning qismlari

<sup>11</sup> Дин фалсафаси (Ўқув кўлланма). –Т.: 2011.-6.74.

<sup>12</sup> Qarang: Фалсафа. Комусий лугат. –Т.: "Шарқ", 2004. –6.428.

aniqlik bilan tartibga keltirilgan va vu qachonlardir bu haqida fikr yuritgan barcha insonlarni zavq ila hayratga keltiradi. Vositalarni oxiriga moslashtirish qiziquvchanligi butun tabiat, yani inson ijodkorligi maxsuloti, inson loyxasi, o'y - fikr, donoligi va aqli bilan aniq o'xshaydi, hattoki u ba'zida ustun kelsa ham. Natijalarning hammasi bir - biriga o'xshashidan beri, o'xshashlikning barcha qoidalari asosida xulosa chiqarishga etakladi, unda, hatto sabablar ham o'xshash, zeroki inson aql - idroki anchagini qobiliyatlarga erishilganligiga u bajargan ishlarning ulkanligiga taqsimlanishiga qaramasdan u tabiat muallifi bilan qaysidur ma'noda o'xshash.<sup>13</sup>

**Din psixologiyasi.** Psixologiya (yun. psyche – jon, logos - ilm degan ma'noni anglatadi) – inson va hayvonlar psixik (ruhiy) hayoti to'g'risidagi fan. Dín psixologiyasi esa falsafa va psixologiya fanining yo'nalishlaridan biri bo'lib, inson psixikasida dinni idrok etish, tushunish, talqin qilish haqidagi qonuniyatlarni o'rgatuvchi fandir.

Psixologiyaning o'rGANADIGAN hodisalarini muhim bir sohasi ruh (jon) masalasi ekan u, jamiyat rivojining ilk davrlaridan boshlab odamlarni qiziqtirgan muammolardan hisoblanadi. Bunga javoban qadimgi dunyo odamlarida turli diniy-mifologik qarashlar shakllana bordi. Psixik hodisalar haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Hindiston, Xitoy, Misr, Vaviloniya, Yunon, Gruziyalarda ruh (jon) haqidagi diniy-mifologik tasavvurlarga qarshi ruhiy (psixik) holatning organi miya degan fikrni asoslashga harakat qildilar. Inson ongini tuzilishi, rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini deyarli barcha tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar o'ziga xos tomonlarini o'rGANADI. Psixologiya fani o'zining o'rGANADIGAN obyekti, predmeti bo'lgan holda, din psixologiyasi esa diniy ongning psixologik xususiyatlarini o'rGANADI.

Diniy ong muayyan diniy tasavvurlar, diniy ta'limotlar, turli urf-odat, marosimlar ta'sirida shakllanadi. Demak din, nafaqa tasavvurlar, g'oya, e'tiqod, ya'ni ongga tegishli (ijtimoiy va individual) fenomenlarni, balki odamlarning o'zaro yoki bir-birlari bilan munosabatda sodir bo'lувchi ibodat turlarini hamda ularni boshqaruvchi diniy tashkilotlar tizimidan iboratdir. Ammo diniy tashkilotlar, diniy institutlar faoliyatini o'rGANISH din psixologiyasi vazifalari qaroriga kirmaydi. Lekin din psixologiyasi rivojiga ta'sir

<sup>13</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 54

ko'rsatuvchi tomonlari bo'lgandagina unga shunchaki e'tibor qaratiladi. Din falsafasining asosiy vazifasi diniy ong va diniy e'tiqod qiluvchilarning ma'naviy dunyosini o'rganishdan iboratdir.

Din psixologiyasi psixologik bilimlar dinshunoslik tamoyillari bilan o'zaro yaqin alohida rivojlanadi. Din psixologiyasi yo'nalishida diniy ongni o'rganishda nazariy dinshunoslikning tamoyillari bilan birga uning rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi. Nazariy dinshunoslikning bir qancha yo'nalishlarini ajratish mumkin: 1) din falsafasi – unda dinding mohiyati, ijtimoiy hodisa sifatidagi umumfalsafiy tushunchasi, diniy ongning psixologik tahlili va gnoseologik ildizlari tahlil qilinadi; 2) din sotsiologiyasi, dinni sotsiologik tadqiqotlar asosida uning ongdan darajasi va funksiyalarining ilmiy asosini metodologik jihatdan o'rganadi; 3) din psixologiyasining asosiy o'rganadigan ob'ekti dindorlarning dinga e'tiqod qilmaydigan kishilarning xulqi va harakatidan farq qiluvchi psixologik xususiyatlarini metodologik tamoyillar asosida tadqiq etishdir.

Din psixologiyasining va dindorlar psixikasining muhim metodologik usuli diniy ilmiy jihatdan tushunishdir. D.M.Urgenovich dinni o'rganishning ilmiy-metologik usuli tushunehasidan farq qiluvchi burjua din psixologiyasida talqin qilingan bir nechta metodologik tamoyillarni keltiradi. Bularning ichida muhimi din psixologiyasining gnoseologik va psixologik problemalar tahlili hisoblanadi.

G'arb psixologik yo'nalishida mazkur muammoga ikki hil ondashuv mavjud: biri pozitivistik; ikkinchisi, teologik yoki o'g'ridan-to'g'ri idealistik yondashuvdir. Avvalo shuni qayd qilish ozimki, AQSH va Yevropada bu masalalar yuzasidan nashr qilingan ator ishlarda din psixologiyasida diniy tasavvurlarining haqqoniyligi oki haqqoni emasligi haqidagi fikrlardan voz kechish lozimligini o'llab-quvvatlamoqdalar. Hattoki , bu masala psixologiya fani o'mpetensiyasiga kirmasligi aytilgan. Masalan, fransuz psixologi Flurnua (1854-1920) shunday fikrga qo'shilgan bo'lsa, keyinchalik belgiya psixologi A.Goden Bryusseldagi psixologlarning XV xalqaro ongressida (1957) "pozitiv" psixologiyaning prinsipial masalalaridan diri transdental mavjudlik masalasini rad etishdir, degan edi, Bunday ikrni ingliz psixologi R.Gulles ham quvvatlagan. Bu olimlarning fikriga ko'ra, psixologlar din mohiyatini aniqlash yoki haqqoniylilik

mazmunini ta’riflash bilan shug‘ullanmasdan, balki ularning asosiy vazifasi diniy fenomenlarni o‘rganish va kuzatish deb, uning ilmiy-metodologik talqinini chetda qoldiradilar.

YUqorida keltirilgan G‘arb psixolog olimlarining fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, ular din psixologiyasi masalasining gnoseologik muammolarida ob‘ektiv reallik bilan diniy tasavvurlar munosabatlari teologik nuqtai nazaridan izohlangandir. Diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilar psixologiyasini bunday metodologik yondashuv asosida tahlil qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri noilmay echimdir.

Aslida diniy psixologiyani tadqiq etishda ilmiy-metodologik jihatdan yondashib, unga gnoseologiya va psixologiyani birlikda tahlil qilish orqali erishiladi.

Diniy ongning obyektiv borliq bilan o‘zaro munosabatini idealistik asosda talqin qilishning subyektivlik, pragmativlik konsepsiyalarini esdan chiqarmaslik kerak.

Diniy psixologianing subyektiv idealistik qarashlarining yuqorida keltirilgan tendensiyalarida individual dindorlikning psixologik ta’limida “diniy tajriba”ni asos qilib olinadi, ommoviy dindorlikni esa ikkinchi darajali deb hisoblab, sub‘ektiv idealizm nuqtai nazaridan CHerkov va masjid qonun-qoidalari, ibodat turlarini dindorlikni mustahkamlashga hizmat qiladi, uning asosiy manbai odamning ijodidir.

Bundan tashqari G‘arb psixologiyasida individual va ijtimoiy diniy ong munosabati muammosini hal qilishda interaksionistik yo‘nalish mavjud. Interaksionistlar individual diniy ongni shakllanishida ijtimoiy omillarning rolini inkor etmaydi. Ammo, ularningcha, individdagagi “diniy tajriba” faqat ijtimoiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladi deb bilmasdan shaxsni “intropsixik” talabi natijasidir.

Ilmiy-metodologik yondashuv nuqtai nazaridan individual psixika cheklangan yoki tug‘ma, genetik asosda xosil bo‘lмаган. Individ psixikasining mazmuni uning tashqi olam va ijtimoiy muxit bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ongning g‘ayritabiyy kuchlar haqidagi fenomeni individni ijtimoilashishi jarayonida (oilaviy tarbiya, diniy jamoalar ta’siri) va idealistik omil (diniy adabiyotlar o‘qish) va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi.

Din psixologiyasiga metodologik yondashuvining yana bir jihat, dindorlar psixikasi strukturasining turli komponentlarda tashkil

opganligi masalasidir. Ular: emotsional, bilish va irodaviy jarayon, emoshional va ongsizlikdir. G'arb din psixologiyasida avstriyalik taniqli ixiator va psixolog Z.Freyd (1856-1939) asos solgan psixoanalitik o'nalishning ta'siri kattadir. Z.Freyd ko'p qirrali olim sifatida XX asr G'arb sivilizatsiyasi madaniyati rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Uning abiatiga nisbatan o'ziga xos qarashlari, ayniqsa, psixologiya obyekti sifatida jismonan va ruhan sog'lom insonni olgan va ong fenomeni o'disasini tahlil qilgan. YA'ni, "onglilik", "ongsizlik" va "ong oldi" dan iborat uch tizimi tadqiqot ob'ekti hisoblangan. Olim ongsizzikni faqat ongga ko'tarish orqali bilishni, ong oldini esa, shundagi hodisalar dastlab ongli darajada qabul qilingan bo'lib, eyinchalik xotiradan ko'tarilgan bo'lsada qandaydir darajada izoldirgan degan tamoyilga amal qiladi.

Z.Freyd "G'ayrioddii harakatlar va diniy marosimlar" (1907) nomli kitobida dinni kelib chiqishi va mohiyatini nevroz holati bilan sog'lab, diniy marosimlarning bajarilishi jarayonning qiyosiy qilishtrishga va shu orqali inson ruhiyatida diniy tassavurlarning hakllanishi xususiyatlarini anilashga kirishadi.

Gulnos Ruzimetova "Freydizmدا inson falsafasi tahlili" kitobida ozishicha, g'ayrioddii harakatlar va diniy marosimlar ikki holatda ham ular turli sohalar bo'lsa-da, yashirin shaklda insonning ongsiz qilishlarini bosishga qaratilgandir. Boshqacha aytganda, bu holatlar osida tabiiy ehtiroslarni bevosita qondirishdan saqlanish yotadi, ynan ularning o'hshashligini aniqlaydi. Bundan shunday xulosaga elinadiki, g'ayrioddii harakat va nevrozlikni diniy rivojning otologik nusxasi sifatida ko'rish mumkin. Ya'ni nevrozlikni individual diniylik sifatida, dinni esa eng umumiy g'ayrioddii nevroz holati sifatida aniqlaydi.<sup>14</sup> Shundan kelib chiqib, kitobda quyidagicha xulosa qilinadi. Freydning ruhiy talqinida din insonning ongsiz qilishlariga qarshi himoya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Diniy tiquodda ular boshqacha qoniqish hosil qilish bo'lsa-da, insonning chki ruhiy ziddiyatlaridan bo'lgan ong va ongsizlik o'rtasidagi kurash o'z mohiyatini yo'qtotadi.<sup>15</sup>

Z.Freyd ta'limotiga, dinning (diniy tasavvurlarning) kelib chiqishi va mohiyatini bunday asosda tushunish insoniyat madaniyati rivojida

<sup>14</sup> Qarang: Рузиметова Г. Фрейдизмда инсон фалсафаси таҳлили. Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – 2009.-6.78.

<sup>15</sup> Qarang: o'sha joyda. –6.78.

ibridoiy din shakllarini kelib chiqishi singari talqin qilinadi. Ya'ni insonni ichki va tashqi xirsiy instinctlarini bosish jarayoni din hisobiga hal qilinadi. Psixik kechinmalar u bilan bog'lq urf-odatlar, marosimlarning dastlab ongsizlik holatda boshlangan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy darajada ilohiyotga sajda qilishga yo'naltiriladi. Xudoga bo'lgan ishonch Freyd fikriga iymon-e'tiqod va afsonaviy tarzda dunyoga o'tkazilgan psixologiyani bildiradi.<sup>16</sup>

Shunday qilib, Freyd dinni illyuziya deb fanga qarshi qo'yadi va ma'rifatchilik asosda unga qarshi kurashadi.

Ba'zi psixoanalitiklar to'g'ridan to'g'ri texnologiya bilish hamkorlik qilish tarafdoi bo'lgan. Masalan, shvetsariyalik psixolog K.G.Yung (1875-1961) yaratgan psixologik konsepsiysi o'z davri psixologlari qarashlaridan, xususan Freydning psixologik konsepsiyasidan farq qiladi. Yung irratsionalizm va erkin fikrlik haqidagi konsepsiya qarshi qo'yadi. Yungning ta'limotiga ko'ra, har bir inson psixikasida "Jamoaviy ongsizlik" ("Kollektivnaya bessoznatelnost") mavjudligi haqidagi konsepsiyasida namoyon bo'ladi. U simvollar va ramzlarni tiklash bilan dinning tug'maligini asoslamoqchi bo'ladi. Yana u psixologiyani teologiya bilan hamkorlikda bo'lishi tarafdoi edi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida din psixologiyasi falsafiy dinshunoslik bilan hamkorlikda rivojlandi. Ammo Fransiyada din psixologiyasi dinshunoslikdan alohida ajratilgan holda tadqiq etildi. Din psixologiyasini psixologik jihatdan o'rganish va ilmiy tadqiq etishni asoslashga harakat qilgan fransuz psixologi E.Bitruning konsepsiyasining tadqiqot ob'ektiga a) diniy fenomenni (diniy tasavvurlar va ibodat shakllari) o'rganishda kuzatuv metodini qo'llash va emperik materiallarni tahlil etish; b) diniy fenomenlarni mavjudligini va namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganish psixologik jarayon bilan bog'liqligini e'tirof etishdan iborat.

Fransuz olimi Emil Dyurkgeym (1958-1917) dinning ijtimoiy-psixologik nazariyasi asoschisi deb tan olingan. U "Diniy hayotning sodda tuzilishi" asarida dinning ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etib, diniy tasavvurlar u bilan bog'liq diniy e'tiqod nafaqat individ, alohida shaxsga xos xususiyat bo'lmasdan, balki ijtimoiy hodisa hamdir. Dyurkgeym diniy e'tiqodni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan tahlil

<sup>16</sup> Qarang: o'sha joyda. -6.78.

tib, shaxs va jamoaga ta'sirini ko'rsatib, jamiyat a'zolari xulqini bir mezoniga solib turuvchi muhim omil sifatida ta'riflaydi.

Din psixologiyasining metodologiyasi va metodikasi t'knopsixologiya, harbiy psixologiya, san'at psixologiyasi kabi ijtimoiy psixologiya fani sohasiga tegishlidir. CHunki ijtimoiy psixologiya nazmuni jahatdan din psixologiyasidagi ommoviy diniy ongdagi sixik munosabatlarni tadqiq qilish bilan cheklanmasligi ayni vaqtida uning mexanizmalari (ishontirish, tahlid qilish, xissiy to'lqinanish va boshqalar) ijtimoiy yo'naltirilganligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANishi kerak. Shunday qilib, tadqiqotning psixologik va sotsiologik metodlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Din sotsiologiyasi va dinni tadqiq qilishning sotsiologik metodlari haqida matnning keyingi qismida fikr yurtamiz.

Notiqlik qilish orqali, men ollohnin borliqda mayjud emasligini nazarda tutmoqchi emasman. Bu narsalarning hammasi ollohnin aylana to'rtburchakga o'xshamagan holda mayjudligini anglatadi.<sup>17</sup>

**Din sotsiologiyasi** – jamiyat bilan dinning o'zaro aloqasining o'rGANUVCHI fan sohasidir. Din sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotida din va jamiyatning o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq tarixiy tajribani hamda dinding ijtimoiy hayot jarayonidagi mavqeい va rolini o'rGANADI. U din falsafasidan farqli ravishda diniy e'tiqod va ishonch mohiyatini o'rGANISH va sharhlashni maqsad qilib qo'ymaydi. Hozirgi zamon din sotsiologiyasini uch darajali bilimlarning birligidan iborat deb asavvur qilish mumkin. Ular: metodologik, nazariy va emperik tarajadagi bilimlardir.

Sotsiologiya fani o'zining shakllanishi va rivojlanishi tarixiga ega bo'lgan mustaqil fan sohasidir. Sotsiologyaning tarkibiy qismlaridan bo'lgan din sotsiologiyasiga fransuz ma'rifatparvarlari davrida asos solindi. CHunki bu davrga kelib, xristianlik va boshqa dinlarning nazariy va amaliy yo'nalishlari yuzasidan to'plangan boy materiallarni tahsil qilish va tartibga solish ehtiyoji tug'ilgan edi. Aksariyat fransuz na'mrifatparvarlari dinka ijtimoiy iqtisodiy sifatida qarab, tadqiqot iziqish ruhida qaramoqda edilar. Ogyust Kont pozitiv metodologiyani qo'llash bilan Immanuil Kant ratsional gneseologik-metodologik ondashuvi bilan din ta'lilining metodologik asosini shakllantirdilar.

<sup>17</sup> William L. Rowe. *Philosophy of Religion*. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 41

Emil Dyurkgeym, Maks Veber va Georg Zimellarning sotsiologiya fanining otasi va hozirgi zamon sotsiologiya fanining asoschilari deb atash mumkin. Emil Dyurkgeym birinchilardan bo'lib, dinni tahlil qilishga kirishdi. U 1897-yili aholining katoliklar va protestantlar guruhi o'rtasida o'zini-o'zi o'ldirish hodisasini o'rganib, diniy ibodatning asosiy funksiyalarini izohlab berdi. Maks Veberning qarashlarida esa jamiyatning iqtisodiy asosi bilan dinning o'zaro aloqasi mavjudligiga etibor karatgan. Bundan tashqari olim din rahnamolari (liderlari) va din tipologiyasini yaratishga asos soldi.

Din sotsiologiyasining predmeti shundan iboratki, bunda sotsiolog sotsial harakat tizimining jamoaviy axloqining bir ko'rinishi sifatida dinga sotsial fenomen deb qaraydi. Biroq sotsiologiya individ va unga dinning ta'sir darajasini o'rganishi bilan ham shug'ullanadi. Ammo kishilar jamoasi birligi, uning a'zolaridagi sotsial munosabatlari bu boradagi tadqiqotning asosiy ob'ektidir. Diniy guruhlar, ularning ma'lumotlari, amaliy faoliyatlarini din sotsiologiyasi predmetini tashkil etadi. SHu bilan birga diniy guruhlarning faoliyati va ta'siri (kishilarning din yo'liga kirishi, bunday axloqiy obrazlarni qo'llab-quvvatlashi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tiklanishi va boshqalar) o'rganiladi hamda tashqi omillar (iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, huquqiy)ning dindorlarga ta'siri, uning sotsial oqibatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga individ axloqiga dinning ta'siri diniy e'tiqodning umumqoidalari asosida kundalik turmushi jarayonida dunyoqarashiga singdirilib, shaxsda doimiy xulq va motivatsiya shakkantiriladi. Ammo diniy tashkilotlar o'z muxlislari ongga va xulqiga diniy ta'sirini o'tkazishda intizomli metodlarni qo'llash bilan erishadilar.

Din haqidagi fanning metodologik asosi boshqa fanlarda bo'lgani kabi emperik materiallarga suyanish tamoyiliga amal qiladi. Sotsiologik tahvilning predmeti Xudo haqidagi masala bo'lmasdan, balki Oliy ruhga e'tiqod qiluvchi ijtimoiy guruhlarning xulqi, uning sababi, oxir-oqibatidagi mazmuni masalasidir. Sotsiologik tadqiqot jarayonida kuzatiladigan, o'lchab ko'rildigan, hattoki topshirib ko'rish imkonи bo'lgan narsa va hodisalar shug'ullanishi lozim. Agar, masalan din bilan axloq o'rtasidagi munosabatni o'rganishni asosiy obyekt, ya'ni predmeti qilib olinadigan bo'lsa, sotsiolog dinga ishonuvchilar dinga ishonmaydiganga qaraganda axloqiy madaniyat jihatdan ustunligi haqida xulosa chiqarishi uchun, uni oddiy so'z

orqali ifodalash etarli'emas. Buning uchun tadqiqotchi o'z fikrini aniq dalillar orqali isbotlab berishi lozim.

Dinning sotsiologik tadqiq qilishning samarasi, uning qanchalik boshqa fanlarning ma'lumotlaridan foydalanganlik darajasiga ham bog'liqdir. Tarix fanlari va psixologiyadan tashqari din sotsiologiyasi rivojiga ijtimoiy antropologiya, etnologiya, lingvistika, simiotika va boshqa fanlar o'zlarini katta xissalarini qo'shib kelmoqdalar. O'z navbatida, dinning sotsiologik konsepsiysi boshqa fanlarning rivojiga munosib xissa qo'shib kelmoqda.

Din sotsiologiyasi tadqiqoti jarayoni uchun muhim emperik materiallarni olishda so'rov anketalarini o'tkazsh metodidan keng foydalilaniladi. Bunday tadqiqot natijasida olingan materiallar (raqamlar, foizlar) din bilan bog'liq u yoki bu masalalar haqida konkret mulohaza yuritish va xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Olimlarning yozishicha din sotsiologiyasining quydagi yo'nalishlari mavjud:

- din sotsiologiyasida evollyusionizm masalasi;
- din sotsiologiyasida funksionalizm masalasi;
- din sotsiologiyasida neoevollyusionalizm masalasi.

Din sotsiologiyasining metodologiyasi va metodlaridan foydalanish din va guruhlar, din va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosini tushunish imkoniyatini beradi.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning. 2007. R. 1-2
2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. -T.: O'zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.
4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinsenoslik. Darslik. –T.: Mehnat. 2004.

### Mustaqil ish mavzulari

1. Din kelib chiqishining obyektiv va subyektiv omillari. (Referat tayyorlash)
2. Dastlabki diniy an'analarini o'rganishga fenomenologik yondashuv. (Referat tayyorlash)

3. Dinning kelib chiqishidagi falsafiy va sotsiologik konsepsiyalar. (Taqdimot tayyorlash)
4. Dinning mohiyatini aniqlashda biologik va psixologik konsepsiyalar. (Referat tayyorlash)
5. Sharq va G'arb ilohiyotchilari ijodida din falsafasi haqidagi qarashlar. (Taqdimot tayyorlash)
6. Din falsafasining shakllanishi jarayoni va rivojlanishi xususiyatlarining falsafiy tahlili. (Referat tayyorlash)

## Glossariy

**Ilohiyat** (arab – Xudo to‘g‘risidagi ta’limot) xudo to‘g‘risidagi muayyan din tomonidan belgilangan aqidalarni haqqoniyigini e’tirof etish hamda Xudoning sifatlari, belgilari, xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslash va himoya qilish tizimi.

**Ateizm** (yunon. Thlos – xudo; xudoni inkor etish) – ruhlar, xudolar, o‘lgandan keyingi hayotni va boshqalar haqidagi g‘ayritabiylilik e’tiqodlarni va har qanday dinlarni inkor qiluvchi tizim.

**Din falsafasi** – unda dinning mohiyati, ijtimoiy hodisa sifatidagi umumfalsafiy tushunchasi, diniy ongning psixologik tahlili va gnoseologik ildizlari tahlil qilinadi.

**Din fenomenologiyasi** nemis faylasuflari E.Gusserl va uning shogirdlari (Landgrebe, Fink, SHeler va b.) tomonidan ishlab chiqilgan sub’ektiv idealistik ta’limot.

**Din psixologiyasi-Psixologiya** (yun. psyche – jon, logos - ilm degan ma’noni anglatadi) – inson va hayvonlar psixik (ruhiy) hayoti to‘g‘risidagi fan.

**Din psixologiyasining asosiy obyekti** - dindorlarning dinga e’tiqod qilmaydigan kishilarning xulqi va harakatidan farq qiluvchi psixologik xususiyatlarini metodologik tamoyillar asosida tadqiq etishdir.

**Diniy ong** - muayyan diniy tasavvurlar, diniy ta’limotlar, turli urf-odat, marosimlar ta’sirida shakllanadigan tushuncha.

**Din sotsiologiyasi** – jamiyat bilan dinning o‘zaro aloqasining o‘rganuvchi fan sohasidir.

**Din sotsiologiyasining yo‘nalishlari** - din sotsiologiyasida evollyusionizm masalasi, din sotsiologiyasida funksionalizm masalasi, din sotsiologiyasida neoevollyusionalizm masalasi.

## Seminar nazorat uchun savollar

1. Fenomenologiya atamasining lug‘aviy ma’nosи va shakllanish arixi.
2. Dinning kelib chiqishi va ta’rifi haqidagi qadimgi dunyo olimlarining qarashlari.
3. Din fenomenologiyasi mazmuni va yo‘nalishlari.
4. Din fenomenologiyasi haqidagi konsepsiyalar.
5. Din psixologiyasi mazmuni va yo‘nalishlari.
6. Din psixologiyasi haqidagi burjua olimlarining qarashlari.
7. Din sotsiologiyasi mazmuni va yo‘nalishlari.

### Test

#### 1. Ilohiyot nima?

- A) Inson haqidagi ta’limot
- B) Xudo to‘g‘risidagi ta’limot
- C) Dinlar haqidagi ta’limot
- D) To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

#### 2. Xudoni inkor etuvchi ta’limotni belgilang.

- A) Ateizm
- B) Panteizm
- C) Deizm
- D) To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

#### 3. Din fenomenologiyasi qanday ta’limot?

- A) obyektiv idealistik ta’limot
- B) subyektiv materialistik ta’limot
- C) subektiv idealistik ta’limot
- D) obyektiv materialistik ta’limot

#### 4. Din fenomenologiyasiga kim asos solgan?

- A) I.T.Lambert
- B) Immanuil Kant
- C) E.Gusserl
- D) V.F.Gegel

#### 5. “Fenomenologiya” atamasi fanga kim kiritgan?

- A) I.T.Lambert
- B) Immanuil Kant
- C) E.Gusserl
- D) V.F.Gegel

**6. “Fenomenologii duxa” asari kimga tegishli?**

- A) I.T.Lambert
- B) Immanuil Kant
- C) E.Gusserl
- D) V.F.Geigel

**7. XX asrning boshlarida shakllangan fenomenologiya g‘arb idealistik falsafa yo‘nalishi rivoji aynan kimning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan?**

- A) I.T.Lambert
- B) Immanuil Kant
- C) E.Gusserl
- D) V.F.Geigel

**8. Qaysi psixolog olim dinning asosida “transdentallik xissiyoti individning ichki tajribasi”, deb ta’riflaydi?**

- A) V.Kerr
- B) Jeyms Pratt
- C) R.Gulles
- D) U.Klark

**9. Qaysi psixolog din psixologiyasining asosi insonni Hudoga bog‘liqligini tan olishdir, deydi?**

- A) V.Kerr
- B) U. Jeyms
- C) R.Gulles
- D) U.Klark

**10. Kimning fikriga ko‘ra, diniy e’tiqod individ psixikasining rivojlanishi maxsuli hisoblanadi?**

- A) Z.Freyd
- B) U. Jeyms
- C) G.Ollport
- D) U.Klark

**11. “Individ i ego religiya” nomli kitob muallifini aniqlang?**

- A) Z.Freyd
- B) E. Dyurkgeym
- C) G.Ollport
- D) U.Klark

**12. G‘arb din psixologiyasida kimning o‘rni beqiyos?**

- A) Z.Freyd
- B) E. Dyurkgeym

C) G.Ollport

D) U.Klark

**13. “Individning din yo‘lini izlashi boshdan oxirgacha soyobdir”. Ushbu jumla quyidagi qaysi kitobda keltirilgan?**

A) “Diniy hayotning sodda tuzilishi”

B) “Freydizmda inson falsafasi tahlili”

C) “G‘ayrioddiy harakatlar va diniy marosimlar”

D) “Individ i ego religiya”

**14. Kim dinning ijtimoiy-psixologik nazariyasi asoschisi hisoblanadi?**

A) Z.Freyd

B) E. Dyurkgeym

C) G.Ollport

D) U.Klark

**15. Jamiyat bilan dinning o‘zaro aloqasining o‘rganuvchi fan sohaga nima deyiladi?**

A) Din psixologiyasi

B) Din sotsiologiyasi

C) Din falsafasi

D) Ijtimoiy din

## **3-MAVZU. DINNING KELIB CHIQISHI HAQIDAGI ILMIY VA DINIY-FALSAFIY KONSEPSIYALAR**

**(4 soat)**

Reja:

1. Antik dunyo olimlarining dinning mohiyati haqidagi qarashlar.
  2. O‘rta asr va G‘arbiy Evropa falsafasining rivojlanishi.
  3. Teologiya (Ilohiyot) falsafasi.

**Tayanch tushunchalar.** Antik dunyo, metafizika, ruh, Oliy ruh, Xudo, Tangri, sivilizatsiya, penteizm, teologiya, “g’oyalar nazariyasi”, jon, “xasti nestikomiy”, teosofiya, logika, etika, psixologiya, filologiya, “vujudi vojib”.

## **1. Antik dunyo olimlarining dinning mohiyati haqidagi qarashlar**

Din falsafasi yo'nalishida din va diniy qadriyatlarning falsafiy talqinini o'rganishda olimlarning diqqat-e'tibori Sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qaratilishi tabiiy holdir. Chunki, deyarli barcha din va diniy ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi SHarq xalqlari, xususan, O'rta Sharq (Hindiston), Uzoq SHarq (Xitoy) va boshqa qadimiy mamlakatlar tarixi bilan bog'liqidir.

Ammo yaqin yillargacha Sharq xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy sohaning barcha jihatlarida Evropadan orqada qolgan degan fikr hukm surgan bo'lsa, endilikda jahondagi ilg'or fikr egalari unday emasligiga iqror bo'lmoqdalar. Sharqda qadimgi dunyo faylasuflari dinning mazmunini tushuntirishga harakat qilganlar. Xitoy, Hindiston, ayniqsa, qadimgi yunon faylasuflari ob'ektiv olamni idroq etishga harakat qilish jarayonida diniy tasavvurlar va dirlarning kelib chiqishi va mohiyatini bilishga ham intildilar. Qulدورлик жамиятини даврига келгандан дин хақида муайян фикрлар шаклланди. Агар илгари диний етиқод ва худоларни табиий ходисалар билан буг'лиқ сабаблар асосида тушунтирилган бо'lsa, бу даврга келиб, динни г'айриtabiiy (xudo yoki xudolar) kuchlar mohiyatidan deb izohlay boshladilar.

Shunday qilib, qadimgi dunyo olimlarining dinni mohiyatini o'rganishi haqidagi asosiy falsafiy muammo odamlar ongida va tasavvurlarda xudo obrazlarini shakllantiruvchi sabablarini aniqlash

„Isa, idealistik va diniy-falsafiy yo‘nalishi nomoyondalarining bu boradagi muammosi xudo borligini isbotlashdan iborat edi.

Antik davrda, ya’ni eramizdan oldingi 1-ming yillikni o‘rtalarida yunon faylasuflari falsafiy muammolar bilan bir qatorda tabiatda sodir bo‘ladigan turli hil xodisalarni o‘rganishda, kishilarning e’tiqodiy bayotlari bilan bog‘liq holda falsafiy tahlili bilan shug‘ullanganlar. Bu davr falsafasining manbai mifologiya bo‘lganidan falsafiy qarashlarda finning mohiyatiga ham e’tibor berilib, muayyan fikrlar shakllana borgan. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda tabiiy fanlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish natijasida bir necha ilmiy yo‘nalishlar yuzaga kelib, dastlab matematika va tibbiyot fanlari allohida bo‘lib ajralib chiqdi. Ayni vaqtida odam va olam, jon va ruh haqida ham falsafiy nushohadalar yuritildi. Milet falsafiy mактабining asoschisi Fales olamning moddiy birligini va bu moddiy birlik doimo o‘zgarishda ekanligini e’tirof etgan holda suv va undan paydo bo‘lgan jismlarning joni bor degan xulosaga kelgan va xudolar mavjudligini e’tirof etdi.

Milet mактабning yana bir vakili Anaksimen jon haqida fikr yuritib, “Jon – bu havo. Jon, ya’ni havo tanimizni bamisol cheksiz havo bilan butun koinotni o‘rab, saqlagani kabi saqlab turadi”.<sup>18</sup> SHuningdek, u moddiy olamning ilohiyligi to‘g‘risida diniy-falsafiy nazmunda fikr yuritgan. Anaksimen ob‘ektiv olamdagи narsa va xodisalarni ilohiylashgan degan fikrni quvvatlab, hattoki xudolarni o‘zлari ham havodan tuzilgan deydi. Uning ilohiy qudratli kuchlarni abiat bilan bir narsa deyishi panteizmdan iboratdir.

Antik davr falsafa tarixida yunon faylasuflarining yana bir qator nomoyondalari borki, jumladan, Pifagor, Geraklit, Suqrat, Demokrit, ‘laton va boshqalarining ijodida turli falsafiy muammolarning ilmiy asoslarini topishga intilish bilan bir vaqtida diniy-falsafiy (teologik) qarashlarning shakllanishiga ham turtki bo‘lib hizmat qilgan. Masalan, Geraklit dialektikasida moddiy olamdagи narsa va xodisalar to‘xtovsiz o‘zgarishda degan fikrni asoslab, olamdagи dastlabki elementlar olov, havo, suv va tuproqning aylana harakatidan iborat, deydi. U “oqar suvga bir daqiqada ikki marta tushish mumkin emas” degan shior bilan o‘z dialektikasini asoslaydi. U olamdagи barcha narsalarni yujudga kelishi faqat qarama-qarshilikning birligi bilan bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi. Geraklit fikricha, qarama-qarshilik

<sup>18</sup> Qarang: В.Ф.Асмус. История античной философии. –С.21.

abadiy kurashda bo‘ladi. Bunday “kurash birovlarni hudolar, boshqalarni insonlar, bir xillarni qul, boshqalarni esa erkin kishilar qilib yaratgan”.<sup>19</sup>

Diniy-falsafiy qarashlar tarixida Pifagorchilar ta’limotining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Pifagor va uning izdoshlari olamning asosida mavhum sonlar va bo‘shliq yotadi deyish bilan raqamlarni mutloq kuchga, ya’ni xudoga almashtirishgan. Ya’ni, “ideallashtirilgan 1 raqami pifagorchilar ta’limoticha, xudoning onasidir, dunyodagi hamma narsa va hodisalarining asosidir, 2 raqami tabiatda qarama-qarshiliklarning asosidir, 3 raqami qarama-qarshiliklarni birligi, ya’ni jismalarni qarama-qarshi tomonlarini birligidan iboratdir, 4 raqami to‘rt element (unsur)ning shaklidir”.<sup>20</sup>

Pifagorchilarning diniy-falsafiy qarashlarida raqamlarini ideallashtirish (ilohiylashtirish)da va umuman diniy ta’limoti asosiga jon asos qilib olinadi. Jonning o‘lmasligi, abadiyligi va bir tandan ikkinchi tanaga o‘tishini e’tirof etadi. Jonning odamlarning hayotiy vaqtlarida keyingi davrdagi o‘rni diniy ta’limot asosida izohlanadi. Bunda shunday xulosa qilish mumkinki, pifagorchilarning ta’limotini, dunyoviy asosini moddiy narsalar, tabiat tashkil etmay, balki uni ideallashgan raqamlar tashkil etadi.

Qadimgi yunonistonning yirik namoyondalaridan Suqrat va Demokrit bo‘lib, ularning diniy-falsafiy qarashlari o‘z davrining va undan oldingi davrdagi faylasuflarga nisbatan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, Suqrat qadimgi yunon faylasuflarining tabiat to‘g‘risidagi barcha nazariyalarini befoyda deb bildi. Uning fikricha, tabiatni o‘rganish inson uchun yotdir, uni faqat xudo bilishi mumkin. Yana u diniy ilmni ulug‘laydi, Suqrat fikricha, xudosiz bilim ilmiy ahamiyatga molik emas, u daxriylikdir. Bunday xudosiz bilim taraqqiyotni, narsa va hodisalarini bilishni cheklaydi.

Jonning ilohiylashtirish to‘g‘risidagi g‘oyani biz Demokritning qarashlarida ham e’tirof etilgani, ayni vaqtda unga boshqacha yondashganini ko‘ramiz. Demokrit ta’limoticha, olam mayda moddiy zarrachalardan va bo‘shliqdan iborat deb, tirik jismalarning harakat manbai atomlardan tashkil topgan deydi. U pifagorchilarning jonning abadiyligi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarshi chiqib, tana o‘lishi bilan

<sup>19</sup> Йулдошев С.А. Антик фалсафа.-Т.: 1999.-Б.22

<sup>20</sup> С.Йулдошев, М.Усмонов, Р.Каримов. Қадимги ва Ўрта аср Фарбий Европа фалсафаси.-Т.: “Шарқ”, 2003.- Б.16

birga u ham xudolar ham insonlar singari o'tkinchidir, chunki ular ham insonlar kabi atomlardan tuzilgan, deydi.<sup>21</sup>

Suqratning shogirdi bo'lgan Platon falsafiy masalalarni mushohada qilishda, ayniqsa, diniy-falsafiy muammolarni yoritishda ustozidan farqli ravishda o'z ta'limotini din bilan bog'liq holda olib bordi. "Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Evropa falsafasi" kitobining mualliflari yozishicha, "Ob'ektiv maqsadga muvofiqlik to'g'risidagi Platon ta'limoti teologik mohiyat kasb etadi. Xudo nafaqat tirik mavjudod - u mutloq farovonlikdir. Shuning uchun inson ilohiyotga intilishi zarurdir".<sup>22</sup> Demak, Xudo haqidagi ilmlarni bilish inson uchun zaruriy holatdir. Farovonlikning asosi xudodan ekan, inson tabiatan xudo mohiyatini bilishga intiladi. Yqqoridagi kitob mualliflari Platonning "Qonunlar" asaridan shunday fikrni keltiradilar: "Xudo barcha narsalarning ibtidosi, o'rtasi va nihoyasidir. U shuning uchun ibtidoki, hamma narsa undan kelib chiqadi: u shuning uchun o'rtalikdirki u barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi va kelib chiqish xususiyatiga egadir. U shuning uchun nihoyasidirki, barcha narsalar o'z maqsadiga intilgani kabi unga intiladi".<sup>23</sup>

Bundan ko'rindiki, Platonning falsafiy qarashlari o'z zamondoshlariga nisbatan quyidagi tomonlari bilan ajralib turadi:

- Platon o'zining falsafiy ta'limoti tizimini yaratishga

intilgan, ammo uning ta'limoti din bilan bog'liq holda shakllangan;

- Platonning diniy-falsafiy ta'limoti kelgusida teologiya

(ilohiyot) falsafasini rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Yuqoridagi fikrlarda shunday xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, din falsafasi yo'nalishida dinning mohiyatini o'rganish inson va jamiyat sivilizatsiyasining ilk davrdan boshlanganligi, bunday qarashlar Sharqdagi qadimgi dunyo faylasuflari ijodi va qarashlarida o'z ifodasini topgan; ikkinchidan, Qadimgi Xitoy, Hindiston, Qadimgi YUnionston, Rimda falsafiy muammolar bilan bir qatorda din falsafasi yoki diniy-falsafa masalalariga ham alohida e'tibor berilgan va muayyan xulolsalar chiqarilgan: a) quidorlik jamiyati davrida dinni mohiyatini o'rganish haqidagi asosiy falsafiy masala insonlar ongida Xudo obrazini shakllantiruvchi sabablarini

<sup>21</sup> Qarang: С. Йўлдошев, М. Усмонов, Р. Каримов, ўша китоб.-6.41

<sup>22</sup> Qarang: С. Йўлдошев, М. Усмонов, Р. Каримов, ўша китоб.-6.49

<sup>23</sup> Qarang: С. Йўлдошев, М. Усмонов, Р. Каримов, ўша китоб.-6.49-50

aniqlash bo‘lgan; b) diniy-falsafiy yo‘nalish tarafdorlarining asosiy vazifasi xudo borligini isbotlashdan iborat bo‘lgan; uchinchidan, antik davr faylasuflari Pifagor, Geroklit, Suqrat, Demokrit, Platon va Milet maktabi vakillari falsafiy muammolar qatori diniy-falsafiy qarashlarning shakllanishi shu jumladan, din falsafasini rivojiga o‘z xissalarini qo‘shganlar; to‘rtinchidan, Platonning falsafiy qarashlarida ko‘proq diniy-falsafiy yo‘nalish kengroq o‘rin olib, teologiya (ilohiyot) haqidagi fan va qarashlarni rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘shgan.

## 2. O‘rta asr va G‘arbiy Evropa falsafasining rivojlanishi

Qadimgi davr falsafasi, din falsafasi tarixi va diniy falsafaga oid muhim ma’lumotlarni beradi. Qadimgi davr falsafasi o‘rta asr va yangi davr din falsafasining shakllanishi va riqojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Platonning ilmiy merosining bir qismi bo‘lgan diniy-falsafiy qarashlari madaniy va tarixiy markaz bo‘lgan Afinada antik jamiyat inqrozga yuz tutgan davrgacha, hatto undan keyingi davrlargacha barcha falsafiy, diniy-falsafiy ta’limotlarga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. Platon va Aristotelning ilmiy merosiga murojaat qilgan faylasuflar, din manba deb qabul qilib, o‘z zimmasi muammolari va qarashlariga mos din falsafasiga oid xulosalar chiqarganlar.

Aristotel o‘z ustozи Platonning ta’limotlari bilan tanishish, o‘rganish jarayonida ba’zi fikrlariga, xususan diniy-falsafiy qarashlariga qo‘shilmaydi. Aristotel Platonning “g‘oyalar nazariyasi” fikriga qo‘shilmaydi. Uningcha, g‘oyalar birlamchi bo‘lib, moddiy dunyo, jism va hodisalar ularning nushasidir. Aristotel bu fikrga e’tiroz bildirib, g‘oyalarning o‘z jismning oddiy nushasi va o‘z mazmuni jihatdan uning bu jismdan farqi yo‘q, deb o‘qtiradi. Shuningdek, Aristotel olamning abadiy mavjudligi, o‘z navbatida olam o‘zining abadiy sababi va abadiy harakatlantiruvchi kuchiga ega, degan fikrni ilgari suradi.

Din falsafasining muhim masalalaridan biri “Ruh haqida”gi g‘oyadir. “Metafizika” asarida Aristotel ruh haqida shunday deb yozadi: “Ruh bu tana emas, u tanaga taa’lluqli narsa bo‘lib, aniq bir tanada mavjuddir”. Bu fikrda ruhni abadiyligi inkor etilib, tananing emirilishi (o‘lishi) ruhning ham o‘lishidir degan fikr shakllangan.

Ammo Aristotel Platonning diniy-falsafiy qarashlarini tanqid qilish -chilligi oxirigacha etkazilmagan. Uning ishlab chiqqan bilimlar va anlarning tasnifida jismoniy dunyodan tashqarida hamma narsadan of va jismsiz shakl – (xudo), harakatsiz birinchi harakatga keltiruvchi uch hukmronlik qiladi, deydi.

Ruh haqidagi diniy-falsafiy qarashlar diniy manbalar, muqaddas ozuvlar asosida shakllanadi. Qur'on karimda ruh haqida shunday eyilgan: "(Ey Muhammad,) Sizdan ruh haqida so'raydilar. Ayting: Ruh faqat Robbimning ishidandir". Sizlarga esa oz ilm berilgandir".<sup>24</sup> Demak ilohiyot (teologiya) falsafasi nuqtai nazaridan inson ruh haqida oz ma- a'lumotga ega. SHu oz ma'lumotga asoslanib o'sada, odamzot ruh to'g'risida (Platon va boshqa olimlar) ko'p sarlar yozib, fikrlar bildirishgan. Ammo Qur'oni karimning izohida ozilishicha, bu xususda qancha urunmasin, bashariyat ruh kabi narsalarni bilishda Allohnинг ilmiga yaqin kelolmaydi.

Diniy-falsafiy ta'limot o'qtirishicha, ruh (jon ) inson jismiga qirgandan keyingina harakat boshlanib, aql yurtish, fikrlash shakllana boshlanadi. Ya'ni moddiyatni harakatga keltiruvchi asos – ruh (jon)dir. Ruh moddiy tarix jonzot bilan zaruriy bosqichlarni o'tab o'lgandan keyin uning keyingi taqdiri nima bo'ladi? Savolni qo'yib, mi Qur'oni karimda ruhiy holatga alohida e'tibor berilgan. Allohga los qilish, farishtalarning borligiga ishonish ruhiy hayotning asosi kanligi, ruhiy dunyoning ko'rinasligi, bilinmasligi, sezilmasligi esa sonda ruh haqidagi bilimlarni etarli emasagini ko'rsatadi.

Diniy ta'limotlar bo'yicha ruh odamning nomoddiy mavjudligi, u ni "Men"i bo'lib, u azaldan yaratilgan va abadiydir. Jon esa bosh niya orqali odamning harakatlantirib turuvchi quvvatidir. Jon harakatlanuvchi qon bilan mavjuddir.

Jon biron-bir sabab bilan harakat faoliyatini to'xtatib tanani tark sa, tana o'ladi va asta-sekin parchalanib ketadi. Aql jonning hosilasi o'lganligi uchun qon harakatdan to'xtab, jon tanadan chiqib ketgach, fikrlashdan to'xtaydi, ya'ni u ham tana bilan o'ladi (Aristotel). Eologik o'lim sodir bo'lgach, oxirida ruh tanadan chiqib ketadi.

Odam va olam, jon va ruh, hayot va o'lim haqidagi bilimlarning miy asoslarini bilish insoniyatning qadimgi dunyodan boshlab ozirgacha qiziqtirgan masalalardandir. Bu masalalar yuzasida fikr

<sup>24</sup> Куръони карим. 17 –сурә, 85 –оат.

bildirgan faylasuflar va mutafakkir-olimlarning ba’zi fikrlari bilan tanishamiz.

Platonning ta’qidlashicha, jon va aql moddiy dunyoni bir-biriga qo’shib turadi. Jon abadiy, o’lmasdir, muntazam harakatda bo‘lib turadi. Har bir odamning joni umumiyligini jonning obrazi – aks etishi, ya’ni xususiy shaklda zohir bo‘linishidir. Gegel jonni ruhning materiya bilan alohida yuz beradigan xissiy ko‘rinishi, ya’ni xis qiluvchi va faoliyat ko‘rsatuvchi narsa deb hisoblaydi.

Abu Nasr Forobiy inson tana va jonning birligidan iborat, tanasiz jon yo‘q, lekin tana o’limidan so‘ng jon saqlanib, kaykoniy (umumdunyoviy) jonga qo’shilib ketadi, deydi. Ibn Rushd ta’limoticha, jon yagona ma’naviy substansiyaning individual (yakka tartibda) namoyon bo‘lishi, diniy qarashlarda Xudoi taolo tomonidan yaratilgan, jonzotlarning hayotiyligini ta’minlaydigan, betakror abadiy ibtido-boshlang‘ich asosdir.

Imom G‘azzoliy jon va ruh haqida diniy-falsafiy jihatdan shunday deydi: ruhni ko‘rib ham, sezib ham bo‘lmaydi, lekin ruh bor, u “Xosti nestinomiy”, ya’ni yo‘qday bo‘lib tuyiladigan borliqdir. Ruh ko‘zga ko‘rinmaydi, ammo u jon bilan birgalashib jasad, tanani harakatlantiradi. Tana va jasad o‘lib, jon uzilgandan keyin ruh ozodlikka chiqib, o‘z faoliyatini tana va jonsiz davom ettiradi, ya’ni vaqt(soati bilan yana boshqa tanaga o‘tib, to belgilangan mukammallikka erishguncha qayta-qayta bu dunyoga kelaveradi. Olimning oxirgi “jonning boshqa tanaga qayta-qayta o‘tishi” qarashlari buddaviylik falsafasidagi odamning qayta va qayta tug‘ulish g‘oyasiga, jumladan. Buddanining yuzlab qayta tug‘ilgandan so‘ng nurlanishga etishgani bunga misol bo‘la oladi.

Teosofiya (Xudo donishmandlik, bilish) ta’limotiga ko‘ra, barcha tirik mavjudolarning hayoti ularni tanasini boshqarib turuvchi ilohiy jon, ruhning faoliyati bilan bog‘liqdir. “Xudo o‘zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo‘lgan eng kichik tirik zarrasining ham, eng katta tirik mavjudodning ham ichida alohida mavjud bo‘la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo‘lgan Oliy ruhdir”.<sup>25</sup>

Din falsafasida “ruh” muammosi nafaqat alohida shaxsning ruhi haqida, balki butun olamni nazorat qilib boshqarib turuvchi Oliy ruh

<sup>25</sup> Фалсафа: комусий луғат. – Т.: “Шарқ”. – 6.397.

Xudo haqida fikr yuritishni taqazo qiladi. Antik davr falsafasi o'rtalasr va yangi asr davr falsafasi namoyondalarining ijodiy faoliyatida dinnning mohiyatini tadqiq etishda ruh va Xudo borligini o'rganish alohida e'tibor berilgan. Platon va Aristotelning bu boradagi boy madaniy meroslari, falsafiy ta'limotlari keyingi davr olimlari uchun manba vazifasini o'tab keldi.

Platon va Arrestotelning ilmiy merosi o'rtalasr SHarq mutafakkirlari: Forobiy, Ibn Sino, Beruniy dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir etgan. Forobiy "Fozil odamlar shahri" nomli asarida odamlardagi ruhiy (psixologik) haqida fikr yurtadi. Ya'ni "... ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi". Olimning bunday birlik haqidagi qarashlari ular o'rtasidagi bog'liq xususiyatlarini tushunib olishini ta'minlaydi.

Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Oliy ruh (Tangri) haqida fikr yurtib uni insonga berilagn aql bilan bog'lab tushuntiradi. Insonning aqliy qobiliyatları, fikrlash, muhokama qilish, o'ylab ko'rish kabi xususiyatlarga ega. Ana shu "aqliy qobiliyatlar uafayli inson tashqi muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning birini ikkinchisidan ajratadi, tahlil qiladi, rostini yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni nohaqdan ajratadi".

Markaziy Osiyoda etishib chiqqan qomusiy bilimlar sohibi buyuk mutafakkirlardan biri Ibn Sinodir. U falsafa, logika, psixologiya, etika, filologiya va ijtimoiy siyosiy masalalarga bag'ishlangan ko'p asarlar yaratdi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, barcha mavjudodlarning asosi va ibtidosi "vujudi vojib"dir, Oliy ruh (tangri)dir. Vujudi vojib – bu birinchi mohiyat, yadrodir. Shu bois olim odamlar guruhi yoki alohida shaxsning xulq-atvori, milliy xususiyatlari shakllanishini "vujudi vojib" oliy ruh bilan bog'laydi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan "ruh" va "Oliy ruh" haqidagi fikrlari keyingi davr olimlarida, faylasuflarda dinshunoslik va din falsafasi asoslarini shakllantirishda o'z o'ringa ega bo'ldi.

Mazkur qismda yuqorida keltirilgan olimlar, faylasuflarning fikrlarini muxtasar qilib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- antik davr faylasuflari Geroklit, Demokrit, Suqrat, Platon, Aristotel va boshqalar din mohiyatini o'rganishga, uning mazmunini ochishga, buning uchun dastlabki diniy tasavvurlarni kelib chiqishini asoslashga harakat qilganlar va muayyan fikrlarni shakllantirganlar;

- yana ular olamning birligi, abadiyligi, doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'lishligini (Geroklit, Demokrit, Aristotel) e'tirof etganlar. Suqrat, Platon kabi faylasuflar bu fikrlarga qo'shilish bilan birga din falsafasi ruhida "ruh" va "Oliy ruh"larni mavjudligini e'tirof etib, ularni olamni boshqaruvchi quadratli kuch deb qaraganlar;

- Aristotel ta'lomit o'rta asrlarda G'arbiy Evropaga arab faylasufi Ibn Rushd tarjimasi orqali kirib kelgan. Platon va Aristotel ta'lomitlari Sharq mutafakkirlari dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatib, din va uning mohiyati, Oliy ruh (vujudi vojib) haqida muayyan fikrlar bildirish bilan din falsafasi rivojiga o'z xissasini qo'shgan;

- O'rta asr va Yangi davr G'arbiy Evropa falsafasining shu jumladan, din falsafasining rivojiga Geroklit, Demokrit, Suqrat, Platon, Aristotel, Epikur va boshqalarning o'rni alohidadir;

- "Ruh", "Oliy ruh" haqida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da berilgan: "Ruh (arabcha jon) – g'ayrimoddiy (nomoddiy) asosni anglatuvchi tushuncha. Inson va hayvonlar tanasida yashovchi, uyqu paytida tanani qisman, o'lganda esa butunlay tark etuvchi muayyan, o'ziga xos kuch"<sup>26</sup> degan ta'rifga biz ham qo'shilamiz.

Koinot uskunasini ijobiy taraflari nimada?

XVIII asrda Angliya dinshunosi William Paley bir ajoyib baxs ila ekspanat ya'ni bir koinot buyumini yaratdi va tabiatga foydali ko'rinishga ega bo'lgan dizayn ustida ish deb bordi.

Bu uni koinotga hos bo'lgan ish ustida ko'p izlantiradi, so'ngra unga koinot mexanizm qismlarini nafaqat tabiatga jamiyki narsalarga ham aloqadorligini ko'rsata oladi.

Agar bir rasmdagi aniq mexanik qismlarini jamiki narsalar bilan bog'lasak, biz tabiatdagi ob-havo, koinotdagi jismalarni o'zgarishlarining ko'ra va bila olishimiz mumkin deb ta'kidladi. Agar biz qilayotgan ishimizni imtihon qilib ko'rsak, biz yetarli darajada, jadal rivojlantirsak yana bir koinot qismini o'rganishda kerakli uskunani yarata olardik. Boshqa qismlarning ijobiy taraflari shundaki tezlik uzatishdir, misol uchun rejalashtirganimiz biron bir sababsiz tezda amalga oshiriladi, ya'ni samoda bo'layotgan o'zgarishlardan bexabar bo'lamic. Bu ijtimoiy ko'rinishga ega bo'lgan mexanik xolatini o'zgartiradigan qismi koinotga ega va tegishli uskunalar

<sup>26</sup> Т.: "Узбекистон миллий энциклопедияси", давлат миллий нашриёти, 2004. - 7 жилд. -Б.398.

hisoblanadi. William Paley tomonidan yaratilgan ushbu uskuna insoniyatga va tabiabga foydali hisoblangan. Bu to‘g‘risida juda ko‘p bahs va muzokalarar vujudga kelgan. So‘ngra uning ishi muvaffaqiyatli deb topilgan. Keyinchalik bu ish sababli texnika va taraqqiyot jadal rivojlangan.

Bu esa keyinchalik mexanik qurilmaning boshlanishi xammani qiziqtira boshlagandan so‘ng ideal teologik tizim deb nom olgan.

Demakki, mexanik so‘zi teologiya tizimidir. Dizayn ustida bo‘lgan baxs muzokara hayotga va insonga tadbiq etilgan foydali qurilma bo‘lgan. Keyinchalik esa mexanik qurilmalarga hozirda transportning, texnikaning, kompyuter, qo‘l telefonni va hokazolarning aloqalari bog‘liqdir. Albatta, bugungi kunda bularning salbiy va ijobiy tomonlari ham ko‘rib chiqilgan. Mexanik qurilmalardan biri avtomobilni olsak uning salbiy tomoni benzin, gaz va dvigatellardan chiqayotgan zararli gaz va tutunlarning tabiatga zarari mavjud. Lekin biz bularni bartaraf etsak, demakki inson va hayvonlarga, o‘simlik va hasharotlarga zararsiz bo‘ladi. Chunki osmon jismlarning o‘rganish, ulardan boxabar bo‘lish hayotga tadbiq etish ulardan unumli foydalanishimiz kerak.

1. Texnika ahborot dizaynnini yaratish.
2. Bir qancha tabiiy bo‘laklarini koinot texnikasiga bog‘liqligi.
3. Balki koinot va ahborot dizaynnining yanada sifatliroq ishlab chiqish.<sup>27</sup>

### 3. Teologiya (Ilohiyot) falsafasi

Xudo bilan insonning o‘zaro aloqasi haqidagi tasavvurlar ilohiyot falsafasining asosini tashkil etadi. Ilohiyotchilar o‘z qarashlarida Xudo, uning sifatlari, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslab, ularni himoya qilish sistemasini yaratish bilan shug‘ullanadilar. Ilohiyot falsafasi muqaddas yozuvlar va rivoyatlarning ilohiy jamligini, cherkovning ilohiy mohiyatga egaligini isbotlashni hamda ibodatni bajarish bilan bog‘liq bir qator bilimlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Xudoning oliyligi haqidagi tushunchalar buyuk g‘arb ilohiyotchilari asrlar davomida Augustin, Avitsenna, Anselm

<sup>27</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 55-61

Moimond, Basius, Bonaventura va Akuanalar tomonidan rivojlantirildi. Xudo-u g'arb sivilizatsiyasida bosh g'oya bo'lib kelgan. Agar biz Xudoning yuqoridaligi va uning osmondag'i odam ekaniniyodda tutsak, biz an'anaviy ilohiyotchilar kabi bu erdan uzoqligini bilishimiz mumkin. Va u an'anaviy ilohiyotchilarning Xudosidir. Robinson haqmi yoki nohaq va shunisi shubnhaliki, u haq - bu shak shubxasiz haqiqat. Qachonki biz Xudoning g'arbiy sivilizatsiya g'oyalarining madaniy vorislari bo'lsakgina biz o'yalmizki ilohiyotchilarning xudosi kabi uni hurmat qilamiz va u shundagina muhim ahamiyatga ega. U foydali bo'ladi, va bizning shaxsiy Xudo haqidagi o'ylarimizni ko'proq tadqiq qilish orqali Xudo buyuk ilohiyotchilarning o'ylarida paydo bo'lganligi uning o'zgacha dunyosi va olamdan ajralib turishi<sup>28</sup>.

Xristianlik rasmiy ilohiyotining asosiy falsafiy manbai Platon, Aristotel va neoplatonizm ta'limotlariga borib taqaladi. Ammo bu qarashlar keyingi davr ilohiyotchi-faylasuflar tomonidan birmuncha rivojlantirildi. Xristianlik yo'nalishlari: pravoslaviya, protestantizm va katolitsizmlarning har birining o'ziga xos ilohiyot falsafasi mavjud. Ularning falsafiy ta'limotlarida muayyan farqlar bo'lishi bilan birga umumiylilik borligi ham kuzatiladi.

Islom dinida ilohiyot falsafasining shakllanishi davriga qadar xilma-xil ilohiyot oqimlari vujudga kelgan. Masalan, jabboriylar, qadariylar, mu'taziliylar, musji'iylar va boshqalar vujudga kelib, ularning har biri ilohiyot masalalarini o'ziga xos talqin qilgan. Ortodoksal ilohiyot oqimi kalom (keyinchalik islom falsafasi) deb nom olgan. Bundan tashqari islomdagi barcha yo'nalishlar va mazhablarda ham ilohiyotchilik ta'limotlari mavjud.

Islom dunyosida falsafiy, shu jumladan ilohiyot falsafasining vujudga kelishi VIII-asrning ikkinchi yarmida mu'taziliylar va mutakallimlar faoliyati bilan bog'liqdir. Mu'taziliylar g'oyalariga e'tirozli fikrlarni ash'ariylar (ularni mutakallimlar ham deyiladi) ilgari suradilar. Abu Mansur Moturidiy (870-944) Abul-Hasan al-Ash'ariylar (873, 874-935, 936) kalom ilmining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Bu oqimning yirik vakillari: al-Baqilloniy (1027-y.v.), Ibn Furaq (1015-y.v.), Abu Ishaq al-Isfara'iniy (1085-y.v.), ash-Shaxrstoniy (1135) va Faxriddin ar-Roziyidir.

<sup>28</sup> William L. Rowe. *Philosophy of Religion*. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 5-6 et

Bu oqim tarafdlari tabiatda sabab va oqibat kategoriyasi navjudligini tan olmaydilar. Borliqdagi barcha narsa va mavjudotlarning yaratilishi va rivojlanishini Xudo ijodi va karomati bilan bog'laydilar. Ash'ariylar aqlni diniy an'anachilikdan (naqldan) ustun qo'yadi va musulmonlarning hayotini boshqaruvchisi shariat deb hisoblaydilar<sup>29</sup>.

Ilohiyat bilan shug'ullanish va uni rivojlantirish. ilohiyotchilimlar tomonidan o'rta asrlardan boshlab hozirgacha davom etmoqda. Bu holat faqat islam dinidagini emas, balki dunyodagi barcha milliy va jahon dinlarida mavjud. Hatto qadimgi Yunonistonda din falsafasi bilan shug'ullanilgani manbalardan ma'lum. Masalan, qadimgi Yunonistonda mil. av. VI-V-asrlarda falsafa din bilan juda bog'liq bo'lib, Xudo haqidagi xalqning oddiy tasavvurlarini tanqid qilish orqali faylasuflar uning oliy-ilohiy holatini tiklashga intilganlar. Fales, Geraklit Efesskiy, Anaksimandr din falsafasi bilan ham shug'ullangan bo'lsalar Pifagor diniy reformator hisoblangan.

Jahon dinlaridan biri bo'Igan xristianlik va uning uch yo'nalishi: katolitsizm, pravoslaviya va protestantizm ilohiyotchilari dinni tushuntirishda bir-birlariga yaqin fikrda bo'Iganlar. Ya'ni ularning fikricha, din Xudo bilan insonning o'zaro aloqasi natijasidir.

Xristianlik yo'nalishlarining ilohiyot falsafasida yangi fan dinshunoslikning shakllanishi davriga kelib, din mohiyatini talqin qilishga ikki xil yondashuv vujudga keldi: birinchisi, supernaturalizm nuqtai nazaridan qarash; ikkinchisi, ilohiyotdagi tarixiy maktab mavqeidan qarashdir. Supernaturalizm nuqtai-nazaridan xristianlik ilohiyot falsafasida dinning mohiyatini bilishda unga asoslangan «g'ayritabiyy» kuchlar mavjud bo'lib, u bilan munosabatda bo'lish imkoniyati bor, deb qaraladi.

Supernaturalizm yondashuvi xristianlikdagi «g'ayritabiyy vahiylikka» asoslangan bo'lib, unga etishish faqat vahiylik orqali bo'lishi mumkin. Ilohiyat falsafasidagi bunday yondashuv dinning tarixiy rivojlanish holatidan ajralib qolishiga olib keladi. SHuning uchun bu boradagi ikkinchi yondashuv vakillari, ya'ni ilohiyot falsafasidagi tarixiy yondashuv maktabi tarafdlari supernaturalizmni chuqur tahlil qilib, unga nisbatan o'z qarashlarini namoyon qiladilar.

<sup>29</sup> Qarang: Ҳусниддинов Зухриддин. Ислом йыналишлари, мазҳаблар, оқимлар.-Т.: «Мозароуннар», 2000.-21-6.

Protestantlik yo‘nalishi ilohiyotchisi, sotsiolog va tarixchi E. Tryol’ch (1865-1923) dinning tarixiy jihatdan tahlil qilib, shunday xulosaga keladiki, din bir vaqtida Xudoga munosabati jihatidan subyektiv, tarixiy voqealikka nisbatan obyektiv holatda bo‘ladi.

Keyinchalik protestantlik ilohiyotchi va faylasufi R. Otto (1869-1937), pravoslav ruhoniysi va faylasufi P.A. Florenskiy (1882-1937), katolitsizm ilohiyotchisi va sotsiologi amerikalik P.L. Berger (1929 yil tug‘.), nemis olimi T. Lukman (1927-yil tug‘.), nemis faylasufi va sotsiologi M. Veber (1864-1910), fransuz sotsiologi va faylasufi E. Dyurkgeym (1858-1917) va boshqalar dinning mohiyatini (xristianlik yo‘nalishlari) va insonning dinga munosabatlari masalalarini chuqr va har tomonlama tahlil qilib, ulardan farqli ravishda din falsafasi borasida muhim nazariy xulosalar chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu jarayondan ilohiyot falsafasi ham chetda qolmadı. Masalan, P.A. Florenskiy dinni quyidagicha ta’riflaydi: «dinda agar ontologik jihatdan bizning hayotimiz Xudoda va Xudo bizda bo‘lsa, fenomonistik jihatdan ruhimizni tinchlantiruvchi harakatlar va kechinmalar tizimidir».

Protestant ilohiyotchisi Tillich bi Ateist (hudosiz) ham teistlarning hudo borligiga ishonchini rad etadi. Ammo keng talqinda u aslida teist hudoga va diniy haqiqatga teistlardan farqli bo‘lsada ishonadi. Ko‘p qisimda men teizm, oteizm, ognostizm atamalaridan tor doirada foydalananaman. Shunday qilib, biz teizmnинг qanday mavjudligi kabi savollarni ko‘zdan kechirdik. Biz an‘anaviy ilohiyotchilar Xudosi va teizmga ko‘ra Allah olam yaratuvchisi va uning har narsaga qodirligi haqidagi qarashlarga asoslanamiz. Misol uchun, olamdagi yovuzlik haqidagi faktlarga oseizmnинг haqiqatga yaqin bo‘lishi mumkinligi va boshqa. Bizdan teistlar hudosi ha narsaga qodirligimi yoki ratsional borliqda yovuzlikning har narsaga qodirligi haqida hulosalar so‘raladi. Teistlar Xudosi haqidagi fikr va qarashlarni aniq bo‘lishini biz savollarning ko‘plarida ko‘rib chiqdik va biz ishonamizki ratsional borliqda bo‘lishi mumkin bo‘lgan uning kuch qudratga ishonch haqidagi savol bilan boshlanadi.<sup>30</sup>

Robinzon monosizmga ko‘ra, oldindan xabar berilishicha teran g‘oya va o‘zgarishlar bo‘lib o‘tgan. U buni yuqorida va ostida degan ifodalar bilan tasvirlaydi. “Xudo” tepada, ya’ni bundan yuqorida

<sup>30</sup> William L. Rowe. *Philosophy of Religion*. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 17

Koinoyda shartli ravishda erdan ancha uzoqda jannat kabi ma'lum bir joyda joylashgan. Xudo haqidagi fikr aniq ibtidoiy tasvir, unda aytılıshicha doim 3likdan iborat jannatdan yuqorida er osti va er ostinig qorong'u joy, ya'ni arning qari. Bu tasavvurlarga ko'ra er, erga 2ta qirollik, zo'rlik bilan o'rnashib olgan. Xudo va uning jannatdagi farishtalari, Iblis va uning er ostidagi shaytonlari. Ular erda istiqomat qiluvchi kuchlar bo'lib ko'ngil va qismatni boshqarish uchun bir-biri bilan kurashadilar. Xudo tushunchasi kuch qudrat sifatida ba'zi bir aniq manbada koinotda ya'ni ytuqorida joylashgan. Robinzon tasdiqlaydiki, biz farzandlarimizga tushuntiramizki ularning miyasiga singdiramiz janat bu haqiqat emas, Xudoning samoda yashashi ham aniq emas. Xudoning joyi samoda, Xudo osmondag'i odam va bu kabi Xudo haqidagi ko'plab noto'g'ri taqlinlar paydo bo'lganligini Robinson eslatib o'tadi. Xudoning yuqorida va erdan tashqarida bu kabi muhim anglashilmovchiliklar Xudoning aynan bir makonda joylashganligini, erdan uzoqdaligini o'ylash yoki dunyodan ajratilganligini o'ylashdir. Bu fikrga ko'ra Xudoning uyi yo'q, u fizik bo'shliqda ham mavjud emas. U aniq hayoliy diniy haddan tashqari yaxshi va pok u har narsaga qodir va kuch qudratga ega va u odamining yaratguchisidir, ammo uning bir qismi emas. U odamdan ajratilgan, uning qonunlariga va vahiyalariga qarshi predmeti yo'q olamni boshqarish uning yagona maqsadi<sup>31</sup>.

Boesivs, Anselm, Akunas va boshqa an'anaviy ilohiyotchilar Allohning mangulik timsoli ekanini tushuntiradilar. Ular Allohning zamondan tashqi ekanini uning qonunlariga teng pridmet yoqliginin tasdiqlaydilar. Biroq, boshqa ilohiyotchilarning nuqtayi nazaricha, Alloh, avvaldan, abadiy va mangu XVIII asrning Ingliz ilohiyatchisi Samuel Clarke miol uchun u vaqtning chegarasi bo'lmasligi mumkugi g'oyasini rad etadi va unda boshqa bir nuqtayi nazar uni mangu bo'lishi abadiyligi o'z o'rnida ammo davr boshlanishi yoki oxiri emas. Biz keyinroq inson ekanligi va oldindan ayta olish muammolarini o'rganganimizda biz bu ikki his abadiylik va mangulik kabi diniy tushunchalarga qayta to'xtalib o'tami. Biroq ayni paytda ularni etarli. Mangulik Alloh haqidagi an'anaviy g'oya va fikrlar markaziy tushuunchadir.

<sup>31</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 16

U 2 xil bo'ladi; yaqqol yo'lda tushuntiriladi. Biz Alloh haqidagi paydo bo'lgan asosiy hususiyatlarning ba'zilarnin tadqiq qildik. Bu g'arbiy diniy an'anuning markazida bo'lgan. Bu g'oyalarga ko'ra, Alloh haddan tashqari yaxshidir, dunyodan yakka bo'lsada olamning yaratuvchisidir. U abadiy va mangu u har narsaga qodir va har ancha kuch qudratga ega.

Alloh haqida g'oya va fikrlarni tadqiq qilishda biz yana polesizm, henosizm, monosizm va panteizmga mos keluvchi dinning boshha tushunchalarini ham qayd etdik. Alloh haqidagi fikr bu kitobning diqqat markazidadir. Biroq bu an'anaviy g'arbiy ilohiyotchilar tomonidan bat afsil o'rganib chiqilgan. Bu g'arbiy sivilizatsiyaning 3 ta buyuk diniy Alloh haqidagi g'oyalardir. Iyudaizm (yahudiylik dini) xristian va islom buning eng yuqori nuqtasini bizda Robinson ifdasida "Alloh yerdan olisda" va an'anaviy ilohiyotchilar hudosi ifodalarini alloh haqidagi qarashlkarini eslatib o'tishda foydalandik. Biroq biz bu qarashlarni alloh haqidagi fikrlarni "teizm" deb nomlaymiz. Teist bo'lish bu yaxshi bo'lish mangu va abadiy bo'lishga Alloh olamning yaratuvchisi ekanligiga, uning har narsaga qodir va har qancha kuch qudratga ega ekaniga va uning yagona mavjudligi va manguligiga ishonishdir.

Oteist (hudosiz) ular Alloh olam yaratuvchisi ekaniga ishonmaydilar va ular fikricha Alloh hech qanday kuch qudratga ega emas. Ognostik falsafiy ta'limot tarafдорлари hudo borligiga ishonishadi va etirof etishadi Alloh abadiy yoki noabadiy na unis va na bunisga ishonishadi. Biz mutlaqo tor fikrli teist, oteist, ognostik atamalaridan foydalandik. Teoist- diniy oqim bo'lib dinning borligi va unung manguligiga ishonuvchilar va turli hil alloh haqidagi fikr va qarlashlarga ega ekanliklarini tasvirlab o'tdik.

Shunga o'xshash yana bir atama oteist- har bir odam tangriga itoat etishi, unga ishoniishi an'anaviy ilohiyotchilar hudosи kabi tushunchalarni rad etuvchilar. Bulardan o'zimizni yiroq qilish uchun bu tor doiradagi tushunchalarni miyyada saqlash muhim emas.<sup>32</sup>

Olam manzarasini bayon qilishimizdan oldin, biz isbot bahs haqida bir necha umumiy ma'nolarni ko'rib chiqamiz. Tarixiy, yunon faylasuflari Platon va Aristotelning bitiklarini kuzatish mumkin lekin dalillarning asosiy taraqqiyoti XIV-XVIII asrlarda o'z o'rnini topadi.

<sup>32</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 16

XIVasrda S.Tomas Aquinas Xudoning mavjudligi borasida 5 ta aniq dalillarni olg'a suradi; uning bиринчи 3 та варианти Olam munozarasи haqida. 1-da u dunyoda o'zgarishni boshidan kechirayotgan va xulosaga saba bo'lган narsalar borki, ular o'zgarishning asl sababi bo'lishi shart ya'ni o'zini o'zgartira olmasligi haqaqidagi quyidagi dalillardan boshlangan. Ikkinchisida, u dunyoda shunday aniq narsalar bosgqa narsalar va xulosa qilishga sabab bo'lган narsalar tomonidan mavjudlikka sabab bo'lган o'zining mavjudligi o'zisiz sabab bo'lga, mavjudlikning asl sababi bo'lishi shart degan dalillar bilan boshlangan. Uchinchi bahsda u dunyoda unchalik ham mavjud bo'lмаган narsalar, lekin biz osongina tasavvur qila olishimiz mumkin bo'lмаган va bo'lishi zarur bo'lган narsa bo'lishi shart yakun uchun sabab bo'lган, ya'ni mavjud bo'lish va mavjud bo'lishda omadsizlik qilmaslik, dalillar Xudoning mavjudligini isbotlashda engilishi haqidagi dalillardan boshlangan<sup>33</sup>. Teistik Xudo uchun, ko'rib turganimizdek, haddan tashqari yaxshi, qudratli, hamma narsadan voqif va yaratuvchi, bo'laklikdan va dunyoning ozodligining yaratuvchisi. Qanday qilib bilamiz, misol uchun, bu o'zgarmas o'zgartiruvchi dashman yoki biror johil emasmi? Bu e'tirozga javobni Olam munozarasida 2-qismga ega. Urinishning 1-qismi bo'lishning maxsus turi mavjudligi – misol uchun bor bo'lish mavjudlikni yo'q qilgan yoki bor bo'lish boshqa narsalarni o'zgartirishga sabab bo'lishi lekin o'zini o'zgartirmasligining maxsus turini isbotlab berdi. Urinishning 2-qismi mavjudlik 1-qismidagidek, yo'lga qo'yiladi va bo'lishi shart xususiyatlar – mutlaqo ezzulik, qudratli kuch hamma narsada voqiflik va boshqalar teistik Xudoning go'yasini o'zida birgalikda aks ettiruvchi maxsus tur haqida dalil keltirilgan. Bu nimani anglatadi, keyin, Olam munozarasini faqatgina 1-qismi haqida Aquinusning turli xil ko'rinishdagi 3 xil dalili qarashlari bor. Haqiqatdan, Aquinusning "Summa Ilohiyoti" ning oxirgi bo'limlarida o'zgarmas o'zgaruvchisini, mavjudlikning sababi sababsizligini va bor bo'lish ma'lum bir mavjudlik bo'lish shart ekanligi va bir xil bo'lish va yolg'iz bo'lish teistik Xudoning barcha xususiyatlarida botligini ko'rtastib o'tishini o'z zimmasiga olgan. Biz olam munozarasini XVIII asrni egallagan ikkinchi muhim taraqqiyotida o'rnini, german faylasufi Gottfrid Leibniz(1646-1716) ning bitiklarida taraqqiyot aks

<sup>33</sup> William L Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 20

etganini, va ayniqsa ingliz ilohiyot mutaxassisini va faylasufi Samuel Klarkening yozuvlariga to'xtalib o'tamiz. 1704-yilda Klarke bir qator ma'ruzalarни keyinroq "Bor bo'lishning namoyishi va Xudoning xususiyatlari" nomi ostida chop etilgan kitobini taqdim etdi. Bu ma'ruzalar biz egalik qilayotgan Olam munozarasining, balkim to'liqroq kuchli va ishonchliroq tqadim etishga sabab bo'ladi. Maruzalar o'sha asrning muhim ishonmaydigan faylasuflar tomonidan o'qib chiqiladi. David Hume(1711-1776) dalil isbotning qo'llab quvvatlashda dinni oqlashga urunishi orqali ajoyib yurish qiladi. Uning "Tabiiy din haqidagi diologlar", Hume Klarkening munozaralariga bir qator qattiq tanqidlar qiladi. Zamonaviy davrda ko'plab faylasuflar Olam munozarasini rad etishgannini isbotlash hqidagi tanqidlarni tashkil etadi. Biz o'qiyotgan munozarada biz XVIII asr turiga ko'proq e'tiborimizni qaratamiz va Hume va boshqa unga qarshi ilg'or etakchilarining tanqidlarning uning kuch quvvatiga va kuchsiz tomoniga e'tiroz bildirishga harakat qilamiz.<sup>34</sup>

Ilohiyotchi faylasuflar bilan satsiolog faylasuflar (M. Veber, E. Dyurkgeym va b.)ning dinga bergen ta'riflarini farqlash lozim. Zero, ilohiyotchi – faylasuf olimlar bu masalaga ilohiyot nuqtai nazaridan yondashsalar, sotsiolog olimlar esa dinni sotsiologik soha deb baholab, uni individ, guruh va jamiyatga ta'siri jihatdan tahlil qilib, konstruktiv fikrlarni shakllantirishga harakat qiladilar.

Olam munozarasining XVIII asrdagi shaklining 1-qismi o'zi mavjud bo'lishning mavjudlilikni mustahkamlashga o'xshaydi. Munozara sa'y-harakatining 2-qismi o'zi mavjud bo'lish teistik Xudo borligini isbotlash beradi, biz Xudoning teistik go'yasida asosiy elementlar borligini sezganimiz uning bir xususiyatidir. Biz asosan munozaraning 1-qismi ko'rib chiqamiz, faylasuflar Humedan Bernard Rasselgacha judayam muhim e'tirozlar rivojlanganligiga 1-qismida ko'plab qarshiliklar berilgan. Olam munozarasining 1-qismida bildirilishicha, biz 2 muhim g'oyani qo'llay olam: Borliqga muhtojlik g'oyasi va o'zi mavjudlik borlig'i g'oyasi. Borliqqa muhtojlik g'oyasida biz borliq hamda mavjudlik boshqa narsalarni odatiy shunday tushunamiz harakatlar tomonidan miqdorini tashkil qilgan. Anselmning 3 holat bo'lishi g'oyasiga qayta murojaat qilamiz. – "Boshqalar tomonidan izohlangan", "hech narsa tomonidan

<sup>34</sup> William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 20

izohlangan” va “o‘zini-o‘zi izohlagan” – bundan yaqqol ko‘rinib turibdiki, borliqqa muhtojlik boshqalar tomonidan izohlangan mazjudlik borligidir. O‘zi mavjud borliqda biz borliq bu mavjudlik u o‘zining tabiatи uchun savoli shuni tushunamiz. Bu g‘oya ko‘rib turganimizdek bo‘limdari oldinda, Xudoning teistik g‘oyasidagi muhim ahamiyati bor. Qayta, Anselnisning 3 holat terminida, o‘zi mavjud borliq b shunday borliqki mavjudlik o‘zini – o‘zi izohlaydi. Bu ikki g‘oya bilan qurollangan, borliqqa muhtojlik g‘oyasi va o‘zi mavjud borliq g‘oyasini biz endi Olam munozarasining 1-qismiga qo‘ya olamiz.

1.Barcha borliq (mavjud bo‘lgan yoki mavjud bo‘lganlik) borliq muhtojlik yoki o‘zi mavjudlik borliqdan biridir.

2.Barcha borliq emasligi borliqqa muhtojni bor qila oladi.

3.Mavjud bo‘lish o‘zi mavjud borliq demakdir.<sup>35</sup>

Buning ma’nosи agar bizning olamimizda sabab bizni olamni mavjud bo‘lishdan oldin, biroz vaqtinchalik lahzalarni mavjud bo‘lishiga sababchi bulmagan bo‘lar edi.Qanday qilib, u o‘shanda bizning olamni paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan bo‘lishi mumkin? Kalam Kosmetologiya munozarasini qo‘llab – quvatlovchi mashxur shaxslardan biri Villiam Heyn Krad, bir necha faylasuflarni bu ishda sanab o‘tadi. Immanuel Kant tomonidan ko‘zda utilgan misolni beradi, ya’ni og‘ir bir to‘pning yoqimsiz (zararli) ta’sirlariga barham berishini asoslab beradi, o‘sha zararli ta’sirlarni yoqilish ruhan siqilishga sabab bo‘ladi. Kraigning xulosa qilishicha:

Bu yerda tushunchani izohlashda qiyinchilik yo‘qdek bo‘lib tuyuladi, olamning paydo bo‘lish sababi olamning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda harakatlanadi. Shuning uchun ham biz aytishimiz kerakki, olamning paydo bo‘lishi sababi. Big Bangda oldin vaqtinchalik bo‘Imagan bo‘lishiga qaramasdan, Big Bangda oldindi sabablardan biri bo‘lgan . Bu g‘oya so‘ngra olamning paydo bo‘lishi bilan o‘sha vaqtarda boshlanadi. Olamning sababi, u o‘zi nima bo‘lishidan qatiy nazar vaqtinchalik emas, chunki uning mavjudlik ichiga kirishini talab qiladi. Kraigning sabablari shunchalik mohiyatlari ediki, ularda Ollohgа ishonishning an‘anaviy fazilatlari: mukammal yaxshilik, bilarmonlik va qudratlilik bor edi. Borliqning vaqtinchalik bo‘lishi uchun bu savolda 3 ta xususiyat bo‘lgan bo‘lishi kerak

<sup>35</sup> William I. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 21

chamasi bu fazilatlarga ega bo'lish, borliqning avqtinchalik mavjud bo'lishiga sababchi bo'ladi. Lekin bundan kelib chiqgan holda, bizda nima paydo bo'lishi olamdag'i tabiatga sababchi bo'lgan bir olamni muvafaqqiyatli bo'lishidagi sababini bir necha yilda muo'tojlik sezgan holda, mol – mulkga ega bo'lish bilan tahmin qilolmaymiz. Etaricha bilim va kuchga ega bo'lish, vaqtinchalik olamning butunlay hamma narsada bilimga egalik qilish shart emasligini sabab qilib ko'rsatadi. SHu bilan birga mukammal yaxshilikga ega bo'lish, shart emasligini ham. Bundan tashqari, agar bir mahsulotning yug'on darajada ishlab chiqilganiga qarab o'tganimizda, bir qilgan olamdag'i sayyoralardan biriga, bir qatiq harakat qilish orqali bizning olamimizni odob – ohloq bilan mukammal bo'lish sababini o'ylab ko'rgan bo'lar edik. Bu ancha qiyin bo'ladi, etaricha kuch va bilimga ega bo'lish bilan sabab ko'rsatishga , u etaricha mukammal yaxshilikga ega bo'lmasligiga qaramasdan, bizning olamimizni mavjudligi sababli qilishga layoqatsiz bo'lardi. Bu e'tiroz, Kalam Kosmetalogiya munozarasida an'anaviy xudoga sig'inishda yordam berishda muhim rol o'ynamasligini ko'rsatadi. Kosmetalogiya munozarasi davomida, uning an'anaviy formasi Klарke yoki Kalam tomonidan qayta taqdim etildi.<sup>36</sup>

Ilohiyot falsafasi vakillari dastlabki shakllangan davridan boshlab toki hozirgacha din va uning ta'limoti haqida falsafa, din falsafasi, dinshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning tadqiqot natijalarini bilan qiziqib ularga munosabat bildirganlar hamda o'z qarashlarining himoya qilganlar. Ilohiyot falsafasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot natijalaridan diniy tashkilotlar rahbarlari, ruhoniylar, diniy xodimlarning faoliyatida, har bir din yo'nalishi mavqeini mustahkamlash va diniy tajribani individ, guruh, ob'zioni hamda jamoalarda diniy ong va tasavvurlarni shakllantirishda foydalilanladi.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning. 2007. R. 1-2.
2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. –T.: O'zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.

<sup>36</sup> William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 34

## Mustaqil ish

1. Qadimgi Sharq allomalarining dinni mohiyatini o'rganish haqidagi diniy-falsafiy qarashlari (Referat tayyorlash)
2. Pifagorchilarining diniy-falsafiy qarashlari (Referat tayyorlash)
3. Geraklit, Suqrat, Demokrit, Platon va boshqalarning ijodida diniy-falsafiy (teologik) qarashlarning shakllanishi (Taqdimot tayyorlash)
4. Ruh haqidagi diniy-falsafiy qarashlar (Referat tayyorlash)
5. Din falsafasida "ruh" muammosi. (Taqdimot tayyorlash)
6. Teologiya (Ilohiyot) falsafasi (Taqdimot tayyorlash)
7. Markaziy Osiyo mutafakkirlari dunyoqarashida "ruh" va "Oliy ruh" haqidagi fikrlari (Referat tayyorlash)
8. Sharq va G'arb ilohiyotchilari ijodida din falsafasi haqidagi qarashlar. (Taqdimot tayyorlash)
9. Islom dinida ilohiyot falsafasining shakllanishi (Referat tayyorlash).

## Glossariy

**Din** – insoniyat ma'nnaviy hayotining tarkibiy qismidir. Din insonni qurshab olgan atrof muhitdan tashqarida bo'lgan va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil yo'lni ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch, maslak, qarash ta'limotidir.

**Din falsafasi** – dinning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagि o'rmini tushuntirishga yo'naltirilgan falsafiy bilim sohasi.

**Antik falsafa** – mil. avv. VIII asrda Yunonistonda, mil. avv. II asrda Rim jamiyatlarida shakllanib, mil. avv. VI asrdaga qadar rivojlanib kelgan falsafiy ta'limotlar umumlashmasi. Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demokrit kabi o'nlab faylasuflar mansub bo'lgan Antik falsafa insoniyat falsafiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Antik falsafa odam va tabiatning mohiyati haqidagi inson tasavvurlari afsonalaridan ozod bo'la boshlagan, Sharqning astronomik, matematik va boshqa fanlarga oid bilimlari YUnionistonda tarqala boshlagan davrdan shakllana boshladи. Mil. avv. VI- V asrlarda tabiat to'g'risidagi bilimlar va falsafa hali bir-biridan ajratilmagan edi.

Amaliy tekshirish imkoniyati yo'qligi sababli ko'plab gipotezalar vujudga keldi. Bu gipotezalar dunyoni turli-tuman ta'riflashdan iborat edi. Bu xilma-xillik Antik falsafani keyingi avlodlar uchun fal.iy tafakkur mактабига aylantirdi. Dunyoning yaratilishi masalasida antik falsafa monizm, materializm va idealizm, dialektika va metafizika yo'nalishlarida taraqqiy qildi. Fales, Anaksimandr, Anaksimen, Anaksagor, Demokrit kabilar atonizm, materializm, idealizm yo'nalishlaridagi qator falsafiy g'oyalarning asoschilaridir. Mil. 529-y. imperator Yunonistonning Afinadagi falsafa mактабини yopish to'g'risida qaror qiladi. Bu davrga kelib, antik falsafa falsafaning asosiy g'oyalari masalasida o'z taraqqiyotining yakuniga etgan edi.

**Ilohiyat** – (arab.-xudo to'g'risidagi ta'lilot) xudo, uning sifatlari belgilari va sifatlari to'g'risidagi diniy ta'lilot.

**Islom ma'naviyati** – islom ta'lilotiga asoslangan urf-odat, marosimchilik, an'analar, odob-axloq norma-laridan iborat ma'naviy-madaniy tizim.

**Ijmo'** – (arab.-yakdillik bilan qabul qilingan qaror)-islomda faqih va mujahidlarining to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi.

**Mu'taziliylar** - (arab.-ajralib chiqqanlar)-ilk islomda ilohiyot oqimlaridan birining tarafдорлари.

**Monoteizm** - (qad. yunon. «mono»- «yagona», «teo»-xudo) yakkaxudolik.

**Monoteizm**-(qad. yunon. «mono»- «yagona», «teo»-xudo) yakkaxudolik.

**Nestorianshilik** Vizantiyada 5-asrning boshlarida xristianlikda vujudga kelgan

**Panteizm** - xudo bilan tabiat bir deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'lilot.

**Ruh** – ma'naviy – ruhiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiytushuncha. Falsafiytafakkur tarixida ruh turli metodologik pozitsiyadan talqin etildi. Xususan, panlogizm rujni mantiqiy tushuncha sifatida tahlil qilsa, panteizm tarafдорлари rujni olamning substansiysi sifatida o'rganadilar. Ratsionalizm ruhning muhim tomonini tafakkur tashkil etadi, deb uqtirsa, irratsionalizm ongsizlik sohalari iroda, his-tuyg'u, tasavvur, intuitsiya) ruhning asosiy komponenti sifatida yoritadi.

**Teologiya** - (lot. *theo* - xudo, *logos* - ta'limot) – Xudo to‘g‘risidagi fan, ta’limot. Xudo, uning sifatlari, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslash va himoya qilish tizimi. Teologiyaga muayyan din tomonidan belgilangan aqidalarning haqiqatligini isbotlash bilan birga, dindorlarning hayot tarzi va me’yorlari kompleksi ham kiradi. O‘rtalarda teologiya mafkura sifatida jamiyatni, davlatni boshqarish ishlariga ishtirok etgan, shu sababli davlat boshqaruvining teokratiya shakli ham vujudga kelgan. Teologiya o‘rtalarda madaniyatining barcha turlarini ilm-fan, falsafa hamda axloqni o‘zida mujassamlashtirgan yagona tizim shaklida namoyon bo‘ladi. O‘quv yurtlarida xuddi shuning uchun ham jahonning bir qator mamlakatlari dunyoviy ilmlar bilan birga ilohiyot o‘qitiladi. SHuningdek, jahonning ba’zi mamlakatlarida, jumladan, Misr Arab Respublikasida Al-Azhar, Tunisda Zaytuna, hindistonda Aligarx, Pokistonda Panjob, Turkiyada Anqara diniy universitetlari faoliyat ko‘rsatib, teologiya asoslarini keng targ‘ib qilmoqda. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonimizda milliy ma’naviyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan islom ma’naviyatini tiklanishi natijasida Toshkentda Islom Universiteti ochildi. Bu ilm dargohida islom dini bilan bir qatorda barcha dunyoviy ilmlar, xorijiy tillar, kompyuter asoslari o‘rgatiladi.

**Teosofiya** - (yun. *theos* - Xudo va *sophia* - donishmandlik, bilish) - falsafiy ta’limot. Teosofiya ta’limotiga ko‘ra, barcha tirik mavjudotlarning hayoti ularning tanasini boshqarib turuvchi ilohiy jon, ruhning faoliyati bilan bog‘liq. Inson o‘zining yuksak zakovati yordamida aslida o‘zining ilohiy jon ekanini, shu jon bilan tabiatini bir bo‘lgan Xudoning tabiatini anglab etish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Xudo – o‘zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo‘lgan eng kichik tirik zarrasaning ham, eng katta tirik mavjudotning ham ichida alohida mavjud bo‘la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo‘lgan Oliy Ruhdir. Jon esa, Xudo quvvatining ajralmas bo‘lagi hisoblangan ruhdir. Alohida ruhning mavjud emasligiga qarab, borliq tirik yoki o‘lik, jonli yoki jonsiz mavjudotlarga bo‘linadi. Teosofiya ilmiga asosan, Xudo – yagona mutlaq manba; uning tabiatini uch turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: butun borliq Xudoning ichki va tashqi quvvatidan tarkib topgan; Butun olamni ana shu ikki quvvatdan tarkib topgan ikki olamga bo‘lish mumkin: ruhiy va moddiy olam. Xudoning ichki

quvvati oliy, ruhiy quvvat, tashqi quvvati esa, quyi moddiy quvvati hisoblanadi. Ruhiy quvvat moddiy quvvatidan ustun va uni boshqarib turadi. Ruh o‘z xohishi bilan ruhiy olamda, yoki moddiy olamda yashash mumkin. Ruhlarning moddiy olamni boshqarish faoliyati aralash quvvat, ya’ni ruhning moddiy hayotidir. Ruhning moddiy olamdagи, bir tanadan ikkinchi tanaga o‘tib, rivojlanish faoliyati ruhning evolyusiyasi, deb ataladi. Inson tirik mavjudotlar ichida rivojlangan ongga ega, shu sababli ruh va moddaning bir biridan farqini anglab etishga qodir mavjudot. Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi yagona xislati o‘zining ruh ekanini anglab etishi va hayotda ana shu ilmi asosida yashay olish qobiliyatiga egaligidan iborat. Insoniyat tarixida faqat insonlar jamiyatidagina mavjud bo‘lgan turli diniy-fal-iy ta’limotlar zamon, makon va sharoitga mos ravishda asosan ana shu yagona ta’limot, ruh va tananing bir-biridan farq qilishini o‘rganadi.

**Xudo** – diniy sig‘inish va e’tiqod qilishning ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladigan buyuk qudrat, azaliylik va abadiylik, yaratuvchanlikning timsoli. Xudo turli ta’limotlarda turlicha talqin etilgan. Xususan SHarqda keng tarqalgan panteizm (vujudiyun)da Xudo tabiat (borliq)ning o‘zida Xudo va tabiat bir butunlikni tashkil etadi, deyiladi.

Qadimgi zardushtiylik dinida ikki Xudo obrazi: yorug‘lik Xudosi (marhamatli Xudo) Ahuramazda va qorong‘ilik Xudosi (shafqatiz, yovuz Xudo) Anhramanu (Ahriman) bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Qadimgi SHarq dirlarida va b. politeistik dinlarda Xudolar juda ko‘p bo‘lib, ulardan biri eng asosiy, eng qudratli hisoblangan (mas., qadimgi bobilliklarda Marduk, yunonlarda Zevs, slavyanlarda Perun), Monoteistik dinlarda, xususan, islomda yagona va qudratli Xudoga e’tiqod qilish – asosiy diniy aqidadir. Xudo tasavvuri tarixiy taraqqiyotning sulidir, boshqacharoq aytganda, Xudolar odamlarni emas, odamlar Xudolarni yaratgan. Qadimgi diniy e’tiqodlarda Xudolarga sig‘inish bo‘lmay, jonsiz narsalarga topinilgan yoki ruh, ajinalar va b. fantastik obrazlarga e’tiqod qilingan. Ibtidoiy jamoa tuzumi emirilib, birlashmalari rivojlanayotgan, sinflar vujudga kelayotgan sharoitda qabila Xudosining obrazi kelib chiqdi. Bu obraz, avvalo, bir qabila boshlig‘ining boshqa qabila va uning Xudosiga qarshi kurashdagi obrazi bo‘lgan. ko‘pgina o‘troq xalqlarda shahar-davlatlarning tashkil etilishi bilan qabila Xudolari shahar Xudo

homiyalariga alangan. Bir necha qabila yoki shaharlarning birlashishi bilan eng kuchli qabila yoki shahar davlatlarning Xudolari umum davlat, milliy Xudolarga aylangan, bo'ysungan qabila va shahr Xudolari politeistik ibodatxonada ikkinchi darajali o'rinnegalladi.

Qad. yahudiylarda Yaxve dastlab, qabila Xudosi va mahalliy Xudo bo'lgan, qad. yahudiylar qabilalarining birlashishi va Iudeya davlatining tashkil etilishi bilan umumyahudiylarning Xudosiga, keyinchalik esa qudratli yagona Xudoga aylangan. Xristian dinida Xudo obrazi milodning 1-asrida shakllangan. Uning asosini yahudiylar Xudosi Yaxve (ota Xudo) tashkil etadi, lekin bu Xudo timsoliga o'g'il- Xudo (Iisus Xristos) va muqaddas ruh- Xudo obrazlari ham singib ketgan. Buddizmida dastlab Xudolarga sig'inish inkor etilgan bo'lsa-da, keyinchalik buddanining o'zi Xudo deb tanilgan, bu dinda u bilan bir qatorda boshqa Xudolar ham bor.

Islom dinida e'tiqod qilinadigan yakka Xudo *Olloh* deb ataladi. Bu X. Makkada yashagan qad. Quraysh qabilasi Xudosi bo'lib, Muhammad targ'ibot bilan VII asrlarda islom dini Xudosiga aylangan. Makkadagi qad. ibodatxona – Ka'ba Baytulloh (*Ollohnning uyi*) deb atalib, musulmonlarning bosh sajdagohi bo'lib qolgan.

Asosiy monoteistik dinlar shaklanishi tarixiy jarayoni tugallanishi bilan diniy-fal-iy ta'limotlar vujudga keldi. Xudo faqat e'tiqod va sig'inish predmeti bo'lmay, idealistik fal.ning tushunchasiga ham aylandi. Xudo to'g'risidagi tasavvur va uning turli shakllari qad. va yangi davr ateistlari, ma'rifatparvarlari, ayniqsa, XVIII asrda fransuz materialistlari va Feyerbax tomonidan tanqid qilingan.

### Seminar nazorat uchun savollar

- 1.Din kelib chiqishining ob'ektiv va subektiv omillari.
- 2.Dinning kelib chiqishidagi falsafiy va sotsiologik konsepsiylar.
- 3.Dinning mohiyatini aniqlashda biologik va psixologik konsepsiylar.
- 4.Antik dunyo olimlarining dinning mohiyati haqidagi qarashlar.
- 5.Sharq va G'arb ilohiyotchilari ijodida din falsafasi haqidagi qarashlar.
- 6.O'rta asr va G'arbiy Evropa faylasuflari din haqida.
- 7.Ruh va Oliy ruh haqidagi diniy-falsafiy qarashlari.

8. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining din falsafasi rivojiga qo'shgan xissasi.

### Test

#### 1. Din – bu:

- A) Insonning xudo bilan o'zaro munosabat usuli
- B) Xalqni yo'ldan adashtiruvchi vosita
- S) Tashqi olam kuchlarining kishi ongida biron-bir tarzda ifodalanishi
- D) Ahloqiy me'yor va potensiallar tizimi

#### 2. Dinning qanday ildizlari bor?

- A) Genetik, tarixiy, psixologik
- B) Gnoseologik, ijtimoiy, psixologik
- S) Ijtimoiy, biologik, ilohiy
- D) Afsonaviy, falsafiy, psixologik

#### 3. Dinning funksiyalari (vazifalari) qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Axloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy
- B) To'ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o'zaro aloqadorlik
- S) Tinchlik, do'stlik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish
- D) Gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik

#### 4. Milet maktabning vakili Anaksimen jon haqida fikr yuritib, "Jon – bu ... .?

- A) Havo
- B) Ruh
- S) Xudo
- D) Ilohiy kuch

#### 5. Qaysi olim dialektikasida moddiy olamdag'i narsa va xodisalar to'xtovsiz o'zgarishda degan fikrni asoslab, olamdag'i dastlabki elementlar olov, havo, suv va tuproqning aylana harakatidan iborat, deydi?

- A) Geraklit
- B) Pifagor
- S) Suqrat
- D) Demokrit

**6. Qaysi olim diniy ilmni ulug‘laydi, uning fikricha, xudosiz bilim ilmiy ahamiyatga molik emas?**

- A) Suqrat
- B) Demokrit
- C) Geraklit
- D) Pifagor

**7. Platonning qaysi asarida shunday fikrni keltiradilar: “Xudo barcha narsalarning ibtidosi, o‘rtasi va nihoyasidir. U shuning uchun ibtidoki, hamma narsa undan kelib chiqadi: u shuning uchun o‘rtalikdirki u barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi va kelib chiqish xususiyatiga egadir. U shuning uchun nihoyasidirki, barcha narsalar o‘z maqsadiga intilgani kabi unga intiladi”?**

- A) Qonunlar
- B) Davlat
- C) Siyosat
- D) G‘oyalar dunyosi va soyalar dunyosi

**8. “Ruh bu tana emas, u tanaga taa’lluqli narsa bo‘lib, aniq bir tanada mavjuddir”. Bu fikr kimga tegishli?**

- A) Aristotel
- B) Platon
- C) Geraklit
- D) Suqrat

**9. Platonning ta’qidlashicha...?**

A) Jon va aql moddiy dunyoni bir-biriga qo‘shib turadi. Jon abadiy, o‘lmasdir, muntazam harakatda bo‘lib turadi. Har bir odamning joni umumiy jonning obrazi – aks etishi, ya’ni xususiy shaklda zohir bo‘linishidir deb hisoblaydi.

B) jonni ruhning materiya bilan alohida yuz beradigan xissiy ko‘rinishi, ya’ni xis qiluvchi va faoliyat ko‘rsatuvchi narsa deb hisoblaydi.

S) Inson tana va jonning birligidan iborat, tanasiz jon yo‘q, lekin ana o‘limidan so‘ng jon saqlanib, kaykoniy (umumdunyoviy) jonga yo‘shilib ketadi.

D) Jon va ruh haqida diniy-falsafiy jihatdan shunday deydi: ruhni ko'rib ham, sezib ham bo'lmaydi, lekin ruh bor, u "Xosti nestinomiy", ya'ni yo'qday bo'lib tuyiladigan borliqdir.

**10. Teosofiya bu...?**

- A) Xudo donishmandlik
- B) Xudo to'g'risidagi fan
- S) Xudo to'g'risidagi ta'limot
- D) Xudoini bilih

**11. Ilohiyot falsafasi bu...?**

- A) Teologiya
- B) Teosofiya
- S) Ideologiya
- D) Gnoseologiya

**12. Dirlarning farqi nimada?**

- A) Turli yillarda ibodat qilinishida
- B) Mamlakatlarda turli millat vakillarining joylashganligida
- S) Diniy urf-odat va marosimlar amalga oshirilishida
- D) Jahonda tinchlik uchun kurashishida

**13. Xristianlikning asosiy oqimlari qaysi oqimlar hisoblanadi?**

- A) Katolitsizm, provaslavie, protestantizm
- B) Baptizm, provaslavie, fetishizm
- S) Lyuteranlik, provaslavie, katolitsizm
- D) Iudaizm, sintoizm, shamanizm

**14. Inson tabiat qonunlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish mumkinmi?**

- A) Mumkin, agar Xudoga ishonsa
- B) Mumkin, agar ma'lumotli bo'lsa
- S) Mumkin, agar katta lavozimlarda ishlasa
- D) Mumkin, agar ilm-fanni egallab, moddiy olamga ob'ektiv tarzda yondashsa

## **4-5-MAVZU. DIN FALSAFASI GENEZISI VA RIVOJLANISH · BOSQICHLARI (4 soat)**

### **Reja:**

1. Ibtidoiy dinlarda dastlabki diniy ong g‘oyalari.
2. Ibtidoiy odamlarning diniy e‘tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik) shakllari.
3. «Avesto»dagi diniy-falsafiy g‘oyalalar.
4. Johiliya davridagi diniy-falsafiy g‘oyalalar.
5. Johiliya davrida ko‘p xudolik va arablar ma’naviyati.

**Tayanch tushunchalar:** Sapient, poleolit, neolit, totemizm, tabu, animizm, gilozoizm, magiya, shomonlik, fetishizm, politeizm, krest, “Avesto”, Yasna, Vispred, Videvdad, Yat, Vendidad, Oxura Mazda, Oxura Man, Johiliya, Hanif, sudho‘rlik, Hijoz, Yasrib (Toif), Makka, Madina, Kabatulloh, Baytulloh.

### **1. Ibtidoiy dinlarda dastlabki diniy ong g‘oyalari**

Din falsafasi genezisi insoniyatning qadimgi ajdodlari ongida dastlabki diniy tassavurlarning paydo bo‘lishi va ilm ma’naviy hayotning rivoji bilan uzviy bog‘liqidir. Soha olimlarining fikriga ko‘ra, bunday diniy tasavvurlarning shakllanishi ma’naviy hayotni xissiy qabul qilish, amaliy tajribalarni to‘plash va fikr yuritishi kabi qobiliyatiga ega bo‘lgan hozirgi odamlarga o‘xshash qobiliyatga ega bo‘lgan sapient (aqliy) odam tipida bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Sapient odam olimlarining tahmin qilishiga, ming yillar davomida ortirgan ovchilik tajribasi yoki vafot etganlarni dafn etish marosimlarini o‘tkazish tartiblari ibtidoiy odamlar to‘dasida nafaqat hayotga moslashuv tartiblarini ayni vaqtda tabiiy xodisalarga ta’sir etuvchi g‘ayritabiyy kuchlar haqida o‘ylab boshladilar. Hozirgi fan nuqtai nazaridan g‘ayritabiyy kuchlar haqidagi tasavvurlar sapientlik jarayoni tugagandan so‘ng, ya’ni 40-50 ming yillar muqaddam yangi sapient odami er yuzida keng tarqalib, o‘zidan oldingilarga nisbatan ancha rivojlangan odamtipi edi. Bu davrdagi ibtidoiy odam aqlii, o‘ylovchi, hayoti davomida uchraydigan ba’zi narsalarni tahlil qila oladigan, muayyan amaliy tajribaga ega bo‘lganligi bilan ajralib turar edi.

Ammo bu odamlarda tabiiy va ijtimoiy hayot bilimlarining g'oyatda kamliqi ularni tabiatning daxshatli kuchlari oldida ojizligini namoyon qilib, ko'pgina narsa va hodisalar g'ayritabiiy kuchlar orqali boshqarilishi haqidagi dastlabki, sodda tasavvurlarni shakllantirdi. Ibtidoiy odamda bunday g'oyalarning shakllanishi jarayoni narsa va hodisalarni sabab va oqibatning mantiqiy bog'liqligi orqali vujudga kelmaydi, balki xissiy idrok, illyuziya va hayoliy (fantastik) bog'liqliklari asosida namoyon bo'ladi.

Ibtidoiy odamlar to'dasining tahminan (30-50 kishi) jamoa bo'lib yashashi, ovqat izlashi, qurollar yasashi, turar joylarini qurishi va jihozlashi, ayniqsa oilaviy munosabatlar (xotinlarni almashish, oila qurish, o'lim, bolalarni tug'ilishi va boshqalar) asosida turli xil marosimlichilikni bajarishda, ular g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'liq degan illyuziya-fantastik shakldagi tartib va qoidalar yuzaga keldi.

Ibtidoiy odamlar ongida xudoning har narsaga qodir ekanligi haqidagi fikrlar biror bir xususiyatga asoslanmagan, izchil bo'lmagan narsani qudratini ko'rsatmaydi. U bizga toshning ilmiy asosga mos bo'lmasada qanday qilib shunday nomlanganligini echishda bizga yordam beradi. Ilmiy asoslarga ko'ra, Xudo shunchalik og'ir bo'lgan toshni ham yaratish qudratiga egaki, u uni ko'tara olmaydi. Ko'tara olmaslik, Xudo qila olmaydigan qanday narsa bor? Yaana shunga qo'shimcha Xudo har narsaga qodir emas bu cho'pchakning echimi shunchalik og'ir toshni yaratishni uni ko'tara olmasligini, kuch qudratning xususiyati, ya'ni Xudo uchun muhim xususiyat bo'lgan izchil bo'lmagan biror narsani qilayotganligini guvohi bo'lishdir. Agar shunchalik og'ir tosh mavjud bo'lsaki, Xudo uni qo'zg'ata olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, Xudo har narsaga qodir emas<sup>37</sup>.

Din falsafasining dastlabki ildizlaridan bo'lmish ibtidoiy odamlar hayoti bilan bog'liq illyuziya-fantastik ruhda shakllangan tartib va qoidalar haqida ko'pgina olimlar tomonidan fikrlar bildirilgan Rossiyalik olim L.S.Vasilev "Istoriya religii Vostoka" nomli olyi o'quv yurtlari uchun yozilgan o'quv qo'llanmada ibtidoiy odam hayotidan oldingi sapientlik davrdagi odamdag'i farq qiladigan ikkita misolni keltiradi:

1) dafn etish amaliyoti. G'arbda yashaydigan sapient odam o'ziga yaqin bo'lgan kishilarida o'lim sodir bo'lsa, uni dafn etish uchun

<sup>37</sup> William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. P. 8

maxsus joylar tayyorlab, maytni ko'mish bilan bog'liq bir qancha rasm-rusmlarni bajaradi. Shulardan biri murda tanasini qizil oxra bilan qoplaydi, uning yoniga kerakli buyumlar, hattoki bezakli materiallar hamda bir qancha boshqa tayyorgarliklar ko'rildi. Bunday dafn marosimidagi harakatlar, rasm-rusmlar maytni dafni qiluvchi jamoa ongida o'lgandan keyingi narigi dunyoda ham o'ziga xos hayot bo'lishi haqidagi tasavvurlarni borligini ko'rsatadi. Yuqori paleolit davri odamlarda narigi dunyoda ham real hayot bor degan tushunchani shakllanishi erdag'i hayot bilan narigi dunyo hayoti o'rtasida bog'liqlik degan tushuncha tobora mustahkamlanib boradi. Ya'ni u dunyoda ham real hayot mavjud deb qarash ruhlar dunyosini tan olishni, olamdan o'tganlar ruhi haqida qayg'irish kabi harakatlarni kelib chiqishga olib keladi;

2) Yuqori paleolit davrida sapient odamining yuzaga kelishi bilan bog'liq g'or devorlariga tushurilgan magik mazmunidagi shakl va rasmlar amaliyotidir. Fanda ma'lum bo'lgan g'or devorlaridagi aksariyat rasmlar – bu ovchilik, odamlar va hayvonlar yoki hayvon terisidagi odamlar hamda yarim odam va yarim hayvon shakldagi rasmlardir. Bu rasmlar, shakllar ibridoiy odamlar ongida oddiy va sodda holatda bo'lsa ham odamlar bilan hayvonlar o'rtasida g'ayritabiiy bog'liqlik bor degan tasavvurlarni shakllantirganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari polvunlar va jamoalar magik harakatlar yordamida odamlar manfaati yo'lida hayvonlarga ta'sir o'tkazishi mumkin degan g'oyaga asoslanadi.

Demak insoniyatning qadimgi ajdodlarida dastlabki, sodda va oddiy darajadagi dinniy ongni shakllanishi uzoq tarixiy davrni o'z chiga oladi. Ibtidoiy odamning hayvon va o'simlik turlari bilan qon-qarindoshligi haqidagi tasavvurlar ham ularning ko'p yillar davomida ovchilik sohasidagi tajribasi ayni vaqida yirtiq hayvonlardan himoyalanish hissiyotlari ham bunga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoviy ishonchli, haqiqiy ta'limot clamning mavjudlik sabablari masalasida diniy qarashlar bilan kelishmasa-da, ammo insonni, uning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini o'rganishda minglab yillar mobaynida uning bag'rida qo'lga kiritilgan bilim, tajriba, ularning hozirgi kundagi ijobiy ahamiyatini aslo rad qilmaydi, qolaversa din bag'rida hakllangan ma'naviy, jumladan axloqiy qadriyatlarning vujudga kelish sabablari, ularning kishilarga ijobiy ta'sirchanlik masalalari

ilmiy jihatdan o'rganish va bu ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan foydalanish ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bo'lмаган. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bo'lган, xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lган.

## **2. Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik) shakllari**

**Totemizm** – hindlar tilidagi “o totem” (uning urug'i) degan so‘zdan kelib chiqqan. Totemizm ibtidoiy g‘oyat sodda diniy e'tiqodning bir turi bo'lib, qadimgi zamondagi urug' – qabila a'zolarining muayyan bir hayvon, o'simlik bilan g‘ayritabiyy aloqasi, yaqinligi, qon-qarindoshligi bo'lган deb, bu hayvon va o'simliklarni muqaddaslashtirishdan iboratdir. Totemizmnning muayyan kishilar guruhining tabiat, binobarin, tashqi muhit bilan bog'liqligini ifodalovchi dastlabki shakllaridan edi. Har bir qabila yoki urug' o'z sharoitini hamda imkoniyatlarini ko'zda tutib, ba'zi hayvonlarni ovlar va ular haqida yetarli ma'lumotlarga ega edi. Bunday hayvonlarni yaqindan bilish ularning urug' bilan yaqinligi yoki qon-qarindoshligi bo'lsa kerak, degan tasavvurni keltirib chiqargan. Natijada ba'zi hayvonlar, keyinchalik esa o'simlikning ba'zi navlari ham muayyan urug' a'zolarining ajdodi – totemidir, degan tasavvur shakllanishiga olib kelgan. SHu boisdan urug' a'zolari totemning "yordamiga" ko'z tikkanlar, uni muqaddaslashtirib, o'z homiylari deb hisoblanganlar, sehr yo'li bilan unga ta'sir qilishga uringanlar. Totemga sajda qilingan, u himoya qilingan, e'zozlangan, uni otib o'ldirish, iste'mol qilish man etilgan. Faqat ayrim hollarda, ya'ni tantanali kunlarda totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni mahsus rasm-rusmga rioya qilingan holda iste'mol qilish mumkin bo'lган. Urug' a'zolarida shundagina totemning kuch-quvvati kishilarga o'tadi va u kelgusida ham urug'ning homysi bo'lib qoladi degan tasavvur bo'lган.

Totemizm e'tiqodlari tub avstraliyaliklarga keng saqlanganligi ularning urug'lari nomalaridan payqash mumkin. Ular urug'lari konkret hayvonlar (kenguru, oq ho'kiz, qora ho'kiz kabi ayrim o'simliklar) nomi bilan ataganlar.

Totemistik tasavvurlar urug'chilik jamoasini shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Aynan shunday tasavvurlar asrlar davomida shakllanib, bir urug'ning ikkinchi urug'dan farq qiladigan tomonlari (bizniki va ularni degan tushunchalar) asosida o'z totemi bilan bog'liq urf-odat normalarini ham shakllantirganlar.

Totemistik qarashlar asosida yuzaga kelgan cheklovchi urf-odat (tabu)lar ibtidoiy urug'chilik jamoasida ijtimoiy-oilaviy munosabatlarni tartibga solish mexanizmini shakllantirishga hizmat qildi. Bu mexanizmda oilaviy munosabatlarni tartibga solib, o'z ya'ni qarindoshlari bilan jinsiy aloqada bo'lishi chekladi. Shu bilan birga oziq-ovqatlarini iste'mol qilishning ham tartibga soldi.

Shunday qilib, g'ayritabiyy kuchlarga asoslangan totemistik tartib va qoidalar, chekhanishlar (tabu) urug'chilik davrdagi diniy tasavvurlardan biri edi. Kishilik jamiyatining shakllanishining dastlabki davrida toteizm dinning integrativ (birlashtiruvchi) regulyator (tartibga soluvchi), nazorat qiluvchi funksiyalarini bajargan. Diniy ong esa, o'sha davr shart-sharoitlari, o'zaro munosabatlarga, ayniqsa, totem tasavvurlari darajasiga bog'liq holda rivojlangan.

Totemizning elementlari hozirgi dinlarda ham ko'rish mumkin. Masalan, hinduizm dinida fil, sigir, maymun, ilon kabilar muqaddas hayvonlar hisoblangan. O'zbeklarda qaldirg'och, musicha, laylak, ko'k qarg'ani muqaddas qushlar deb e'zozlash ham totemiznning ko'rinishlaridan biridir. Markaziy Osiyo xalqlarida, shu jumladan o'zbeklarda muchalga qarab vaqt hisobini chiqarish totem e'tiqodi bilan bog'liqdir. Masalan, ota-bobolarimizda odamlarning yoshini, ya'ni tug'ilgan kunidan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish odati bo'lgan.

Muchal mo'g'ul, xitoy va butun turkiy xalqlarda keng tarqalgan yil hisobi bo'lib, unda yil oylari 12 hayvon nomi bilan ataladi: sichqon (mush), mol (gav), yo'lbars (palang), quyon (xargo'sht), baliq (nahang), ilon (mor), ot (asp), qo'y (go'sfand), maymun (hamduna), tovuq (murg'), it (sak), to'ng'iz (xo'k) shular jumlasiga kirtilgan.

Xalqimizda, ayniqsa, musulmonlarda totemning elementlaridan bo'lgan muchalga e'tiqod qilish hali ham, qisman davom etmoqda.

**Animizm** – (lotincha - animus – jon, ruh demakdir) qadimgi zamon dinlaridan biri, kishi ruhining mavjudligiga ishonishdan iborat.

Animizm tabiatdagи buyumlarni ilohiylashtiradi, xar bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor, deb hisoblanadi.

Animistik tasavvurlar juda qadimiy bo'lib, hattoki totemizdan ham oldinroq paydo bo'lgan. Ammo animizm muayyan tizim (sistema)si sifatida totemizm bilan bir vaqtida shakllangan.

Animistik tasavvurlar barcha halqlar tarixidagi dinlarda jon va ruh haqidagi tushunchalarning shakllanishida ma'lum rol o'ynab kelgan. Animizm har bir kishida uning hayoti va ongingin manbai bo'lgan jon bor, deb talqin qilgan. Dastlabki animistik tasavvur jonni soya yoki nafas bilan aynan deb bilar edi. Masalan, SHimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda jon bilan qon, Grenlandiyada esa nafas olish bilan jon bitta nom bilan ataladi. Animizm odamda olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, predmet va hodisalar xususiyatlarini chuqur o'rganish, jon va ruhlarning tirik odamlar singari qobiliyatga ega degan, fikrlar paydo bo'lishi munosabati bilan tarkib topgan. SHu davrda jonning o'lmasligi haqidagi tasavvur paydo bo'lgan. CHunki qadimgi odamlar o'z tanalarining tuzilishi to'g'risidagi to'liq bir tushunchaga ega bo'lmay, hattoki uyqu va tush ko'rshining sabablarini ham izohlay olmaganlar. SHundan so'ng ibridoiy odamlar inson tanasini boshqaradigan qaydaydir alohida bir kun bo'lib, odam o'lgandan so'ng u kuch, ya'ni jon tanadan chiqib ketadi degan tasavvur hosil bo'lgan. Natijada jonning tanani tark etgandan keyingi faoliyati qanday kechishi haqida o'ylay boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar o'zlarini tabiatdan ajratib qo'yunganlar. Shuning uchun ular o'zlar bilan bir qatorda hayvon, o'simlik, hatto mehnat qurollari, keyinchalik suv, o'rmon, momaqaldiroq va boshqalarda ham jon bor, degan tasavvurlarni keltirib chiqarganlar. Buni fanda gilozoizm<sup>38</sup> deb ataydilar.

Jon va ruhlarga ishonish barcha dinlarga hosdir. Shu bois odam o'lgandan so'ng tanadan chiqib ketadigan jon bor, degan tasavvur chuqurlasha borgan. Demak, odam o'lganda jon chiqib ketib, yashay berar ekan, uning o'zi abadiy yashaydi degan tushuncha paydo bo'lgan. Abadiy ruh to'g'risidagi tsavvur ana shu yusinda shakllangan. Ruhlarga ishonish arvochlarga ishonishni keltirib chiqargan.

<sup>38</sup> Гилозоизм – маддий нарсаларнинг ҳаммаси жонли ва сезиш қобилиятига эга, деб тушунтирувчи таълимот.

Jon va ruhlarning o'imasligi haqidagi qadimiy animistik tasavvurlarning elementlari hozirgi barcha dinlarda saqlanib qolmoqda. Masalan, dindorlar tasavvurlarida o'lgan kishilarning arvohini yo'qlash, ularni tirik odamlar singari hamma narsadan xabardor, deb tushunish mavjud. Shu tufayli jon va ruhlarga atab qurbanlik, xayr-xudoyi qilish, sadaqa berish odatlar hamon uchrab turadi. Ba'zan murdani kiyimlari bilan dafn etish, yoniga suv, ovqatlar qo'yish odatlari ham animizmning ko'rinishidir. O'zbeklarda arvoohlар haqidagi tasavvurlar, ularni eslab payshanba oqshomi arafasida chiroq yoqish, qabristonlarga borib Qur'on suralaridan o'qish anamizmga bo'lgan e'tiqodning shakllaridir.

Anemistik va totemistik e'tiqod va ibodatlar ibtidoiy davr jamoasining g'oyat murakkab va qiyinchiliklarni engib yashashi uchun kurashining ular ongidagi in'iqosidir. Ular illyuziyali – fantastik qarashlarga asoslangan bo'lib, ular real holat bilan bog'lash funksisini magik harakatlar o'ziga xos holatda bajarishga harakat qilgan.

Magiya (sehrgarlik) – insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g'ayritabiyy yo'l bilan ta'sir ko'rsatish maqsadida bajariladigan xattiharakatdir. Boshqacha qilib aytganda, magiya moddiy manfaatlarga erishish uchun g'ayritabiyy kuchlarga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq turli xil ibodatlar yig'indisidir.

Eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan magiya ming yillar davomida rivojlanib kelayotgan harakatlar turidir. Magik harakatlar bilan odatda, maxsus tayyorganlikka ega bo'lgan koldunlar (folbunlar) va insonlar shug'ullanadilar. Ular o'zlarini ruhlarga murojaat qilib, jamoaning iltimosini etkazish qobiliyatiga ega ekanliklariga astoydil ishonadilar. Buning uchun ular muayyan magik harakatning turli so'zlar, ashula, raqslarni dombra va kolokollarni (qo'ng'irolar) ishga solishdan kompleks ibodatini bajarish bilan amalga oshiradilar. Bunday harakat natijasida shomon ekstaz (xushdan ketish) darajasiga yetadi va uni kuzatuvchilarda kuchli ta'surot qoldiradi. Shu tariqa odamlar oldida shomon yoki koldunlar ruhlar bilan aloqa qila olish qobiliyati borligiga ishontiradi.

Sehrgarlik (magiya) harakatining shakllari turlicha bo'lib, ular turmushning har xil sohalarida qo'llanilgan. Muhabbat magiyasi, davolash magiyai, ishlab chiqarish magiyasi, dushman engish magiyasi kabi sehrgarlik ibodat va harakatlar ancha keng tarqalgan.

Mehnat bilan bog'liq, bo'lgan magik harakatlar ibtidoiy odamlar hayotila alohida o'rin egallagan, ya'ni ular tirikchilikka kerak bo'lgan narsalarni topishdan oldin shu buyum yoki hodisaga bog'liq bo'lgan magik harakatlarni bajarganlar.

Ishlab chiqarish muvaffaqiyatiga bag'shlangan sehrgarlik harakatlari, ishlab chiqarish xarakteriga qarab, turli shakllarda va har xil maqsadlarga o'tkzilar edi. Bunday harakatlar ibtidoiy jamoa a'zolarning umumiy manfaati yo'lida qilinar edi.

Ibtidoiy jamoa ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining darajasi pastligi, kishilar hayotining urug' va qabila munosabatlari tor doirasi bilan cheklanganligi, tabiat kuchlari oldidagi ojizlik dinning ilk shakllarida o'z in'iqosini topgan. Bu ojizlik ibtidoiy odamning sodda, yuzaki tasavvurlarga asoslangan sohta, sehrgarlik usullarini qo'llanishiga majbur etgan. Ojizlik, qadimgi odamlarning har doim mo'jizaga ishonish bilan hayoldagina maqsadga erishishga madad bergen.

Ibtidoiy dinlardagi hayoliy in'iqos mahsuli bo'lgan tog', suv, bo'ron, quyosh, momaqaldiroq Xudosi kabi tasavvurlar turli-tuman bo'lsa-da, ular oliy va past tabaqalarga ajratilgan emas. Bunday ajratish jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlariga o'tilgandan so'ng yuz bera boshladi.

Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda ishlab chiqaruvchi kuchlar ham o'zgarib, rivojlanib borgan. Ishlab chiqarishni tashkil etuvchi va boshqaruvchi kuchlar – kishilar ham tabaqlanishda davom etgan, dunyoqarashlari kengaya borgan.

Shomonizm – ibtidoiy jamoa tuzumi emirilishi davrida paydo bo'lgan animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Uning o'ziga xos xususiyati – kishilar orasida turli ruhlar bilan munosabatda bo'la oladigan shomonlar qobiliyatga ishonishdir. SHomonlarga, shuningdek, kelajakni oldin aytib berish, kasalni uzatish, o'lganlarni oxiratga kuzatish, tabiatda hahlagancha o'zgartirishlar qilish kabi xususiyatlar ham xosdir. O'tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do'mbirasi yoki mo'jizaviy musiqa ijrosida turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Shomonizm o'tmish dinlar sarqiti sifatida ba'zi hollarda uchrab turadi.

Fetishizm ibtidoiy jamoa tuzumi odamlarida diniy tasavvurlar kompleksini yakunlovchi bosqichini tashkil etdi.

**Fetishizm** – (fetish – fransuz tilidagi “fetiko” – yasalgan tumor, but, sanam degan so‘zlardan olingan) moddiy buyumlarda g‘ayritabiyy xususiyatlar borligiga ishonib, jonsiz narsalarga sig‘inishdir. Ibtidoiy odam ongida har xil moddiy buyumlar – tog‘, qoya tosh, daraht, keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va hokazolarda g‘ayritabiyy kuchlar bor degan tasavvur paydo bo‘lgan. O‘zları vujudga keltirgan bunday kuchlarga o‘zları sig‘ina boshlaganlar. Ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lgan fetishizm barcha xalqlarda diniy tasavvurlar shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Fetishizm politeistik (ko‘p xudolik), hatto monoteistik (yakka xudolik), dirlarida hozircha saqlanib kelmoqda. Masalan, xristianlarda krestga (butga) sig‘inish, islomda esa turli o‘simlik turlarini – sedana, ko‘ztikan, kalampirmunchoq, achchiq, qalampir, isiriq, chilonjiyda, daraxtlardan – yong‘oq, chinor, archa va boshqalar bilan muqaddaslashtirilib, boshqa buyumlarga, shu jumladan odamlarga ta’siri yoki yordami bo‘lishi mumkin degan tasavvur paydo bo‘lgan. Bunday xususiyatni tog‘-toshlarga, turli buyumlarga ham xos degan g‘ayritabiyy fikrlar shakllangan.

Fetishizm diniy ibodatning ajralmas qismidir. Hozirgi vaqtida ba’zi soddadil, mutaassiblarning turli tumor, ko‘zmunchoq va hokazolarning taqib yurishlari, daraxtlarga latta-puttalarni osishi, is chiqarishi shunday jismlarni ilohiylashtirish, e’tiqoddagi eng xarakterli ko‘rinishidir.

### 3. «Avesto»dagi diniy-falsafiy g‘oyalar

“Avesto” zardushtiylik ta’limotining muqaddas manbaidir. Zardushtiylik erimizdan avvalgi X asrdan VII asrgacha bo‘lgan qadimiyl madaniyatimizning diniy-falsafiy ta’limotlaridan biridir.

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo‘lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda dastavval O‘rta Osiyoda – Horazm vohasida paydo bo‘lgan. Uning payg‘ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdaiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi yakka xudolik dinini yuzaga keltirdi.

Zardushtiylik – ilgarigi diniy tasavvurlar va ko‘p xudochilikka asoslangan diniy e’tiqodlarini takror Zardusht isloh qilish oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiyl din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuzgacha davom etib kelayapti. Ko‘p tadqiqotchilar Zardusht

tarixiy shaxs bo‘lib, milodgacha VI asrda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiatshunos va shoir ekanini e’tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik paydo bo‘lgan vaqt quldorlik tuzumi endigina paydo bo‘layotgan davr edi. U urug‘-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga bo‘linayotgan davr bo‘lgan. Bu din eng avval O‘rta Osiyo, so‘ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

I.A.Karimov “O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz” degan asarida: “Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo‘lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz xalqimiz ko‘hna Xorazm zaminida “Avesto” paydo bo‘lgan zamonalardan buyon o‘z hayoti, o‘z madaniyati, o‘z tarixi bilan yashab keladi”,<sup>39</sup> deb taqidlagan edilar.

I.A.Karimov o‘zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” degan asarida shunday degan edi: “Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyoznamiz “Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umurguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir”<sup>40</sup>. Bu, ta‘bir joiz bo‘lsa shaklan diniy, mazmunan boshdan oyoq dunyoviy yozuvning qadr-qimmatini teran anglab, uning o‘zbek yozma madaniyatining ilk sarchashmalaridan biri sifatida Horazmda yaratilgan durdonaga yuksak baho berib, yana bunday deb yozgan edi, muallif: ““Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvoxlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi”<sup>41</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Shu o‘rinda birinchi davlat tashkil topgandan keyingi “yozma tarix”, shuningdek, Yunon, Xitoy tarixchi sayyoohlari tomonidan yozib qoldirilgan xotiralar, Zardushtiylik yozuvlarida berilgan tarixiy dalillar g‘oyat o‘rinli tarzda nazarda tutilgan.

Xorazmda o‘troq hayot undan ham birmuncha oldin yuzaga kelgan, davlat esa uning maxsuli tarzida tashkil topgan. Bu haqda bundan taxminan 3 ming yil avval yaratilgan “Avesto”ning qo‘lyozmasi, binobarin, yozma tarixning ilk debochasi ishonchli

<sup>39</sup> Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўнимиз билан қўрмоқдамиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999.

<sup>40</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак Йўқ –Т.; “Шарқ” нашриёти, Матбас Концерни, 1998. –Б. 10.

<sup>41</sup> O’sha joyda.

dalolat beradi. YUrboshmiz taqidlaganidek “Avesto” Horazmdekk qadimgi o’lkada buyuk davlat, boy ma’naviyat, qimmatli madaniyat yodgorligi ekanligini bugungi kunda hech kim inkor eta olmaydi.

Zardushtning diniy islohotini tushunish uchun o’sha davr Turonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatni e’tiborga olish kerak. Gap shundaki, Turon iqlimining kontinental, ya’ni nisbatan mo‘tadilligi, geografik jihatdan ikki katta qit’a o’rtasida, Amu va Sir daryolari oralig‘ida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu mintaqda sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Xuddi shu tarixiy davrda xunarmandchilik va ovchilik ham anchagini rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa Farg‘ona vodiysida qorabayir zotiga o‘hshash otlarni boqish keng ko‘lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o‘ynagan. Buning ustiga mis va qo‘rg‘oshin konlariga boy bo‘lgan.

Oltynning yaqinligi bu erda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo‘lgan.

Zardusht yashagan davrda o‘troqlik hayoti afzalligi yaqqol namoyon bo‘lgan, ammo unga qabilalar o‘rtasidagi qirg‘inbarot urushlar rahna solayotgan edi. Urushlar ko‘pincha har bir qabila va elatning o‘z xudolariga ko‘plab qurbanliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O‘z davrining kohinlari, sehrgarlar va mo‘tabar qariyalari keng munozaralar olib borgan. Zardusht yuqoridagi odatlarni bartaraf etish va xalqlarga tinch mehnat bilan shug‘ullanish imkonini yaratish uchun ko‘pxudolik e’tiqodlariga barham berib, yakkaxudolikka sig‘inishni targ‘ib etgan va shu vazifani bajargan.

Shundai qilib, Zardushtiylik mil.avv. VII-VI asrlarga xos bo‘lgan din din sifatida undan oldingi urug‘-qabilachilik dinlari negizida paydo bo‘lgan yakkaxudolik dini bo‘lgan. U eramizning to VII-IX asrlarigacha turli shakllarda davom etib, so‘ngra uning o‘rnini islam egallagan. U dastavval, Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O‘rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib qelmoqda.

**Avestoning muqaddas yozuvi.** Avesto faqat diniy manbagina emas, balki dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o‘zi tarqalgan o’lkalar, elatlarning ijtimoiy iqtisodiy hayoti, madaniy va ma’naviy qarashlari, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari haqidagi manba hamdir. Unda bayon etilgan g‘oyalar diniy e’tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht degan payg‘ambar nomi bilan bog‘langan. U “Avesto”ning eng

qadimiy qismi “Yat” (xat nomi) ni ijod etgan. “Avesto” tarkibiga kirgan bilim, ma’lumotlar qariyb miloddan avval 3000 yillik oxirlari va 2000 yilik boshlaridan to milodning boshlarigacha o’tgan davrda yuzaga kelgan: avloddan–avlodga og‘zaki etib kelgan, uning buqa terisiga yozilgan ko‘p qismi yo‘qolgan, ettidan bir qismi saqlangan, xolos. U miloddan avvalgi III asrda Ashrakiylar sulolası davrida to‘plangan.

Falsafa qomusiy lug‘atida yozilishicha, fransuz tadqiqotchisi Ankebils dyu Perron, undan keyin X.Bartolome, J.Dyushen-Giyemen, V.B.Xenning, X.Xumbak, J.Kelens, M.Boye, I.M.Steblin-Kamenskiy kabilar “Avesto”ni har tomonlama tadqiq etib, uning asosiy qismiları YAsna, Vispred, Videvdat, YAt, Vendidad kabilardan iborat ekanligini aniqlab bo‘lganlar.<sup>42</sup>

Zardushtiylik dini ta‘limotini quyidagi uch tarixiy qismiga bo‘lish mumkin: 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yatlardir. Ularda urug‘chilik tuzumidagi e’tiqodlar, ko‘pxudolik tasavvurlari tasvirlangan. 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Oxura Mazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan. 3. Qadimiy ko‘pxudolik va keyingi yakkaxudolik g‘oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdakiylik dini shakllangan. “Avesto” bu dinning ohirgi va asosiy qismini bayon etgan.

SHoh Vishtasa farmoniga binoan “Zardusht 1200 bobdan iborat pandnomasi” “Avesto” ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan deb yozgandi Firdavsiy. Keyinchalik bu kitob 12 ming buqa terisiga bitilgan, makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn SHarq xalqlarining bir qismini zabt etganda uning nodir nushasini Elladaga eltil, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini yondirgan. “Avesto” yuqorida aytilganidek, eng qadimiy yakkaxudochilikka asoslangan dinning birinchi muqaddas kitobigina bo‘lib qolmay hozirgacha e’tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki oddiy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan diniy mifologik tasavvurlar uyg‘unlashib, ma’naviy, axloqiy barkamol, ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g‘oyasi markaziy o‘rinni egallagan.

<sup>42</sup> Qarang: Фалсафа асослари. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллый жамияти нашриёти, 2012.-Б.51.

"Avesto"da tabiiy bilimlar-agronomiya, meteorologiya, meditsina, falakiyat, astronomiya, geografiyaga doir bilimlar ham mavjud.

Zardushtning diniy islohoti bo'sh joyda yuzaga kelgan emas. G'arbiy Evropa va rus tadqiqotchilarining fikricha, milodgacha bo'lgan 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A.P.Primakovning aytishicha, oriyalar ko'chmanchi chorvadorlar bo'lishgan. Ularda yozuv bo'lмаган, ammo xayratomuz og'zaki ijod iste'dodiga ega bo'lib, ular yaratgan o'ziga xos ashula, gimn, pand-nasihat shaklidagi qo'shiqlar avloddan avlodga o'tib borgan. Umuman SHarqda qadimdan inson ichki olamini munavvar etish, niyat bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va falsafiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universitetining professori Maks Myuller Pomir atrofida yashagan Oriy qabilalarining bir qismi bundan 3,5 ming yil muqaddam Hindistonga, bir qismi Evropa va Eronga ko'chib ketganini ta'kidlagan. Ular albatta o'zлari bilan birga shu erdag'i osori atiqalarini (mifologiyani) ham olib ketishgan, deb hisoblangan. Demak, Evropa va Hindistonga hamda Yaqin va O'rta Sharqqa tarqalgan ko'pxudolik asoslari avvalo Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. SHu bilan birga Zardusht asos solgan yakkaxudolik dini ham boshqa joyda yashayotgan halqlar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Zardushtiylikning muqaddas yozuvlar to'plami "Avesto" mintaqada Iskanday asos solgan hokimiyat tugugach, eramizgacha bo'lgan 250-yillarda arshohiylar sulolasи hukmronligi davrida yana tiklana boshlagan va u yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Sosoniyalar sulolasи hokimiyyati davrida (milodning III-VII asrlari) zardushtiylik davlat dini maqomini olgach, bu ish nihoyasiga yetkazilgan. Ya'ni "Kichik Avesto" ham yozma tus olgan. Avestoning uch kitobi qadimgi turon tilida va bittasi paxlaviy tilida tiklangan. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, "Avesto" YAsna, YAt, Vispred, Videvdad Kichik Avesto qismlaridan iboratdir. Uning birinchi kitobi "Videvdad" ya'ni devlarga qarshi qonun, deb atalggan. "YAsna" va "Vispred" ni qo'shgan holda "Videvdat-Sade" nomi bilan yuritilgan. "Videvdad" ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi ham deyish mumkin. "Avesto"ning ikkinchi "Yasna" kitobi bo'lib, Zardusht Xat (noma'lari uning asosiy mazmunini tashkil etgan. U 72 "ha" bashoratdan iborat bo'lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Ohuramazdaning vahylari haqligiga imon keltirishga doir duolar

bor. 19-bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo'lgan xudolar sha'niga shukronalar bayon etilgan.

Iyomon kalimasi, poklanish (yuvinish gigienasi) yovuzlikni la'natlayotgan paytda tanani qanday maromda tutishlik, dev ibislarni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar mavjud. Gunohdan forig' bo'lish, iyemonni saqlab qolish uchun masalan, mana bunday duolar o'qish tavsiya etilgan: "Ey olamning xukmdori Oxura Mazda! Men barcha gunohlarimga iqrorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman, so'zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman, gunohlarimni keng karaming ila kechirgin, u dunyoyu bu dunyoyimni munavvar etgil, ey parvardigorum!"

Yasnalarining 7-bobida Zardusht orqali xabar berilgan bashoratlarda chuqur falsafiy g'oyalar o'z ifodasini topgan. Zardusht Oxura Mazzadan o'z axloqiy qonun-qoidalarini ma'lum etishni so'ragan. U bunga javoban butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi – ezgulik va yovuzlik haqida vahy qilgan. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu boshlang'ich kuchlar har doim birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini anglatgan. Jahannam Oxura Mazda vahisida "hayotning eng yomon onlari", osmon esa ruhning eng yuksak holati sifatida gavdalantirilgan. Olamdag'i yovuzlik, nokomillik narsa, hodisalar va ularning mohiyatidan keltirib chiqarilgan. Ularni bartaraf etish esa, istiqboldagi ish bo'lib, iyomonli kishilar bu jarayonda eng katta faoliyat ko'rsatishga da'vat e'tilgan. Ular Oxura Mazda yuborgan qonunlar, o'git nasihatlarga amal qilsalar, ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi deb hisoblaganlar.

Olam qarama-qarshiliklar kurashi asosida qurilgan, bo'lib, u tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotdaadolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda u o'z ifodasini topgan. Diniy soha esa, ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasidagi kurashga asoslangan. Axura Mazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Ahriaman unga qarshi tarzda odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi deb hisoblangan. 30- bashoratda ezgulik va yovuzlik sohasidagi abaciyl kurashda oraliq yo'l yo'q, binobarin, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonida ishtirot etishga majbur, deyilgan SHuning uchun dindorlik iyomon-e'tiqod, barkamollik nishonasi

sifatida muhim bo'lib, u odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi, deb faraz qilganlar. Iymon- e'tiqodli odam albatta ezgulik tarafida turadi deb ta'kidlangan, yovuz ruhlar – dev, iblis va boshqalar esa gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanib, Oxura Mazdaning ulardan saqlanishga qaratilganda'vatlari yozilgan. YOsinning birinchi bashoratida Xudo – men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan targ'ibotlarni ulug'layman, deb yozgan. Demak, zardushtiylik iymoni quyidagi 3 tayanchga asoslangan: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi Oxura Mazda odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lib, bir – birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazo'ylik, dimog'dorlik, shuhratparastlik, qonunbuzarlik kabi illatlardan o'zlarini tiyib yurishga chaqirgan.

Oxura Mazda bergen pand-nasihatga binoan "Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqa shartnomaga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan holi bo'lish iymonlilik alomatlaridir". Uning fikricha, iymonli odam o'g'rilik va talonchilikdan, begonalarning mol-dunyosiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga hiyonat qilishdan, ya'ni iymoniga xilof ish qilishdan o'zini saqlay biladigan komil insondir. "Tanangizga nisbatan, qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring", ya'ni, avval, ma'naviy dunyoyingiz musaffao bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi,- degan edi, u. "

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi rivoyatlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bularda iyim nomi bilan birinchi odam va uning faoliyati haqidagi gaplar yozilgan. Masalan, u Oxura Mazda irodasiga muvofiq, odamlarni, hayvonlarni va qushlarni parvarishlagan va u butun er yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytirgan va shu tarzda 300 yil yashagan. Oxurammazda unga oltin nayza bilan oltin qamchi hadya etgan. Er odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganda. Iyim nayzani erga suqib, xudodan uni kengaytirishni iltijo qilgan va bunga erishgan. Oxura Mazda Odam Atoga muzlamachilik ofati kelayotganidan xabar bergan, bu ofatning oldini olib qolish kerakligini aytgan. Iyim mahsus uy qurib, mavjud hamma hayvon va o'simliklarning eng yaxshi zoti va navidan bir juftdan saqlagan, natijada dunyoda tirik tabiatni ofatlardan saqlab qolgan. Biroq Iyim o'z ishiga ortiqcha baho berib, mag'rurlanib ketgan va xudo taqiqlagan ne'mat – yirik shohli xayvon

go'shtidan tanovul qilib qo'ygan. Oqibatda u xudoning qahriga uchrab, abadiylikdan maxrum bo'lib qolgan. Odamzod hayotining bu birinchi bosqichidan so'ng, ikkinchisi boshlanar ekan. Bu davr Zardusht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq bo'lib, u din va imyon uchun beomon kurashlardan iboratdir. 3000 yillik kurashlardan so'ng Zardushtning farzandi boshchiligidagi dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga kelar ekan, yovuzlik kuchlari timsoli bo'lgan dev -Axriman engilar ekan. 3- davrda qiyomat-qoyin boshlanar va o'liklar tirlib, xudo huzuriga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishar ekan. Hamma ishlardan vokif bo'lgan va hisob-kitob qilib borgan xudoni aldab bo'lmas ekan.

"Avesto"ning muqaddas kitobidagi g'oyalarga murojaat qilingan. Unda qadimgi dunyo falsafasining 4 asoslari (substansiysi) – tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shilgan. Hatto marhumlarning murdalari erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularni jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Oxura Mazda "erga yaxshi, mustahkam urug'lar qadashdan ortiq savob ish yo'q" degan. Xudoning bu aytganiga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbanlikka so'yishdan afzal hisoblangan. Zardushtiylikning bu g'oyalari milliy o'zlikni anglash jarayoniga, milliy ruhiyatni shakllanishiga, uning dono o'gitlari ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikka va vatanga, xalqqa ulug' muhabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketgan. Zardushtiylik e'tiqodicha, odam o'lgandan so'ng uning joni uch kun davomida tanada turar ekan, to'rtinchchi kunda u o'z mahrami – farishtasi yo'lboshchiligidagi narigi dunyodagi "CHinvot" degan ko'priordan o'tishi kerak. Ezgu ishni qilgan odamlar uchun bu ko'pri kengaygan holda turadi. Ular undan bemalol o'tib, umrlari abadiy rohat-farog'atda o'tadi, ohiratda o'liklar tiriladigan kunda o'z tanalariga kirib yotadi. YOzuv ishlar bilan shug'ullanganlar uchun "CHinvot" qilday torayar va ular jahannam azoblariga mahkum bo'lar ekanlar.

YAtlar va YAsnalar 3 qatlamdan iborat: birinchisi xalq do'stonlarining Zardushtgacha bo'lgan qo'shiqlari (she'rlari), ikkinchisi Zardusht Xat (noma'lari) va uchinchi Zardusht Halok bo'lganidan keyingi kitob holiga keltirilgan va Kichik Avesto nomi bilan yuritiladigan qismidir. Demak, "Avesto"ning ilk va kichik

(keyingi) qismlardan uning asosiy qismi zardusht Nomalarini farqlash lozim. Bu Nomalar ko‘p xudolikni, o‘tga va tabiatning stixiyali kuchlarga sig‘inishni qoralab, yakka xudolikka e’tiqod qilishni talab etgan. Hozirgacha bo‘lgan ilmiy adabiyotlardagi farqlar ko‘prok “Kichik Avesto”ga asoslanib bildirilgan. Bunday yakka xudolik g‘oyalari ko‘p xudolik e’tiqodlari bilan qorishib ketgani uchun tadqiqotchilar zardushtiylik ko‘p xudolik yoki ikki xudo dini sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlar zardushtiylikning uchinchi yo‘nalishi – ko‘p xudolilik bilan yakka xudolilik qorishmasidan iborat mazdayizm bilan aralashtirish oqibatidir.

Zardushtgacha bo‘lgan Oxura, Mitra, Mazda, Onaxit va boshqa xudolar haqida boshqa fikrlar bo‘lgan. Ammo ular odamlardek hayot kechirgan bo‘lsalar, Zardusht talqinida Oxura Mazda Oliy ibtido bo‘lib, uning na xotini, na bolalari bor. U hamma mavjudotlarni yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida, ezgulikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etuvchi Oliy ruh sifatida namoyon bo‘ladi.

Eron shohlari o‘z imperiyalarini barqaror qilishda zardushtiylikning o‘rni va roliga to‘g‘ri baho berganlar. Biroq bu dindagi o‘rtahol dehqonchilik, mo‘tadil, kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiyashtirib, quldarlik munosabatlarini qorash ularga yoqmaydi. SHuning uchun Eron shohlari zardushtiylikni Zardusht payg‘ambargacha bo‘lgan va YAqin SHarqda ham keng tarqalgan ko‘p xudolilik g‘oyalari bilan yaralashtiradilar. Zardusht o‘rniga o‘zlarini xudo vahiyalarini odamlarga etkazib turuvchi payg‘ambar o‘rniga qo‘yadilar. “Kichik Avesto”da Oxura Mazda olamni yaratuvchi va tartib o‘rnatuvchilikdan ko‘ra ko‘proq qabilaviy xudolarni boshqaruvchi Bosh xudoga aylantirib qo‘ygan. Ahamoniylar Gretsiyani bosib olish uchun olib borgan urushlari (bunda Markaziy Osiyodagi turk jangchilari katta rol o‘ynagani uchun Iskandar Zulqarnayn ulardan qasos oladi) hamma greklarning Eron va Turonni ishg‘ol etishi oqibatida Oxura Mazda qadimgi Gretsiyada bosh xudo Zevs, Aflatun (Platon) sifatida tahlil etila boshlaganiga tadqiqotchilar e’tiborini qaratadilar Ahamoniylar zardushtiylikni o‘z e’tiqodlariga bo‘ysundirgan bo‘lsalar, Iskandar bu dinni butunlay yo‘q qilish uchun unga oid yozuvlarni yoqtirib yuborgan.

Zardushtiylikning asosiy g‘oyalari olamdagи barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashga bog‘liq. Dunyodagi barcha ezguliklarni Oxura

Mazda, yomonliklarni Axriman ifodalaydi. Bu kurashda odam asosiy kuch va asosiy rolni o'ynaydi. U tanlash erkinligiga ega bo'lib o'z g'ayrati bilan bu dunyodaadolat topishiga ta'sir eta oladigan kishidir. Demak, hozir ham kimki, o'zining irodasi, aql-zakovatiga ishonib, uni ishga solsa, o'ziga biron kasbni tanlab olsa, g'ayratli bo'lsa,adolatsizlikka kuch kelsa, unga qarshi kurashsa aslo kam bo'lmaydi,adolatning tantanasiga erishadi.

Zardushtiylikning hozirgi davr kishilari, jumladan talabalar uchun ahamiyati shundaki, unda odamlar doim pokiza yurishga, badanni toza tutishga, har qanday yovuz niyat va haqoratli, asabbuzar so'zlarni aytmaslikka, oila kurish va uni saqlashga, ota-onva farzandlarga g'amho'r bo'lishga, shaxsiy hayotda mo'tadir bo'lishga, ya'ni xar bir hatti-harakatlarni buzmaslikka da'vat etuvchi qoida, nasihat, o'gitlar bayon etilgan.

"Aveto"ning muqaddas kitoblarida qadimgi dunyo falsafasining 4 asosi (substansiyasi) tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifoslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shilgan. Hatto marhumlarning mурдалари erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularni jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Oxura Mazda "erga yaxshi, mustahkam urug'lar qadashdan ortiq savob ish yo'q" degan. Zardushtiylikning vazmin, musiqa bilan uyg'unlashib ketgan dono o'gitlari ona zaminga dehqonchilik, chorrachilik, xunarmandchilikka va Vatanga, xalqqa ulug' muhabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketgan. Bu hol unda diniy mazmunga qaraganda dunyoviy elementlar ko'p bo'lganidan dalolat beradi.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ayniqla ulkan qudrat bilan namoyon bo'lgan. Boychechakning chiqishi, lolaqizg'aldoqning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan birga butun tabiatning go'zallashib borishi ezzulik ruhining tantanasi bo'lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo'lgan. Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

"Avesto"ning Yat qismida odamlar halol mehnat qilishga, o'z qo'li bilan moddiy ne'matni yaratishga, boqimanda, tekinxo'r bo'lmaslikka, bularga yo'l qo'y may vijdanan yashashga da'vat etilgan.

Zardushtiylikda diniy dasturlar haqidagi g‘oyalar bilan birga real, junyoviy, hozir ham foydali nasihat, tavsiya, cheklash, ta’qidlash, rag‘batlantirishga doir o‘git va da’vatlar ko‘p bo‘lgan.

#### 4. Johiliya davridagi diniy-falsafiy g‘oyalar

Johiliya so‘zning lug‘aviy ma’nosи arabcha “jahula” so‘zidan olingan bo‘lib, (bilimsizlik), johillik, nodonlik ya’ni “yagona Alloho tanimaslik” ma’nosini anglatadi. Johiliya davri ma’naviy va ijtimoiy hayotda ana shunday johillik, nodonlik xususiyatiga ega kishilar Islomdan oldingi davrda yashaganlar.

Johiliya davri mazmun-mohiyatini tushunish va tasavvur qilish uchun o’sha tarixiy davr V-VII asrlarga xos xususiyatlar, arab qabilalari o‘rtasida hukmron bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар va ularning diniy-g‘oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi.

Johiliya davrining xususiyalaridan biri shunda ediki, bu davrda arablar orasida ko‘p xudolik hukm surar, har bir qabilaning sig‘inadigan o‘z sanamlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos e’tiqod qilish tartib-qoidalari shakllangan edi. Bu davrdagi arablarning ma’naviyati tubanlashib xalqlar orasida mayparastlik, axloqiy buzuqliklar o‘rin ola boshladi. Eng nohush va dahshatli odatlaridan biri qizlarining tiriklayin ko‘mish ham ana shu johiliya davrida tadbiq qilingan.

V-VI asrlarda, hatto VII asr boshlarida arab qabilalari o‘rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Arabiston yarimorolining iqlim sharoiti noqulay qumli sahrolar va tog‘lardan iborat bo‘lib, ko‘chmanchi aholisi chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. Yarimorolning nisbatan yaxshi iqlim sharoitiga ega bo‘lgan qismida joylashgan. Yaman qadimdan rivojlangan qishloq xo‘jalik va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Ammo yarimorolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda ko‘chmanchi – chorvachilik bilan shug‘ullanib, hayot kechirayotgan arab qabilalari o‘rtasida quldorlik munosabatlari endigina rivojiana boshlagandi. Yamanda esa quldorlik tuzumi taraqqiy etgan, so‘nggi quldorlik davlati bo‘lgan Xim’variylar podsholigi eramizning II asrda tashkil topgan va VII asr boshlarida tanazzulga yuz tutgan. Lekin yarimorolning boshqa hududlari – suvsiz sahrolardan iborat bo‘lganligi sababli o‘troq dehqonchilik faqat va ayrim joylarda

sahrolar o'rtasidagi onda-sonda uchraydigan kichik vohalardagina birmuncha taraqqiy etgan edi. Bu erlarda dehqonchilik ham noqulay iqlim sharoiti tufayli har tomonlama cheklangan edi, asosan xurmo va arpa etishtirilardi.

Yarimorolning cheksiz sahrolarida yashovchi, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari – badaviylar bundan ham og'ir sharoitdayashar edilar. Ular ijtimoiy taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, taraqqiyotning urug'-qabilachilik bosqichida edilar. Manbalarning ko'rsatishicha, VI asr ohiri – VII asr boshlarida, ya'ni islom vujudga kelishi arafasida turli arab qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil bo'lmay, qiyin ahvolda hayot kechirayotgan qabilalar ko'pchilikni tashkil etar edi.

Qadimiylar taraqqiyot markazi bo'lgan YAmanda rivojlangan quldorlik tuzumi hukmron bo'lib, yarimorolning shimoliy qismida joylshgan Vizantiya hamda Eron kabi qadimiylar imperiya ta'siri ostida bo'lgan hududlar savdo munosabatlari endigina rivojlana boshlagan, sahrolarda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan arab qabilalari o'rtasida patriarchal, urug'-qabilachilik tartibi hukmron edi. Bu tartiblarni emirlishi va sinfiy munosabatlarning tarkib topishi davri endigina boshlangan edi.

Og'ir iqlim sharoiti va ishlab chiqaruvchi kuchlar zaif rivojlanganligi sababli Arabiston yarimorolida yashagan ko'pchilik qabilalar taraqqiyot jihatidan Misr, Vizantiya, Mesopotamiya kabi qadimiylar madaniyat markazlari aholisiga nisbatan ancha orqada qolib ketgan edi. YArimorolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'y lab cho'zilgan va Hijoz deb nom olgan hudud bu davrda iqtisodiy jihatdan birmuncha rivojlangan. Buning sababi suvli vohalarda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lganidan va janubdan shimolga tomon qadimiylar karvon yo'li o'tganligida edi. Tarixiy manbalarga ko'ra, VI asr o'rtalarida bu yo'l janubda Yaman orqali Ha'bashiston va Hindiston bilan, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eron bian bog'langan. O'z davri uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan Hijozdagi ayrim aholi manzillari, shaharlar, xususan, yo'l ustida joylashgan Yasrib (Toif) shahri, VII asrda ancha kengaygan va gavjum savdo markazlariga aylangan edi.

Johiliya davridagi arab qabilalarining faqat iqtisodiy jihatdangina emas, balki ijtimoiy jihatdan ham tengsizligi ular o'rtasidagi munosabatlarning murakkab va qiyin ahvolga tushishiga sabab bo'ldi.

Badavlat qabilalar iqtisodiy jihatdan zaif qabilalarga o‘z tasirlarini o‘tqazib, ularning arzon mehnatidan foydalanishdan tashqari ijtimoiy hayotda hukmronlikka ham da‘vo qilganlar.

Bu davrdagi oila, nikoh, ijtimoiy munosabatlар, farzand ko‘rish, tarbiyalash masalalari, diniy e’tiqod, pul munosabatlari (sudho‘rlik), maishiy buzuqlik va boshqa sohalarda ham qiyinchiliklar ziddiyatlar bo‘lganki, ular haqida keyingi sahifalarda batafsил to‘htaymiz.

### **5. Johiliya davrida ko‘p xudolik va arablar ma’naviyati**

Makka savdo markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, atrofdagi qabilalarga boshqalarga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatar edi. Makkada Ukaz nomli katta bozor joylashgan edi. Arab qabilalari o‘rtasida diniy markaz sifatida roli ancha oshgan edi. Makkada Ka‘batulloh ibodathonasi turli arab qabilalarining 360 xudosinini sanab, ya’ni budchalari mavjud bo‘lgani tufayli bu shahar o‘z atrofida yashovchi ko‘p qabilalar uchun e’tiqod markazi-ziyoratgohga aylangan edi.

Ka‘ba – islom dinida eng muqaddas hisoblangan va “Allohning uyi” “Baytulloh” deb nom olgan ibodathona. U kub shaklida, kulrang toshdan qurilgan bo‘lib, unda islomda muqaddas hisoblangan qoratosh – “al-Hajar al-asvad” joylashtirilgan. Ka‘ba musulmonlar uchun qibla hisoblanadi va qibлага qarab namoz o‘qiladi.

Ka‘ba islom vujudga kelmasdan bir necha asr ilgari mavjud bo‘lgan. Eramizning II asrida yunon sayyohlari u erda bo‘lib, bu ibodathonani va atrofidagi kichik manzilgohni ko‘rganliklari haqida ma‘lumot qoldirganlar. Ka‘ba ibodathonasi o‘sha erda mavjud bo‘lgan va suvsiz sahroda arablar uchun najot manbayi sifatida “Zam-Zam” bulog‘i bilan bog‘liq holda vujudga kelgan, degan taxminlar mavjud. Bu buloqni yaratish uchun xudoga ibodat qilib, shu erda qurbanlik qilish arablar o‘rtasida qadimdan rasm bo‘lgan va bu hodisa Qur‘onning “Al-Kavsar” deb atalgan 108 – surasida ham o‘z ifodasini topgan.

Demak, islom vujudga kelmasdan 400-500 yil ilgari ham muqaddas hisoblangan “Zam-Zam” bulog‘i va u bilan bog‘liq ravishda vujudga kelgan Ka‘ba ibodathonasi VII asrning 30-yillarida va yangi dinda eng muqaddas joy deb e’tirof etilgan.

V-VII asrlarda Makkada arablarning quraysh qabilasi hukmron bo'lib, bularning yuqori tabaqalari savdo-sotiq avj olishi natijasida ancha boyib ketgan; pul muomalasi, sudho'rlik rivojlangan, shuningdek, qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalanish ham ancha kengaygan.

SHarqshunos olimlarning tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, qadimiy Yamanni istisno qilgan, Arabiston yarimorolida yashovchi qablalar uchun V-VI asrlarni iqtisodiy urug'-qabilachilik tuzumi emirila boshlagan va quzdorlik munosabatlari vujudga kela boshlagan davr, deb tavsiflash mumkin va lozim. O'sha davrda kuchli imperiyalar bo'lgan Vizantiya va Eron o'ttasida Yamanni qo'lga kirtish va karvon yo'llarida o'z hukmronligini o'rnatish uchun kurash davom etgan. Yaman sosoniyalar hukmronligiga o'tgan davrlarda (572-628 yilar) Eron ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan yel tez rivojlanan boshlagan va shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan karvon yo'li inqirozga uchragan. Bu hol faqat Hijoz shaharlarigagina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan va Arabistonda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning boshlanishiga sabab bo'lgan. Savdodan keladigan daromad kamayib ketishi natijasida quraysh zodagonlari o'ttasida sudho'rlik avjga chiqqan; qullar, kambag'allarni ezish kuchaygan Makka va Hijozning boshqa shaharlarida mazlumlar bilan zolimlar orasidagi qarama-qarashiliklar keskinlashgan. Bir tomondan, qul egalari bilan qullar o'ttasida, ikkinchi tomondan, qabila zodagonlariga nisbatan oddiy mehnatkashlarning noroziligi kuchaygan. Qabilalarning yuqori tabaqalari, ayniqsa, Makka zodagonlari qo'shni mamlakatlarni bosib olib katta boylik, o'ljani qo'lga kiritish va shu orqali hokimiyatni mustahkamlash, iqtisodiy inqirozdan qutilish haqida tez-tez o'yay boshlaganlar. Ammo tarqoqlik va kelishmovchiliklarga barham berish, uchun barcha arab qabilalarini, ularning iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona davlatga birlashtirish zarur edi.

Markaziy va SHarqiy Arabiston yarimoroli sahrolarida yashagan arab badaviylari o'ttasida ibtidoiy tuzumga xos bo'lgan politeistik majusiylik diniy tasavvurlari hukmron edi.

V-VI asrlarda bu qabilalarning diniy e'tiqodlari totemizm, fetishizm va animizm kabi diniy tasavvurlarning qorishig'idan iborat edi. Ko'p qabilalar alohida toshlarga e'tiqod qilar, insonga yordam beradigan ezgu ruhlar, yovuz va ayyor shaytonlar to'g'risidagi

tasavvurlar keng tarqalgan edi. Har bir qabila o‘z xudosining sanamiga sig‘inar, topinar edi. Bu xol dinshunoslikda ko‘p xudolikning arablarga xos ko‘rinishi deb, tavsiflangan. Qur’onda bunday e’tiqod shirk deb nom olgan. Bundan tashqari arab qabilalari o‘rtasida Quyosh va Oyga topinish ham mavjud edi. Bu yoritgichlarga topinish qadimiy Bobil (Vavilon)dan kelib chiqqan bo‘lib, bu e’tiqod keyinchalik ko‘p halqlar o‘rtasida tarqalgan.<sup>43</sup> Buning ta’siri ostida o‘rtasida asrlarda SHarq va G‘arb xalqlari o‘rtasida astrologiya degan asosan diniy ta’limot sistemasi – SHarq “ilmi nujum” vujudga kelgan.

Ilmi nujumga asosan turk xalqining ham ilk davrlarida Oyxon, Yulduzzon, Kunxon, Kuntug‘mish, Oyto‘ldi, Oysuluv, Kunsuluv, Kuntug‘di kabi ismlar qo‘yilgani va ulalining ba’zilari hozirgacha etib kelgani ma’lum. Kunchiqar –Sharq, Kunbotar –G‘arbni bildirgan. Yoki yil davomida quyosh aylanadigan falak doiralarining har biri turkiy nom bilan atalgan: Qo‘zi-Hamal, Ud-Savr, Erangiz-Javzo, Quchiq-Saraton, Arslon-Asad, Bo‘g‘doyboshi-Sunbuma, Ulg‘u-Mezon, Chayon-Aqrab, Yoy-Qavs, O‘g‘loq-Jadi, Qo‘noq-Dalv, Bاليq-Hutdir. Demak, ilmi nujumga e’tiqod qilishning qadimgi turkiy xalqlar hayotida ham muayyan o‘rin bo‘lgan. Ilmi nujumga binoan sayyoralar va yulduzlarning holatiga qarab voqeа va hodisalarни oldindan aytib berish mumkinligiga e’tiqod qilingan. Bu bilan shug‘ullanuvchi astrolog (munajjim)lar saroylarda muhim mavqega ega bo‘lganlar. Ana shunday ma‘budalardan uchtasining nomi al-Uzza, al-Lot va Manot Qur’onda ham zikr etilgan. Makkaning o‘z atrofidagi arab qabilalariga ta’sirinig kuchayishi Ka’ba bilan bog‘liq bo‘lgani yuqorida ta’qidlab o‘tildi. Miloddan avval vujudga kelgan bu qadimiy ibodathonada ko‘p qabila xudolarining sanamlari saqlanar edi. Milodgacha arab qabilalari e’tiqod qilgan xudolardan sakkiztasining nomi al-Lot, al-Uzza, Manot, Vadd, Suva’, Yag‘us, Yag‘uq, Nasr Qur’onda ham keltirilgan, sanab o‘tilgan. Arabiston yarimorolida yahudiy, xristian, otashparast va sobiylar ham yashar edilar. Iudaizm YAman arablari o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, VI asr boshlarida xim‘yariylar podshohiligidagi u davlat dini deb e’tirof etilgan. Iudaizmga e’tiqod qiluvchi arab qabilalari Markaziy va

<sup>43</sup> Собийлар – бошца динларга эътиқод килювчилар қатори Қуръонда тилгаолинган; бу злат Қуйи Месопотамиядага яшаган. Мандайлар (баъзи ҳарраллар) ҳам дейилган. Улар осмон ёритичларига сизинганлар.

G'arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham yashar edilar. Bu dinga e'tiqod qiladigan arablar – koptlar hali ham anchagina.

Xristianlik asosan yarimorolning shimoliy qismida – Suriya, Falastin, Mesopotamiya hududida yashaydigan arab qabilalaridan ba'zilari o'rtaida tarqalgan edi. Bu erlar ayrim davrlarda Vizantiya tarkibiga kirgan yoki uning siyosiy tazyiqi ostida bo'lgan hududlar edi. Arab qabilalari o'rtaida ko'pincha xristianlikning ayrim sektalari tarqalgan edi. SHarqshunos olimlarning fikricha, xristianlik Arabistonga G'assoniylar va Laxmiylar davlatlari orqali kirib kelgan.

SHunday qilib, yahudiylik va xristianlik hamda ularning ayrim sektalari islom paydo bo'lishi arafasida arab qabilalari orasida muayyan darajada tarqalgan edi.

**Haniflar harakati.** Hanif arabcha so'z bo'lib, chinakam e'tiqod qiluvchi taqvodor ma'nosini bildiradi. Haniflar o'sha davrda arab qabilalari o'rtaida keng tarqalgan mushrikiylikka qarshi yakka xudolikni, oxiratni yaqinlashib qolganini targ'ibot qilib chiqqanlar.

V-VI asrlarda arab qabilalari urug'-qabilachilik tuzumi emirila boshlagan, ibridoiy diniy tasavvurlar tanazzulga yuz tutgan edi. Qabilalar o'rtaida markazlashishga bo'lgan intilishning g'oyaviy in'iqosi sifatida yakka xudolikka xos diniy aqidalarning kurtaklari shakllana boshlagan. Yakka xudolik to'g'risidagi bunday diniy ta'llimot islomdagina emas, balki u paydo bo'lmasdan birmuncha vaqt ilgari Arabistonning ayrim joylarida targ'ib qilina boshlagan edi. Ammo haniflar harakati, ya'ni ularning arablarni yagona din atrofida birlashtirish g'oyasini muvoffaqiyatli yakunlamagan.

Islomdan ilgari arab qabilalari orasida yakka xudolilik to'g'risida targ'ibot yuritgan, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan shaxslar tarixiy manbalarda "haniflar", ya'ni haq-haqiqat izlovhilar nomi bilan ma'lum. Islomning paydo bo'lishi arab qabilalari o'rtaidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichi bilan bog'liq bo'lgan.

Islom monoteistik din sifatida, ya'ni yakka xudoga e'tiqod qiluvchi ta'llimotni yaratib, unga qadar bo'lgan arab qabilalaridagi ko'p xudolikning barcha ko'rinishlarini shirk deb atab, ularni taqiqlagan.

Islomda, shunday qilib, yagona Allohga, e'tiqod qilish bu diniy ta'llimotning asosini tashkil etgan. Alloh – arabcha so'z bo'lib, o'zbekchaga tarjima qilsak, Tangri degan ma'nosini bildiradi. Forsiyda Xudo deyiladi. Alloh, Tangri, Xudo so'zlariga odatda sifat

qo'shib, Alloh taolo, Xudo Taolo shaklida ham ishlatiladi. Taolo – ulug‘, oliy degan ma'noni anglatadi. Alloh taoloning Qur'onda va Hadislarda qayd etilgan ismlari 99 tadir. Bulardan tilimizda eng ko'p qo'llaniladigan: Rahim – juda rahimli; Rahmon – o'ta mehriboni; Mo'min – omon va omonlik beruvchi; Karim – karamli, sahovatli, kechirimli, Sattor, Akbar buyuk kabi sifatlarida qo'shib aytildi.

"Hanif" atamasi Ibrohim bilan bog'langan holda tilga olingan o'rnlarda ham, o'zi alohida kelgan joylarda ham "Haqiqiy musulmon", "astoydil e'tiqod qiluvchi" ma'nosida tushunilganligi ravshan. SHuning uchun bo'lsa kerak, keyingi davr islom an'anasida bu atamani "musulmon" atamasi bilan bir ma'noda tushunish odat bo'lib qolgan. Aslida islomda musulmon shaxsni anglatdi. O'tgan asr o'rtalarida Qozonda bosilgan Qur'onning 3- surasi 89 – oyatga berilgan izohda "hanif hozirgi musulmonning o'zidir", - deyilgan.

"Hanif" atamasi faqat Qur'onga xos bo'lmasdan, u islom din sifatida vujudga kelmasdan ancha ilgari ham yakka xudoga e'tiqod etishni targ'ib qiluvchi shaxslarning nomi sifatida ma'lum bo'lgan. Yakka xudolilik qabilalari o'rtasida ma'lum bo'lgan. Bu qabilalarning nomi ham "banu xanif" o'rtasida ham qandaydir mazmunan bog'lanish bo'lishi mumkin. Allohning cheksiz qudrati haqida Qur'oni karimning 55 – Ar –rahmon surasida o'z ifodasini topgan, ya'ni "Ar-rahmon" Allohning go'zal nomlaridan biri. Surada Alloh Taolo insoniyat va jinlarga bu dunyo va ohiratda ato etgan va etajak ne'matlardan ba'zilarini eslatib, o'ttiz bor: "Bas, Rabbingizning qaysi bir ne'matlarini inkor etasizlar?! - deb ularga xitob qilgan".<sup>44</sup>

Arab qabilalarini yagona din atrofida birlashtirish va yakka xudolikka e'tiqod qilishdan iborat bo'lgan haniflar orzusi faqat Muhammad payg'ambar davrida islom dinini vujudga kelishi va qaror topishi bilan amalga oshdi. Shuning uchun Muhammad ibn Abdulloh – din da'vatchisi va davlat arbobidir.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. William L.Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning, 2007. R. 1-2

<sup>44</sup> Қуръони карим. Тажримаси ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Мъсул мухаррир Ҳамидulla Қароматов. –Т.: 2001.- 6.531.

2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. –T.: O‘zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.
4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. Darslik. –T.: Mehnat. 2004.

### Mustaqil ish

1. Ibtidoiy dinlarning shakllanishi, turlari va ularning o‘zaro aloqadorligi. (Referat tayyorlash)
2. “Avesto”da diniy-falsafiy masalalar va inson masalasi (Taqdimot tayyorlash);
3. Mustaqillik yillarda “Avesto”ning tiklanishi va o‘rganilishi (taqdimot tayyorlash);
4. Din falsafasi genezesi: shakllanishi va taraqqiyoti (Ibtidoiy dinlar misolida) (Referat tayyorlash);
5. Ibtidoiy din va ularning turlari (Plakat tayyorlash);
6. Diniy ong tushunchasi va uning ibtidoiy dinlarda namoyon bo‘lishi (Krassvord tayyorlash).

### Glossariy

**Ibtidoiy faylasuf** – evolyusion pozitivistlarning chiqargan xulosasiga ko‘ra, borliq va koinot haqida fikrlar yuritib, dinning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan ibtidoiy odam.

**Totemizm**- so‘zi SHimoliy Amerikada Ojibva qabilasi tilida “uning urug‘i” ma’nosini anglatadi.

**Animizm**- lotin tilida “anima”- ruh, jon ma’nosini anglatadi. Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiyashtirish, hayvonot, o‘simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong tabiat, qudrat borligi ta’limoti ilgari surilgan.

**Shamanizm**- so‘zininng tungus tilidagi ma’nosi sehrgarlik, sehr, afsun, magiya so‘zları to‘plamidir.

**Avesto** – (qad. eron-pahlaviy. «o‘matilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

**Atarxurra** – (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

**Axriman** – zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyoti.

**Axuramazda** – zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyoti.

**Johiliya**-(arab. «jahula»-bilimsizlik ma’nosini bildiradi). Islomda «yagona Alloho ni tanimaslik» ma’nosini anglatadi. Arablarning

islomdan oldingi hayoti.

**Jabroil**-islomda to‘rt bosh farishtadan biri, diniy aqidaga ko‘ra xabar beruvchi farishta hisoblanadi.

**Islom ma’naviyati** – islom ta’limotiga asoslangan urf-odat, marosimchilik, an'analar, odob-axloq normalaridan iborat ma’naviy-madaniy tizim.

**Ijmo’** – (arab.-yakdillik bilan qabul qilingan qaror)-islomda faqih va mujahidlarining to‘planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi.

**Monoteizm**-(qad. yunon. «mono»- «yagona», «teo»-xudo) yakkaxudolik.

**Me’roj**-(arab.-parvoz, ko‘tarilish)-islomda Muhammad(s.a.v.)-ning osmonga, Alloh oldiga qilgan parvozi.

**Magiya**-(qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.

**Movarounnahr**-arablar ikki daryo oralig‘idagi bizning xududni shunday deb ataganlar.

**Masjid**-musulmonlarning jamoa bo‘lib, ibodat qiladigan joyi. nomaqbul hisoblangan xatti-harakatlar.

**Maxzura**-(arab.-man etilgan narsa) musulmonlar uchun qat’iy taqiqlangan xatti-harakatlar.

**Ma’rifat**-ziyo tarqatish

**Nestorianchilik** Vizantiyada V asrning boshlarida xristianlikda vujudga kelgan

**Makruh**-(arab. – rad etilgan, qoralangan) shariatda qat’iyan taqiqlangan oqim.

**Qabila**-qadimgi urug‘-qabilachilik davrida odamlar guruh-guruh bo‘lib yashaganlar, katta va kichik qabila shaklini olganlar.

**Qadriyatlar**-insoniyatning tarixan yuzaga keltirgan ma’naviy-madaniy boyliklari qadriyat hisoblanadi. Diniy qadriyatlar esa har bir dinning muqaddas kitoblari, ta’limotlari bilan bog‘liq holda izohlanadi.

**Qur’on**-(suryoniylar «kerain»-«muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Qadimgi dunyo odamlarida dastlabki diniy ong mazmuni.

2. Ibtidoiy din shakllarining diniy ongni dastlabki bosqichlarini shakllantirishdagi roli.
3. Zardushtiylik ta'limotidagi diniy-falsafiy g'oyalar.
4. "Avesto"ning xalqimiz tarixiy-madaniy manbai ekanligi.
5. Mustaqillik yillarda "Avesto"ning o'r ganilish va takomillashuvi.
6. Johiliya davridagi diniy e'tiqod shakllari.

### Test

**1. Dinning ilk dastlabki shakllarini izoxlab bering.**

- A) Poleteistik (ko'p xudolik) dirlari
- B) Iudaizm, zardo'shiylik, buddizm
- C) Parilar, jin va shaytonlar, devlar va alvastilarga sig'inish
- D) Totemizm, fetishizm, animizm, animatizm, magiya, shomanizm

**2. Quyidagi dirlarning qaysi turkumi qadimiylar sirasiga kiradi?**

- A) Fetishizm, iudaizm, zardo'shiylik
- B) Totemizm, fetishizm, animizm, zardo'shiylik
- C) Sehrgarlik, islam, buddizm, xristianlik
- D) Buddaviylik, xristianlik, islam

**3. Fetishizm nimani ilohiylashtiradi?**

- A) Hayvonlarni
- B) Odamlarni
- C) Moddiy narsalarni
- D) Parrandalarni

**4. Animatizm nimani ilohiylashtiradi?**

- A) Ruhiy olamni
- B) Jon va ruhni
- C) Barcha tirik mavjudotlarni
- D) Dengiz va tog'larni

**5. Zardo'shiylik qaerda paydo bo'lgan?**

- A) Xorazm vohasida

- B) Eronda
- S) Movarounnahrda
- D) Yaqin va O'rta Sharqda

**6. Zardushtiylik dinining paydo bo'lish va uning muqaddas kitobi...?**

- A) Movarounnaxrda ilgarigi dinning mayda bo'limi, tasavvurla va ko'p xudolikka asoslangan diniy e'tiqodlar asosida paydo bo'lgan
- B) Bu dinning asoschisi Zardusht hisoblanadi
- C) Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – «Avesto» 1200 bobdan iborat
- D) Movarounnaxr iqlimi, geografik joylashganligi bu dinning kelib chiqishga sabab bo'lgan

**7. «Avesto» ning qayta tiklangan kitoblari qaysilar?**

- A) «Vadovdat», «Zabur», «Injil»;
- B) «Yosin», «Tavrot», «Vedalar»;
- C) «Vedovdat», «Yosin», «Visparat», «Bundaxash»;
- D) «Visparat», «Bundaxsha», «Yosin», «Talmut».

**8. Qaysi evropa olimi Zardo'shtiylik dini xaqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan?**

- A) J.Bruno, F. Akvinskiy;
- B) G. Galeley, J. Bruno;
- C) L. Feyerbax, F. Bekon;
- D) A. Dyupperon, Djon Buger.

**9. Zardo'shtiylik ta'limoti qanday asosiy aqidalarga tayanadi?**

- A) Muqaddas kitobni e'zozlash, duolar o'qish;
- B) Iymon keltirish, savob ishlarni bajarish;
- C) Fikrlar sofliji, so'zning sobitligi, amaldorlarning insonparvarligi;
- D) Zakot berish, qurbanlik keltirish, fikrning ezguligiga.

**10. Zardushtiylikda imon ..... narsaga asoslanadi?**

- A) Ikkita: fikrlar sofliji, so'zning sobitligi
- B) Uchta: fikrlar sofliji, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi.

- C) Ikkita: fikrlar sofligi, amallarning insoniyligi.
- D) Bitta: amallarining insoniyligi.

**11. Har bir zardushtiy kuniga qanday ibodat qilish lozim?**

- A) Kuniga besh marta yuvinib, poklanish.
- B) quyoshaga qarab, uni olqishlab sig‘inish.
- C) Besh martaba nomoz o‘qish.
- D) A va B

## **6 -7-MAVZU. DIN STRUKTURASINING FALSAFIY TUSHUNCHALARI VA TARKIBIY QISMLARI**

### **Reja:**

1. Dinning tuzulmaviy unsurlari va tarkibiy qismlari.
2. E'tiqodning diniy-strukturaviy tushunchasi.
3. Diniy bag'rikenglikning falsafiy tahlili.
4. Bilim va g'oyalar e'tiqodni strukturasining muhim elementlari.

**Tayanch tushunchalar.** e'tiqod, ijtimoiy borliq, diniy iymon, din strukturasi, diniy Teologiya, diniy ideologiya, diniy mafkura, Homa Sapiens, Fir'avn, reinkarnatsiya, sivilizatsiya, diniy bag'rikenglik, diniy iymon, payg'ambar.

### **1. Dinning tuzulmaviy unsurlari va tarkibiy qismlari**

Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. Istilohiy ma'nosini lotin tilidagi "religion" so'zi bilan mos keladi. Soha olimlarining fikricha, din real vogelikdag'i, ijtimoiy hayotdagi narsa va xodisalarmi tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o'ziga hos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir. *E'tiqod* so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, **chuqur**, **mustahkam** ishonch ma'nosini anglatadi. Dinshunoslik darsligida dinga bunday ta'rif berilgan: "Din insonni qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni va qoinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan, ilohiy borliqka ishonch va ishoni shni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'lilotdir".<sup>45</sup>

Demak din, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishoni shni tushuniladi. Illohiyt, ya'ni diniy ta'lilot nuqtai nazaridan "din", "diniy e'tiqod" tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma'nosini, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan bir "to'g'ri", "haqiqiy", "odil" hayot

<sup>45</sup> Диншунослик (дарслик). Тошкент: "Меҳнат" - 2004.-б.11.

yo'llarini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Ma'lumki din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mavjudligi ham ijtimoiy borliq bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayot jamiyat tabiat orasidagi birlikning muayyan ko'rinishi bo'lgan hukmron ishlab chiqarish usulining taraqqiyot darajasiga asoslanadi. Demak, ijtimoiy borliq, bir tomondan, jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikni, ikkinchi tomondan, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatni qamrab oladi. Diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ana shu munosabatning muayyan shakllarining in'ikosidir.

Ijtimoiy borliq ko'p shakllarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. SHunday ekan, uning in'ikosi hisoblangan ijtimoiy ong ham turli shakllarga, jumladan diniy ongga bo'linadi. "Din" atamasining kelib chiqishning tarixiga e'tibor qaratsak, u qadimiy somit va yahudiy tillaridan kelib chiqib, shu ko'rinishda arab tiliga o'tgan. Hozirgi paytda "din" atamasi orqali muayyan dunyoqarash, his-tuyg'u, tasavvur va urf-odatlar asosida odamlar, ularning uyushmalari va marosimlar, xalqlar va millatlarning yaqinlashuvi, ma'naviy, jumladan axloqiy qarashlardagi hamfikrlilik anglashiladi nuqtai nazaridan din "Alloh yo'li" dir. Diniy iymon va e'tiqod esa shu yo'ning to'g'riligi, haqligiga ishonchdan iborat bo'lgan ruhiy holatdir.

Dindor o'z tasavvurida o'zining toat-ibodatga oid harakatlari orqali ilohiy kuch bilan bevosita aloqa bog'lanish o'rnatadi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatları orqali namoyon bo'lganligi uchun ular dinning elementlari (qismlari) deb ataladi. Bu tarkibiy qismlar bir-birlari bilan uzviy bog'liqidir; dinding mavjudligi bu tarkibiy qismlarning hammasini taqozo qiladi. Dinning tarkibiy qismlari orasida diniy ong, dinniy tasavvurlar etakchi o'rin egallaydi. Binobarin, diniy marosimlar, diniy birlashmalar, esa diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va uzoq davrlarda yashashi uchun hizmat qiladi.

Dinning strukturasi – diniy ong, diniy ibodat va diniy tashkilotlar birligidan iborat murakkab ijtimoiy tuzumidir. Diniy ongni o'zi ikki bir-biriga bog'liq va ayni paytda mustaqil darajadagi hodisa sifatidagi diniy psixologiya va diniy ideologiyani qamrab oladi.

Diniy psixologiya – bu butun diniy ommaga xos tasavvurlar, sezgilar, kayfiyatlar, urning-odat, an'analar bilan bog'liq muayyan diniy g'oya tizimining umumbirligidan iborat.

Diniy ideologiya esa – bu diniy tashkilotlarda hizmat qiluvchi diniy hayotdagi ruhoniylar (bogoslovlari) tomonidan ishlab chiqqan va targ'ibot qilingan u yoki bu darajadagi g'oyalar tizimidir.

Diniy mafkuraning vujudga kelishi va shakllanishi sinfiy jamiyatda ro'y bergan aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralishi va buning natijasida vujudga kelgan dastlabki qohinlar, keyinchalik ruhoniylar faoliyatları bilan bog'liq. Ular o'z g'oyaviy faoliyatlarida diniy mafkurani yaratadilar va buni asoslash, targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar.

Dinning strukturasi ta'rifi, uning tarkibiy qismlari, diniy ong darajalarini bilishning ilmiy, amaliy ahamiyati shundaki, u kishilar hayotidagi diniy va diniy bo'limgan harakatlarni bir-biridan farqlash, ularga alohida-alohida yondashish imkonini beradi.

Din bilan idealistik falsafa ko'p jihatdan bir biriga yaqin turadi. Har ikkalasi moddiy olamning mavjudligini, uning paydo bo'lish sabablarini shu moddiy olamdan tashqarida deb biladi.

Dinda olamni yaratuvchi xudo yoki xudolar hisoblansa, idealizm "mutlaq g'oya", "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql" va shu kabi ma'naviy omillarni moddiy olamdan ustun qo'yadi. Atsni vaqtida, bular bir-birlaridan jiddiy farqlanadilar. Dinda oldin e'tiqod, so'ng mantiq bo'lsa, falsafiy idealizmda oldin mantiq, so'ng ishonch ilgari suriladi.

Jamiyat rivojida vujudga kelgan din tarixiy va ijtimoiy hodisadir. U ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, ma'lum bir sabablarga binoan vujudga kelgan.

G'ayritabiiy kuchlarga ishonish shaklidagi dastlabki diniy qarashlar, urug'chilik tuzumining ilk davrlarida paydo bo'la boshlagan. Bundan 40-50 ming yil ilgari oldin jamiyat bo'lib yashashga o'tgan "Aqlli odam" – Homa sapiens odam zoti davrida bu tasavvurlar yanada chuqurlashgan. Ular tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosi, barcha narsa va hodisalar qudratli va sehrli karomatga ega degan tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan totemizm, animizm, fetishizm, magiya, ya'ni sehrgarlik kabi tushunchalarni kengaytra borganlar. Dinning mazkur ibtidoiy shakllarining

elementlari hozirgi zamон jahon dinlarida ham qisman saqlanib kelmoqda.

Dinning strukturasi va tarkibiy qismlari hozirgi davrdagi dinlarda bo‘lgani kabi muayyan tartibga tushgan holatda bo‘lmagan. Diniy tasavvurlarni mustahkamlash bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar (dinnig tarkibiy qismlari) har bir tarixiy davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyot darajasi asosida shakllangan. Din va unga e’tiqod qilish faqat dindorlar ehtiyojini qondirish emas, balki jamiyat rivoji, shu jumladan davlat tuzulishi va boshqarishiga o‘z ta’sirini ham o‘tkazgan. Misrda eramizdan oldingi IV-III mingyillikda Fir’avnni ilohiy qudratga ega bo‘lgan xudo, quyosh darajasiga ko‘targanlar. Fir’avn xudo o‘g‘li hisoblanib, mamlakatni gullab-yashnashi xalq hurramligini ta’minlovchi ilohiy kuchga ega bo‘lgan obrazda tasavvur qilingan.

Misrning antik davriga xos bunday animistik e’tiqodga asosan o‘igan odamning ruhini turli holatda bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bu birinchi navbatda Fir’avnga tegishli deb hisoblanib, unda: “ba” osmonga, quyoshga ko‘tarilgan; “xa” esa tanada qolib, u dunyoda yashashi ham qayta tirilishi (reinkarnatsiya) ham uning yaxshi saqlanishiga bog‘liq deb tushunilgan. SHuning uchun Fir’avn vafotidan so‘ng uning tanasini balzamlashtirishga jiddiy e’tibor berilgan.

Dinning strukturasi va tarkibiy qismlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining xarakteriga muvofiq ravishda shakllangan va rivojlangan. Jamiyat rivojida vujudga kelgan milliy va jahon dinlarining strukturasi va tarkibiy qismlari muqaddas manbalar va yozuvlar asosida shakllangan va mazmun jihatdan boyib borgan. Bu strukturani targ‘ib qilish va kishilar ongiga singdirish turli darajadagi diniy tashkilotlar va ularda din yo‘liga hizmat qiluvchi ma’sul hodimlar tomonidan amalga oshirilgan.

**Diniy tashkilotlar** real-tarixiy sharoitlar, har bir diniy yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlariiga bog‘liq holda turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida diniy guruh, keyinchalik uyushmalar urug‘-qabilachilik jamoalari bilan qo‘silib, barcha jamoa vakillari diniy ibodatlarni birgalikda ado etganlar. Jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida diniy ibodat turlari nafaqat shakl jihatdan, balki mazmun jihatdan ham boyib, kengroq tus ola boshlagan. Diniy ibodatlar din haqida muayyan bilimga (tasavvurga)

ega bo'lgan maxsus kishilar (sehrgarlar, afsungarlar, tabiblar, shomon va boshqalar) tomonidan boshqarilgan. Sivilizatsion taraqqiyotning keyingi bosqichlarida har bir din yo'nalihsining o'ziga xos yirik va salmoqli tashkilotlari: masjid, madrasa, cherkov, diniy uyushma va birlashmalar, xalqaro diniy tashkilotlar vujudga kelib, ularda maxsus diniy kadrlar tayyorlandi. Diniy manbalarning vujudga kelishi va tarkib qilinishi, ular asosida, ya'ni yangi diniy asarlarning yaratilishi din bilan bog'liq muammolarni diniy-falsafiy mazmunida tahlil qilish imkonyatini yaratdi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ibtidoiy jamao tuzumi emirilishi davrida "politeistik", ya'ni ko'p xudolikka asoslangan dinlar paydo bo'lgan. Ishlab chiqarish qurollari va vositalariga xususiy mulkchilik kelib chiqqach, bir necha urug', qabila, elat, xalqlarni birlashtirgan yirik davlatlar vujudga kelgach, yakka xudolik to'g'risidagi diniy tasavvur va ta'lomitlardan iborat bo'lgan monoteistik dinlar vujudga kelgan. Ular qatoriga miloddan oldingi VI-V asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylilik, keyinchalik vujudga kelgan xristianlik, islam kiradi. Hozirgi davrda jahon xalqlari e'tiqod qilayotgan barcha monoteistik dinlarda politeizmning tasavvurlari qisman bo'lsada saqlanib qolmoqda. Barcha jahon dinlari qatori islam ruhoniylari ham jamiyat a'zolarini ma'naviy jihatdan poklash, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, muruvvat singari umuminsoniy qadriyatlarni faytadan tiklashga yordam bermoqda. Bu yordam o'z navbatida hozirgi davrda dinning reguliyativ funksiyasining ahamiyati tobora kuchayib borayotganligidan, din ijtimoiy taraqqiyot bilan hamohang bo'lishga intilayotganligidan dalolat bermoqda.

Islam shariati va tariqati asosida shakllangan strukturada musulmon huquqida inson xulq-atvorining barcha tomonlari qamrab olingan; xususan unda musulmonlar bir-birini ko'rganlarida samimiy salomlashishlari, har bir ishni yaxshi niyat bilan boshlashlari, kattalarni hurmat qilishlari, kichiklarga nisbatan izzatda bo'lishlari uqtirilgan. Bu etnomadaniyatni shakllanishiga olib kelgan.

## 2. E'tiqodning diniy-strukturaviy tushunchasi

E'tiqod mazmun-mohiyat jihatdan keng tushuncha bo'lib, jamiyat rivojining ilk davrlaridan boshlab insoniyatning ongli mehnati jarayonida to'plangan bilimlari asosida shakllana borgan. Sivilizatsion

taraqqiyot natijasida obyektiv olam bilan bog'liq narsa va hodisalar haqidagi dastlabki xulosa va e'tiqod darajasi o'zgarib ya'ni bilimlar bilan boyib borgan. E'tiqod turlari ilmga, san'atga, adabiyotga, tabiatga, ayniqsa, din va uning qadriyatlariga va boshqalarga nisbatan shakllanadi va mustahkamlanadi.

Shunday qilib, e'tiqod har bir aqli raso odamning ongli faoliyati bilan bog'liq falsafiy tushunchadir. E'tiqodni vujudga kelishida inson o'zlashtirgan bilimlar umumiy asos vazifasini bajaradi. Bilimni e'tiqodga aylanishi uchun anglash so'ng uni tushunib etish, bu bilimlarning to'g'ri yoki noto'g'riliqiga ishonch hosil qilish orqali qabul qilingan bilimlar inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni hayotiy sinovdan o'tgan, maqsadli yo'nalishlarga mos bilimlargina e'tiqodni mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Odamning bir yoki bir necha e'tiqod shakliga moyil bo'lishi u shakllangan oila sharoiti, ijtimoiy muhit, jamoatchilik fikri va tarbiya tizimiga bog'liq bo'ladi. Bu omillarning qaysi biri kuchliroq ta'sirga ega bo'lsa, shu e'tiqod turi yosh avlod ongida shakllana boradi. Masalan, yaxshi ibratli muhitga ega bo'lgan oilada tarbiyalangan bola ongida borliq va ijtimoiy hodisalar haqida (chuqur bilimga ega bo'lmasa-da) to'g'ri hayotiy qarashlar kengroq o'rinn egallab, e'tiqodning boshqa turlari ta'siriga berilishi sezilmaydi. Diniy va madaniy madaniyat muhitda tarbiyalangan yoshlar ongida sharqiy axloq va diniy qadriyatlarga moyillik bo'ladi.

Ammo shuni ham hisobga olish lozimki, odamda shakllangan e'tiqod haqida fikr yurtganda e'tiqod turlari orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Chunki, muayyan e'tiqodga ega bo'lganlar ongida, uning boshqa turlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, IGIL Suriyadagi islam davlati jangida katnashayotgan yoshlar xalifalik davlatiga erishish uchun diniy fundamentalistik g'oyalarni asos qilib olgan bo'isalar-da, unda buzg'unchilik, vayronkorlik mayllari kuchlidir. Hamma gap shundaki, odam qaysi bir e'tiqodni o'z hayot tarzi maqsadli yo'nalishi qilib olishiga bog'liq. Ammo diniy-fundamentalistik g'oyalarning islam ta'limotiga aloqasi yo'qligi va imkoniyat uchun g'oyat zararli g'oya ekanligini tushunib etgan jangari yoshlar bu yo'ldan qaytadilar va to'g'ri yo'lga tushadilar.

«E'tiqod» falsafiy kategoriya bo'lib, uning mazmun-ma'nosi qanday komponentlardan tuzilgan to'g'risida aniq ilmiy asoslangan tasavvurga ega bo'lishimiz lozim. Olimlarning fikriga ko'ra, e'tiqodni

yxalit butunga birlashtirib turgan barqaror elementlardan biri - bilimdir<sup>46</sup>. Ma'lumki inson ijtimoiy va ongli faoliyatida muayyan bilim turlarini egallahsga intiladi. Bu bilimlar nazariy yoki empirik mazmundan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Gap shundaki, olingen bilimlarning e'tiqodga aylanishi uchun bir necha bosqichlarni o'tadi. Dastlabki bosqich anglash holati bo'lib, unda bilimning ma'nomazmuniga tushinib etiladi. So'ngra o'zlashtirib olingen bilimlar, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, aylanadi. E'tiqodga aylangan bilim inson amaliy faoliyatini takomillashtiradi. Shunday qilib, inson xulq-atvori va xatti-harakatining finomeni bo'lgan e'tiqod: bilish, baholash, boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Din falsafasi haqida ilmiy qarashlarni shakllantirish uchun, kishilarning qanday e'tiqod turiga moyilligini hisobga olish muhimdir. Chunki, falsafiy ta'limot kabi din falsafasi ham borliqning mavjudligi, rivojlanishi, inson va uning yashashdan maqsadi, ijtimoiy faoliyati haqida mushohada yuritadi.

E'tiqod va diniy bag'rikenglik o'z mazmun-mohiyati bilan falsafiy tushunchalar sifatida individual va ijtimoiy ongda muayyan darajada shakllanadi. Zero, bu ikkala tushuncha o'zaro uzviy bog'liqlikda shakllangandagina ijtimoiy hayotda o'z o'rni ega bo'ladi.

Kishilar e'tiqodida diniy qarashlar, xususan diniy fundamentalistik mayllar ko'proq bo'lsayu, ammo diniy bag'rikenglik bo'imasa, turli konfessiyalar orasida ziddiyatli vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Hattoki, diniy e'tiqod tufayli millatlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelib ba'zan fojiali oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Bu g'oyat muhim masala bo'lgandan birinchi navbatda e'tiqod, iymon, bag'rikenglik kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini, shaxs va jamiyat hayotida tutgan o'rnini ilmiy bilish g'oyat muhimdir.

### **3. Diniy bag'rikenglikning falsafiy tahsilii**

Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) muammosi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, uning zamirida jamiyat

<sup>46</sup> Qarang: Чориев Айвар. Билимдан ғояга, ғоядан эътиқодга. // Ж. Мулоқот. – Тошкент, 2002. – № 2. – 6. 11-12

a'zolarining huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi.

Diniy bag'rikenglik tushunchasi bu-sabr-toqatlilik, chidamlilik, bardoshlilik hamda inson, jamiyat, dunyo haqidagi qarashlarning o'zaro mubohasi usulidir.

Islomiy qadriyatlarning xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotda tutgan bunday ahamiyati haqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb yozadi: «SHarq falsafasining muhim bir qismi bo'lgan islam madaniyatining o'zbek xalqi ma'naviyati tarixida tutgan muhim o'rni shundaki, u odamlarni ahloqiy poklikka, ma'naviy barkamollikka undagan. Umuminsoniy va ma'naviy ahloqiy mezonlarga tayangan holda kishilarni hamkorlikka, totuvlikka, adolatga, mehr-muruvvatga, sahovatga, sabr-bardoshlikka chaqirgan.»<sup>47</sup>

Dinlarning kelib chiqishi bir bo'lishiga qaramay jahondagi xalqlar turli dinlarga, hattoki bir millat vakillari har xil dinlarga e'tiqod qilishi ham mumkin. Diniy ta'limotlardagi mavjud ezgu fikrlar asosida turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar o'rtasida bag'rikenglik tamoyili hukm suradi. Chunki, diniy ta'limotlardagi Xudoga sig'inish, kishilar o'rtasidagi totuvlik, insonparvarlik, mehr-oqibatllilik, vijdoniylilik, halollik, poklik, insof-diyonatllilik kabi talablari shaxs, guruh va jamiyat a'zolari hayotida muhim rol o'ynaydi.

Bag'rikenglik dunyo hodisalarga munosabatlarda, o'tmish va ma'naviy qadriyatlarni baholashdagi mezonlarda, hattoki turli dinlararo muhim masalalarning echimini topishda o'z ifodasini topadi.

Islom manbalarida Qur'on, hadis, ijmo va qiyos asosida ishlab chiqilgan qadriyatlardagi diniy bag'rikenglik g'oyalari asrlar davomida musulmon xalqlari, xususan o'zbek xalqi ijtimoiy-ma'naviy xayotida muhim o'rinni egallab kelgan. Zero, islom dinining aqidaviy, ijtimoiy-huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy-ahloqiy, ko'rsatmalari mazmunida diniy bag'rikenglik tamoyillari alovida ifodasini topgan. Uning 3 jihatiga e'tibor qaratmoqchimiz:

birinchidan, Qur'onda insolarning turli millatlarga va dinlarga mansubligi bir-biridan farq qilishlari tabiiy ekanligi, ammo bu narsa ular o'rtasidagi adovat, nizo va urushlar uchun sabab bo'laolmasligi haqida ko'pgina oyatlar keltirilgan. masalan: Yunus surasi 19, 193

<sup>47</sup> Каримов И.А. Узбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Узбекистон, 1999 – 336.

oyatlar, Shuaro surasi 8 oyat; Xujrat surasi 13 oyat, Naxl surasi 125 oyat; Moida surasi 32 oyat; Niso surasi 75-76 oyatlar. Jumladan, Yunus surasi 99 oyatda «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Er (yuzi) dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo‘lur edilar. Bas, Siz odamlarni mumin bo‘lishga majbur qilasizmi?!» Bu va boshqa oyatlarda Islom dinida majburlash yo‘qligi va boshqa g‘ayridin vakillariga nisbatan adovat qilish yo‘qligi kabi diniy bag‘rikenglik masalalari o‘z aksini topgan;

Ikkinchidan, islom manbalaridan biri bo‘lgan hadislarda xam boshqa dindagi kishilarga nisbatan adovat qilish zulum o‘tkazish, ayniqsa, odam o‘ldirish u qanday millatga va dinga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar kata gunoh xisoblanishi haqida qator xadislar keltiriladi. Bunday gunoh oddiy insoniylig nuqtai nazaridan o‘ta yovuzlik, vaxshiylik, huquqiy jihatdan esa jinoyat hisoblanadi. Demak, odam o‘ldirish faqat bu dunyoda odamlar tomonidan kechirib bo‘lmaydigan jinoyatgina emas, balki oxiratda Alloh tomonidan kechirib bo‘lmaydigan gunohdir. Hozirgi diniy ekstremistarning bunday yovuzliklarini talabalarga tushuntirishda xadislardan namunalar keltirish maqsadga muvofiqdir;

Uchinchidan, diniy murosasozlik va bag‘rienglikning huquqiy asoslari xam ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asrlar davomida xalqimiz xayotida muhim axamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, musulmon qonunchiligi bo‘yicha musulmon davlatiga tijorat yoki boshqa biror sabab bilan kelgan g‘ayridin davlatining fuqarosi xuddi shuningdek, musulmon davlati fuqarosi boshqa g‘ayridin mavjud bo‘lgan davlatlarga borganda omonlik, ya’ni himoyaga kafolat olishi shart hisoblangan. Bu va shunga o‘xhash diniy bag‘rikenglik bilan bog‘liq huquqiy qonunlar al-Marg‘inoniyning Xidoya asarida ishlab chiqilgan. Bu diniy huquqiy asoslар asrlar davomida musulmon va g‘ayridin mamlakatlari o‘rtasida tinchlik-osoishtalik o‘rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy va tijorat ishlarini yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan. SHu bilan birga turli dinlarga mansub davlatlar, xalqlar o‘rtasida ishonch, do’stona munosobatlarni va diniy bag‘rikenglik rishtalarini mustahkamlash va rivojlantirish ishiga o‘z xissasini qo‘shgan.

YUNESKO bag‘rikenglik muammosiga alohida e’tibor berib, 1995-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotida muhokama qilinib, 16-noyabrni esa, har yili YUNESKO a’zolaridan 185 davlat ishtirokida Parijda Bag‘rikenglik Tamoyillari Deklaratsiyasi kuni deb qabul

qilindi. Bu tarixiy hujjat jahon xalqlari hayotida dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bugungi O'zbekistonda 130dan ziyod millat, elatlar vakillari istiqomat qilib islomdan tashqari yana 15 ta diniy konfessiyalar mavjuddir. Xalqlar turli dinlarga e'tiqod qilishidan qat'i nazar, ular o'rtasida do'stlik, hamkorlik, diniy bag'rikenglik hukm surmoqda.

Turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlar hayotida muayyan maqsadlar bo'lib, ularning ayrimlari o'zgarib turadi. Faqat insonda muayyan maqsadni amalga oshirish uchun hosil bo'lgan ishonchga maslak deyiladi. Demak, insonlarni ma'lum vazifalarni bajarishga safarbar etadigan ruhiy birlik maslak bo'lib, unda diniy bag'rikenglik mavjud bo'lmasa aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'llarini belgilash qiyin kechadi.

Din inson zotiga xos bo'lgan ruhiyat, ma'naviy holatdir. Dinning asosiy mohiyatini belgilovchi g'oya ilohiy zot-Yaratuvchiga ishonish va unga sig'inishdir. Turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilar ruhiyatida diniy bag'rikenglik g'oyasi hukm sursa, u holda diniy e'tiqod o'ziga xos muayyan g'oya sifatida umuminsoniy tabiatga ega bo'ladi.

Din inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omildir. Qur'on, hadislar va shariat ahkomlarida shakllangan musulmonlarning haq-huquqlari deb tan olingan fikrlar orqali kishilarda iymon, vijdon, e'tiqod orqali dunyoviy muammolarni hal etishga chorlangan. Buning uchun har bir musulmon o'zi ruhan, vijdongan pok, iymonli va halol bo'lishi kerak degan da'vat islom ta'limotida katta o'rinnegallaydi.

Mustaqillik yillarda diniy bag'rikenglik tamoyillariga zid holda xalqimizning tinch hayotiga rahna soluvchi siyosiy kuchlar, diniy harakatlar ham kirib keldi. Xalqaro terrorizm bilan diniy ekstremizm hozirgi kunga kelib jiddiy muammoga aylandi. Ana shunday sharoitda ham O'zbekiston hukumati diniy bag'rikenglik siyosatini sobit qadam bilan amalg'a oshirmoqda.

#### **4. Bilim va g'oyalar e'tiqodni strukturasining muhim elementlari**

YUqorida ta'qidlanganidek, "e'tiqod" arabcha so'z bo'lib, ishonch, ixlos ma'nolarni bildiradi. Ammo e'tiqod darajasi, mazmun-mohiyati shaxs, guruh va jamiyatda o'ziga xos ma'noda namoyon

bo'ladi. Demak, bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olingandagina e'tiqodga aylanadi. Umuman olganda odamlarni ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylantiruvchi omil hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, e'tiqod bilim va g'oyalarning o'zlashtirgan, hayot sinovlaridan o'tkazgan, ularning to'g'riliqiga ishongch hosil qilgan shaxsni o'z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan tizimdir.

E'tiqodga aylangan bilim va g'oyalarning falsafiy tahlil etganda, ular ijtimoiy amaliyotning natijasi, insonni bilish borasidagi faoliyatining hosisadir. E'tiqod inson dunyoqarashining asosiy komponenti jamligini unutmaslik darkor. E'tiqod bilish, baholash, boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi. Ob'ektiv voqelikdagi turli xodisalar, jarayonlar haqidagi bilimlar e'tiqodning bilish funksiyasining bildirsa, olingen bilimlarga tayanib sodir bo'layotgan o'zgarishlar, hodisalar mohiyatini tushunib olish, baholash funksiyasini tashkil etadi. Uning boshqarish funksiyasi esa, insonni o'z shaxsiy va ijtimoiy faoliyatida xulq-atvori, xatti-harakatiga ko'rsatadigan ta'siri, muayyan maqsad tomon yo'naltirish qobiliyatidan iborat.

Inson hayotida maqsadlar ko'p bo'lib, ularning ayrimlari o'zgarib turadi. Faqat aniq maqsadda bo'lgan g'oya atrofida birlashganlarni maslakdoshlar deyiladi. Maslak asosida muayyan dunyoqarashning bosh va asosiy g'oyalariga ishongan odamlar jamoasi umumiy fe'l-atvori yotadi. Demak, insonlarni ma'lum vazifalarni bajarishga safarbar etadigan g'oyaviy birlik maslak bo'lib, aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'llarini belgilovchi iroda – bu, e'tiqoddir.

Inson e'tiqodi shakllanishiga bilim va g'oyalar xizmat qilishini bilib olganimizdan so'ng shunga e'tibor qaratishimiz lozimki, inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Inson va jamiyatni maqsad (maslak)sari etaklaydigan, harakatga keltiradigan kuch g'oyadir. Demak, g'oya inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-maslak sari etaklaydigan fikrdir.

Umumlashtirib aytganda, muayyan maqsadlar yo'lida birlashib harakat qilishga olib keluvchi, ko'pchilikning e'tiqodiga aylangan asosiy maslak g'oyadir.

Diniy e'tiqod o'ziga xos muayyan dunyoqarash (g'oya) sifatida umuminsoniy tabiatga ega. Din inson zotiga xos bo'lgan ruhiyat, ma'naviy holatdir. Dinning asosiy mohiyatini belgilovchi g'oya ilohiy zot-yaratuvchiga ishonish va unga sig'inishdir. Turli diniy an'ana va qadriyatlarga rioya qilish, shu yo'l bilan narigi dunyoda jannatga tushish, do'zah azobidan xalos bo'lish maqsadidir. Din Yaratganga, taqdirga, oxiratga Xudo belgilab bergen andozalardan chiqmasdan ishonishdir. Bu ma'naviy andozalar-mehnatsevarlik, insonparvarlik, adolatlilik, iymonlilik, insofllilik, odamlarning bir-biriga ishonchi va hurmatidir.

Din-inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Qur'on, hadislardagi g'oyalarda va shariat ahkomlarida shakllangan musulmonlarning burch va vazifalari deb tan olingen fikrlar orqali kishilarda iymon, vijdon, e'tiqod orqali hayot tarzini hal etishga chorlagan. Buning uchun har bir musulmon o'zi ruhan, vijdonan pok, iymonli va halol bo'lishi kerak, degan da'vat islam ta'lilotida katta o'rinn olgan.

Xo'sh, diniy iymon nima? Bu shaxs uchun asosiy orzu diniy ibodatlar, marosimlarni bajarish, diniy ko'rsatmalar asosida hayot yo'nalishini belgilab, real dunyoda baxtiyor bo'lish va oxiratda jannatdan joy olishdir. Ilmiy haqiqatlar atrofida iymon shakllangan shaxslar uchun esa asosiy ideal (yuksak orzu) hayotning ma'nosи real, birdan-bir dunyoda chinakam insoniy munosabatlar, umumiy farovonlik va adolatni qaror toptirish uchun kurashda baxtiyorlikka, el-yurtning izzat-ikromiga sazovor bo'lib, hayotda o'zidan yaxshi nom qoldirib, avlodlar qalbida ularni davom ettirish va ijtimoiy abadiylikka musharraf bo'lishdir.

Insonning ikki mohiyatida kelib chiqadigan va doimo bir-biri bilan yonma-yon mavjud bo'lib turadigan jismoniy (fiziologik) va ruhiy holatni aslo e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Shu tufayli insonda poklik yoki nopoklik, sahiylik va ochko'zlik, mehr-shafqatilik yoki toshbag'irlik, insofllilik yoki noinsoflik, vijdonlilik yoki vijdonsizlik, ezzulik yoki yovuzlik kabi ma'naviy-ruhiy holatlar namoyon bo'ladi.

Muayyan vaziyat taqozosi bilan bu holatlar bir-biriga o'tib turadi. Go'yo odamda ikki qiyofa va ikki qalb bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib turadi. Fiziologik mashqlar tufayli hayvoniy xirslarga erk berib yuborilsa, odam insoniylik sifatlaridan qadam-baqadam mahrum bo'lib borayotganini o'zi ham anglamay qoladi. Bu hirslarning yovuz

ruhi qaror topib qolmasligi uchun odam ongi, qalbi doimo izchil ravishda ezgulik hissidan oziq olib turishi lozim. Aslini olganda, ilmiy qarashlar o‘z oldiga odam mohiyatidagi yovuzlik hislarini bartaraf etib, ezgulik hissini qaror toptirish maqsadlarini nazarda tutadi.

Bunday ezgulik hissini qaror toptirish aksariyat hollarda e’tiqodni iymon bilan bog‘lash, ya’ni imonli kishilarda ana shunday fazilatlar mujassam bo‘ladi deyiladi.

**Payg‘ambarlarning eng birinchi asosiy da’vati xaniflik – yolg‘iz Allohga iymon keltirish.** “Payg‘ambar” arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosи - “xabarchi”, arabcha “rasul”, ma’nosи “elchi”dir. Payg‘ambarning asosiy vazifasi Alloh vahiy orqali bergen ta’limi va amirlarini da’vat qilishdir, hidoyat yo‘liga boshlashdir.

Quro’ni karimda 25 nafar payg‘ambar nomi tilga olingan, ular: Odam, Idris, Nuh, Xud, Solix, Ibrohim, Lut, Ismoil, Is’hoq, Ya’qub, Yusuf, Ayyub, Zul-Kifya, Suuayb, Muso, Xarun, Dovud, Sulaymon, Ilyos, Al-Yasach, Yunus, Zakariyo, Yaxyo, Iyso, Muhammad, bulardan tashqari yana to‘rtta aziz avliyolarning ham nomlari zikr etilgan.

Payg‘ambarlarni arab tilida ikki xil: “rasul” va “nabiy” deb yuritiladi. O‘zidan oldingi kelgan Allohning sharifiga da’vat etuvchi payg‘ambar nabiy deb yuritigan. Ammo har bir “nabiy” “rasul” bo‘lolmaydi. Janobi Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham nabiy, ham rasuldirlar.

Diniy manbalarda jamiyat rivoji tarixida payg‘ambarlar soni qancha bo‘lganligini aniqlash ko‘pgina ulamo-olimlarning qiziqtirgan masalalaridan bo‘lgan. Mavjud adabiyotlarda aksariyat g‘oyalarda payg‘ambarlarning soni 124 ming nafar bo‘lgan degan fikr xukm suradi. Abu Lays al-Samarqandiy “Bo‘ston ul orifiyi” nomli kitobida payg‘ambarlar 124 ming nafar, ulardan 313 nafari, qolganlari nabiy (payg‘ambar) bo‘lganlar,<sup>48</sup> deb yozadi.

Qur’oni karimda payg‘ambarlardan beshtasi – Xazrati Nuh, Ibrohim, Muso, Iyso va Muhammad alayhissalomlar buyuk va yangilangan shariat sohibi deb tilga olinadi.

Bu beshta payg‘ambarlarning har biri haqida qisqacharoq bo‘lsa ham to‘htab o‘tishni lozim topdik. CHunki ular bashariyat tarixida Allohning bilimlari va amirlarini xalqlar o‘rtasida yoyish va da’vat

<sup>48</sup> Qarang: Абу Лайс ал-Самарқандий “Бўстон ул орифийи” –Т.: “Мувароуннахр”, 2003.-б.155-156.

etish hamda yagona Allohga e'tiqod qilish yo'lida hamda katta hizmat qilganlar. Payg'ambarlarning da'vatlari tufayli din va uning kalomini tushunib etish, turmush tarzida hayot yo'lida unga amal qilish bilan insoniyatda diniy ong shakllangan va uning asosida diniy-falsafiy qarashlar ham qaror topgan.

Diniy manbalarda yozilishicha, Odam Atoning Qobil va Hobildan keyingi uchinchi o'g'li Shis alayhissalomning avlodlaridan bo'lgan Nuh alayhissalom (950-yil yashagan) Idris alayhissalomning chevarasining o'g'li (pannavara) bo'lib, u miloddan oldingi 4000 mingyillikdan oldin bo'lib o'tgan Buyuk to'fondan keyin barcha insonlar qirilib ketib, uning uch o'g'lidan – Som, Hom va Efasdan butun Yer yuzi aholisi paydo bo'lgan, deb e'tirof etiladi.

Ibrohim alayhissalom o'zidan keyingi barcha payg'ambarlarning otasi "Anbul-Anbiyo" va bobokaloni hisoblanadi. Musulmonlar ibrohim xalilulloh (Xudoning do'sti) deb hurmat bilan tilga oladilar. U eramizdan avvalgi 2180-yili tug'ilib, 2005-yili 175 yoshda vafot etgan. Ibrohim alayhissalomning to'ng'ich o'g'li Ismoil alayhissalom avlodlarida ikkita payg'ambar – Shuayb va Muhammad alayhissalomlar dunyoga kelgan, ikkinchi o'g'li Ishoq alayhissalomdan bir qancha payg'ambarlar, shu jumladan Iyso alayhissalom dunyoga kelgan.

Ibrohim alayhissalom haqida diniy manbalarda (Qur'on karim, Tavrot va Injil) Alloh bilimlari, diniy ta'limotlari va haq yo'liga da'vati xususidagi katta hizmatlari hurmat bilan tilga olinadi.

Muso alayhissalom (Moisey) Yahudiylik (Iudaizm) dinining assoschisi, unga birinchi ilohiy kitob Tavrot nozil qilingan. U miloddan avvalgi 1666-yilda tug'ilib, 1546-yili 120 yoshda vafot etgan. Muso va akasi xorun Ibrohim alayhissalomning o'g'li Ishoqning to'rtinchisi avlodni Imron (Avram)ning o'g'llaridir.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Ya'qubning o'g'li Yusuf Misrda hokimlik qilib turgan yillari podshohdan izn so'rab, Bani Isroil qavmida 24 urug'-aymoqlardan etmish nafar kishilarni ko'chib kelishini ta'minlagan edi. Yillar o'tib ularni soni 600 mingdan oshib ketdi. Bu Bani Isroil qavmining tobora ko'payib ketishi Misrning tub xalqini asta-sekin siqib chiqarish mumkinligidan havotirlanib, ularni og'ir va past ishlarda ishlata boshladilar. Bu o'z navbatida ularda norozilik kayfiyatini kuchaytira bordi. Muso, Horunlarning tug'ilishlari misrda Fir'avn Ramzes II hukmronligi davriga to'g'ri

keldi. Misrliklar butparast bo'lib, but-sanamlarga sig'inib ketgan alilar. Alloh Musoga payg'ambarlik maqomini ato etgandan boshlab, akasi Horun bilan Misrda nafaqat Yahudiylarni, balki mahalliy alqlarni birinchi navbatda, Fir'avn butparastlikdan qaytarib, uni - Yagona Xudoga sajda qilishga da'vat etish harakatlari foyda bermadi, chunki u insofga kelmadi. Muso endi yahudiylarni Fir'avn zulmidan qutqarish va yangi dinni targ'ib qilishga kirishdi.

Musoning diniy da'vati muqaddas kitob Tavrot asosida bo'ldi. Tavrotni Haq taolo Musoga tur tog'ida nozil qilib, o'nta diniy vasiyatni tushirdi, ular:

- 1) Men Parvadigoringman, mendan boshqa Xudoing bo'lmasin;
- 2) But-sanam, xaykal, suratlarga topinib qurbanlik qilishdan, ularga sajda qilishdan saqlan;
- 3) Mening nomimni bekorga tilga olma;
- 4) Bayram kunlariga rioya qil, olti kun har qanday ishlarini qil, ettinchi kun esa Parvardigoringa bag'ishla;
- 5) Ota-onagni qadrla, izzatlarini qil, o'zingga yaxshi bo'ladi;
- 6) O'ldirma;
- 7) Fahsh-buzuqlik qilma;
- 8) O'g'irlik qilma;
- 9) Yolg'on guvohlik va yolg'on ko'rsatma berishdan saqlan, o'zing ham bunday ishlarni qabul qilma;
- 10) Yaqinlaring xotinlarini, ularning cho'ri-xizmatkorlarini, mol-xollarini istama, ularga zinxor ko'z olaytirma.

Bu vasiyatlarning mazmun-mohiyatini diniy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilingandan ham diniy ham umuminsoniy axloqiy jihatlari borligi ko'zga tashlanadi. Birinchi va ikkinchi vasiyat mazmunida butun olamni yaratgan Yagona Allohga e'tiqod qilish birinchi o'ringa qo'yilishi bilan o'z-o'zidan Xudodan boshqa predmetlarga (but, sanam, xaykal va b.) sajda qilishga o'rin qilmaydi. Diniy manbalarda olamni olti kunda yaratilganligi ettinchi kuni, uning shukronasiga Parvardigorga hamdu-sanolar aytish, toat-ibodat qilish majusiylikdan ozod bo'lish imkoniyatini beradi.

Keyingi jihatlar diniy nuqtai nazardan talqin qilinsa-da ularning aksariyatining mazmuni kishilarda diniy ongini shakllantirish bilan bir vaqtda umuminsoniy mazmunidagi diniy-axloqiy normalarni ham shakllantiradi.

Tavrotning Loviylar bo'limining 11-12-boblarida Alloh bandalari uchun ist'emol qilishga buyurilgan halol va xarom qilingan hayvonlar va jonivorlar ma'lum qilingan.

1. Halol qilinganlari:

- tuyog'i ayri va chuqur, kavsh qaytaradigan hayvonlar: qo'y, echki, qoramol va boshqalar;

- tangali baliqlar va boshqa baliqsimonlar;

2. Xarom qilinganlar:

- tuya, quyon, qo'jayoqlar;

- cho'chqa go'shti;

- yirtqich hayvonlar: sher, yo'lbars, qoplon, bo'ri;

- ot, eshak;

- sichqon, kalamush, olmaxon, sudralib yuruvchilar;

Bunday oziq-ovqatlarni ist'emol qilishda yuqoridagi ko'rsatma va taqiqlarga rioya qilish, birinchidan, bu dinga e'tiqod qilkvchilar ongida diniy tushunchasini shakllantirish bilish bir vaqtida ovqatlanish madaniyati rivojiga xissasini qo'shgan; ikkinchidan, inson bilan tabiat, ayniqsa insonlar bilan turli hayvonot olami o'rtasida to'g'ri munosabatni o'rnatishga hizmat qilgan.

Shunday qilib, Muso payg'ambar Tavrot mazmunidan kelib chiqib, uning talablarini inson ongi va psixologiyasiga singdirishga harakat qilgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchi yahudiy xalqi o'z boshidan murakkab, qiyin kunlarni (Fir'avn davri va b.) o'tkazgan bo'lsalar ham diniy ta'lilotni, o'z tili, urf-odat, marosimlarini saqlab qolgan xalqlardandir. Ularning ijtimoiy-madaniy va diniy-axloqiy hayoti haqida diniy-falsafiy asarlar yozilgan.

**Iys olayhissalom** (Iisus Xristos) xrsitianlik dinining asoschisi hisoblanadi. U Ibrohim alayhissalomning ikkinchi o'g'li Ishoq (Isaak) avlodlaridan dunyoga kelgan, yahudiy millatiga mansub bo'lib, tahminan 1-33-yillarda Falastinda, hozirgi Isroil davlatida yashab o'tgan. Diniy manbalarda yozilishicha, Iys o ibn Maryam muharram oyning e'n beshida, yakshanba kuni onasi Bibi Maryamdan otasiz tug'ilgan. Uning tug'ilgan yili mavjud diniy va dunyoviy adabiyotlarda milodiy yiling boshlanishi bilan bog'liq deb e'tirof etilgan.

Iysoga 30 yoshida Alloh unga payg'ambarlik maqomini berdi, ya'ni Injil kitobi nozil bo'ldi va shundan so'ng qavm ahlini yakkaxudolikka da'vat qilishni boshlab yubordi. Uning da'vatiga

dastlab 12 baliqchilar, muridlar (apostollar) ergashdilar va Iyso targ‘ib qilayotgan diniy tarqatish uchun astoydil kirishdilar. Ular: Pyotr, Siyomon, Andrey, Ya’qub, Yukanio, Filinn, Varfolomey, Matto, Foma, Ya’qub ibn Alfey, Yaxudo ibn Ya’qublardir.

Iyso payg‘ambar diniy targ‘ibot ishlarini shogirdlari bilan keng ommalashtirishidan voqib bo‘lgan Yahudiy dinni arablari o‘zlariga nisbatan, katta xabarni sezaga boshladilar. Chunki Iyso payg‘ambar Muso payg‘ambar diniy qonun-qoidalariga ayrim o‘zgarishlarni kiritayotgan edi. O’sha davrdagi farziy va sadduqiyalar Iyso payg‘ambarga qarshi reja tuzib, uni yolg‘onchilikda ayplashga o‘tdilar.

Iyso payg‘ambar yolg‘onchi emasligini, Xudo topshirgan diniy amallarni xalqqa etkazish majburiyati bo‘lganligini isbotlash uchun Yaratgandan mo‘jizalar ko‘rsatish qobiliyatini berishini iltijo qildi. Rivoyat qilinishicha, loydan qush yasab, unga puflash bilan uchira olishi; pes, mohov va shol odamlarni tuzatish; suv yuzida cho‘kmay yurish; o‘liklarni tiriltirib, ular bilan gaplashish kabi mo‘jizalarni Allohdan irodasi bilan qila oladigan bo‘ldi. Ana shunday mo‘jizalar orqali insonlardagi Iyso Masih targ‘ib qilgan dingga nisbatan ishonchszilik ruhiyati yo‘qola bordi. Odamlarni aksariyati xristianlik dini tamoyillariga e’tiqod qiladigan bo‘ldi.

Ammo Iyso Masih ta’limotiga qarshi chiqqan farziy va sadduqiy mazhabidagilar unga nisbatan qarshi kurashishni va eng yomoni uni o‘ldirish haqidagi harakatni to‘xtamadilar hatto uning da’vati Rim imperiyasiga qarshi harakat deb baholanib, unga o‘lim jazosini ko‘rishga erishildi. Uni chorcho‘nga mixlashib, juma kuni 33 yoshida juda daxshatli ravishda xochga parchinlab o‘ldirildi.

Diniy manbalarda, xususan Injilda Iyso payg‘ambar gunohkor insonlarni qutqarish uchun o‘z jonini qurban qilishdan iborat bo‘lgan xochga parchinlab o‘ldirilgan, deb izohlanadi.

SHunday qilib, Iyso Masih o‘zining uch yillik payg‘ambarlik davridagi diniy da’vati bilan xristianlik dinini yoyishga, uning muhlislariga ko‘paytirishga muvaffaq bo‘ldi. Xristianlik dini, uning yo‘nalishlari (katolizm, pravoslavie, protestanlik), ayniqsa, Iyso Masih faoliyati, hayoti, rivoyatlari haqida diniy-falsafiy mazmunda juda ko‘p asarlar yozilgan va hozir ham bu xususda shug‘ullanadigan olimlar hamda ruhoniylar borki, ular xristianlik ta’limoti haqida keng va batafsil ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

**Muhammad alayhissalom** islom dinining asoschisi va davlat arbobi (571-632), Allohning rasuli (elchisi) va payg‘ambari.

Muhammad alayhissalom “Xotam ul-Anbiyo” – payg‘ambarlikning xotimasi, muhri ya’ni oxirgisi hisoblanib, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar, butun bashariyat uchun yuborilgan payg‘ambardirlar.

Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari , ajdodlari va faoliyatlar ko‘pgina ham dunyoviy ham diniy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ullarning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, otalari - Abdulloh, onalari – Omina. Bobolari – Abdumuttalib, undan keyingi bobolari tartib bilan - Xoshim, Abdumannof, Qusayn, Xakim, Murra, Ka’b, Puay, G‘olib, Fehr (Qurayish), Malik, Nadr, Kinona, Xuzayma, Mudrika, Ilyos, Muzar, Nizor, Magd, Adnondir. Adnon Ismoil alayhissalomning avlodni Kayzer sulolasidan bo‘lgan. Rasulullohning otalari Abdulloh qurayish qabilasining Xoshimi urug‘idan, onalari Omina Zuhra urug‘idandir.

Rusululloh Ismoil a.s. avlodlaridan bo‘lib, Ismoil a.s. esa Ibrohim payg‘ambarning katta o‘g‘li edi. Arablar o‘zlarining ikki payg‘ambar – Nuh va Ismoil urug‘idan deb atashadi. Ismoil avlodlari o‘zlarini qurayishlar deb atashadi. Muhammad (s.a.v.) tug‘ulganlarida bobolari Abdulmuttalib qurayish qabilasining boshlig‘i va Makkaning noziri edi.

Ka’bani birinchi bor toshdan hazrat Ibrohim va Ismoil alayhissalomlar qurgan, uni atrofini, Makka shahrini esa payg‘ambarimizning bobokalonlari Xusayn qurdirgan. SHunday qilib, Ka’ba va Makka shahri Qurayishlar tomonidan boshqarilgan Rasululloh tug‘ulgan kezlarida bobolari Abdulmuttalib Makka hokimi va Ka’ba muhofizi edilar. Ayni vaqtida Qurayishlar boshqa qabilalarga qaraganda obro‘li, imtiyozli hisoblanib, barcha boshqa qabilalarga hokim ham edilar.

Muhammad (s.a.v.)ning payg‘ambarlik faoliyatlarini diniy manbalarda batafsil yoritilgan ammo hali ham bu jarayonni o‘rganish tomonlari bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Mazkur manbalarda ko‘rsatilishicha, Muhammad (s.a.v.) Makkadan 3 mil (1 soatlik yo‘l)da joylashgan Hiro-Nur tog‘iga borib, u erda bir necha oy Tangri taologa ibodat qilar edilar. SHu erda ibodat qila yotgan kunlarning birida Jabroil alayhissalom birinchi vahiyini olib kelgan va bu jarayon 23 uch yil davomida Muhammad (s.a.v.)ga kelib turdi.

Muhammad (s.a.v)ga vahiy 40 yoshlarida kela boshladi, ana shu lavrdan boshlab islom dinining ta'limotiga xalqlarni da'vat qilish va butun olamni yaratgan yagona Alloh e'tiqod qilish da'vatlari payg'ambarimiz faoliyatlarining mazmunini tashkil etgan va bu nihoyatda voqealarga boy jarayondir. Payg'ambarimiz ularning safdoshlari, sahobalarining yangi dinni targ'ib ilish, unga da'vat etish natijasida nafaqat Makka va Madinadagi arablar, balki qo'shni lavlatlardagi xalqlar islomni sekin-asta qabul qilib, jaholat davridagi illatlardan, inson zotiga mos kelmaydigan jirkanch haraktlardan holi bo'la boshladilar. Islom dini va uning insonparvarlik bilan yo'g'irilgan umuminsoniy-axloqiy g'oyalari ular ongidan o'r'in oldi.

Qur'on, hadis, shariat, fiqhlar musulmonlar uchun asosiy manba bo'lib qoldi va hozir ham shunday. Islom dinini o'rgani va tushunish borasida diniy tavsirlar, hadisshunoslik ilmi va ularni diniy-falsafiy jahatdan tashkil qilishga ham e'tibor berildi. Xususan Islom falsafasi (Kolom)ning ishlab chiqilishi jamiyat taraqqiyoti jarayonida o'z o'rniiga ega bo'lган.

Asrlar davomida islom diniga da'vat qilinishi, inson ongi va qalbida o'rni olishi bilan u ma'naviyatlari insonga aylandi. Haqiqatni ham din ma'naviy madaniyatini tarkibiy qismi sifatida asrlar davomida xalqlar uchun nafaqat diniy ta'limot, e'tiqod vazifasini o'tagan, balki turmush tarziga aylanib, o'zining muayyan qadriyatlarini kishilar ongi va psixologiyasiga singdirib kelgan o'ziga xos dunyoqarash hamdir.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning. 2007. R. 1-2
2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. -T.: O'zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.
4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. Darslik. –T.: Mehnat. 2004.

### Mustaqil ish

1. Dinning tuzulmaviy unsurlari va tarkibiy qismlari.(Referat tayyorlash)
2. Diniy tashkilotlar.(Taqdimot tayyorlash)

3. E'tiqodning diniy-strukturaviy tushunchasi. (Referat tayyorlash)
4. Diniy bag'rikenglikning falsafiy tahlili. (Taqdimot tayyorlash)
5. Bilim va g'oyalar e'tiqodni strukturasining muhim elementlari. (Taqdimot tayyorlash)

## Glossariy

**Din** – so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, ishonch, inonmoq ma’nosini bildiradi.

**E’tiqod** – so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, **chuqur, mustahkam ishonch** ma’nosini anglatadi.

**Ijtimoiy borliq** – ko‘p shakllarga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

**Dinning strukturasi** – diniy ong, diniy ibodat va diniy tashkilotlar birligidan iborat murakkab ijtimoiy tuzumidir.

**Diniy psixologiya** – bu butun diniy ommaga xos tasavvurlar, sezgilar, kayfiyatlar, urf-odat, an'analar bilan bog‘liq muayyan diniy g‘oya tizimining umumbirligidan iborat.

**Diniy ideologiya** – bu diniy tashkilotlarda hizmat qiluvchi diniy hayotdagi ruhoniylar (bogoslovlar) tomonidan ishlab chiqqan va targ‘ibot qilingan u yoki bu darajadagi g‘oyalar tizimidir.

**Diniy iymon** – bu shaxs uchun asosiy orzu diniy ibodatlar, marosimlarni bajarish, diniy ko‘rsatmalar asosida hayot yo‘nalishini belgilab, real dunyoda baxtiyor bo‘lish va oxiratda jannatdan joy olishdir.

**“Payg‘ambar”** arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosи - “habarchi”, arabcha “rasul”, ma’nosи “elchi”dir.

**Iysо alayhissalom** (Iisus Xristos) xrsitianlik dinining asoschisi hisoblanadi.

## Seminar nazorat uchun savollar

1. Din strukturasining mazmuni.
2. Din strukturasining tarkibiy qismlari.
3. Diniy ong va diniy mafkura tushunchasi.
4. Diniy uyushma va tashkilotlari faoliyati.
5. Diniy strukturada e’tiqodning o‘rni.
6. Diniy bag'rikenglik tushunchasi.

**7. Payg‘ambarlar faoliyati va jamiyatdagi o‘rni.**

**Test**

- 1. Arab tilidan olinib, ishonch, inonmoq ma’nosini bildiruvchi so‘z?**  
A) E’tiqod  
B) Qur’on  
C) Islom  
D) Din
- 2. “Din” atamasining kelib chiqishning tarixi qaysi tillarga borib tarqaladi?**  
A) Arab va fors  
B) Arab va turk  
C) Somit va yahudiy  
D) Somit va fors
- 3. Diniy tashkilotlarda hizmat qiluvchi diniy hayotdagi ruhoniylar (bogoslovlari) tomonidan ishlab chiqqan va targ‘ibot qilingan u yoki bu darajadagi g‘oyalar tizimga nima deyiladi?**  
A) Diniy psixologiya  
B) Diniy mafkura  
C) Diniy ideologiya  
D) Diniy sotsiologiy
- 4. Homa sapiens odam zoti qanday xususiyatga ega edi?**  
A) Aqli bo‘lgan  
B) Mehnatkash bo‘lgan  
C) Yalqov bo‘lgan  
D) Aqlsiz bo‘lgan
- 5. “Politeizm” nima?**  
A) Xudosizlik  
B) Ko‘p xudolik  
C) Yakka xudolik  
D) Ko‘r-ko‘rona xudoga ishonish

6. «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Er (yuzi) dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo‘lur edilar. Bas, Siz odamlarni mumin bo‘lishga majbur qilasizmi?!». Ushbu qaysi sura va oyatdan olingan?

- A) Naxl surasi 125 oyat
- B) Xujrat surasi 13 oyat
- C) YUnus surasi 99 oyat
- D) Moida surasi 32 oyat

7. Bag‘rikenglik Tamoyillari Deklaratsiyasi kunini ko‘rsating.

- A) 16-noyabr
- B) 7-noyabr
- C) 8-noyabr
- D) 15-noyabr

8. O‘zbekistonda diniy konfessiyalar miqdori qancha?

- A) Islomdan tashqari yana 12 ta
- B) Islomdan tashqari yana 16 ta
- C) Islomdan tashqari yana 13 ta
- D) Islomdan tashqari yana 15 ta

9. 1995-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining YUNESKO a’zolaridan 185 davlat ishtirokida bag‘rikenglik masalalariga qaratilgan yig‘ilishi qaerda bo‘lib o’tdi?

- A) Parijda
- B) Lissabonda
- C) Makkada
- D) Quddusda

10. Arab tilidan olinib, ishonch, ixlos ma’nosini bildiruvchi so‘z?

- A) E’tiqod
- B) Qur’on
- C) Islom
- D) Din

11. «Qur’on oyatlari ham Allohga iyomon keltirish uchun aqliy dalillarga suyanishga chaqirgan». Ushbu jumla qaysi kitobdan olingan?

- A) «Vera kak duxovnoe sostoyanie»

- B) "Imon"
- C) "Diniy hayotning sodda tuzilishi"
- D) "Individ i ego religiya"

**12.** "Payg'ambar" so'zining lug'aviy ma'nosi?

- A) "elchi"
- B) "yo'lboshchi"
- C) "habarchi"
- D) "ilohiyotchi"

**13.** Quro'ni karimda qancha payg'ambar nomi tilga olingan?

- A) 25 nafar
- B) 15 nafar
- C) 35 nafar
- D) 45 nafar

**14.** Qur'oni karimda payg'ambarlardan qanchasi buyuk va yangilangan shariat sohibi deb tilga olinadi?

- A) 3 nafar
- B) 6 nafar
- C) 7 nafar
- D) 5 nafar

**15.** Odam Atoning uchinchi o'g'lini nomini ko'rsating.

- A) Qobil
- B) Hobil
- C) SHis
- D) Idris

## **8-MAVZU. DIN FUNKSIYALARINING FALSAFIY MAZMUNI**

### **Reja:**

1. Din funksiyalarining falsafiy mazmuni.
2. Din funksiyalarining jamiyat hayotidagi o'rni.
3. Diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar va din funksiyalarining o'zaro aloqadorligi.

**Tayanch tushunchalar.** Din funksiyasi, imon, diniy imon, ideal, ilmiylik, ob'ektivlik usullari, kompensatorlik, integrativlik, regulativlik, kommunikativlik, din madaniyatini translyasiya qilish funksiyasi, ligitimlovchilik, diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar, musulmon jamoasi, O'zbekiston diniy idorasi, dorulfani, dorulbaqa.

### **1.Din funksiyalarining falsafiy mazmuni**

Diniy imon-e'tiqod diniy ongdagi barcha tasavvurlarni birlashtiruvchisidir. Ammo har qanday imon-e'tiqod diniy imon-e'tiqod bo'lavermaydi. Imon murakkab mazmunli tushuncha bo'lganligidan uni ilmiy-falsafiy jihatdan ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Imon – bu odamning muayyan g'oya va axloqiy qadriyatlar real haqiqat ekaniga ishonchidan iborat ma'naviy-ruhiy holat bo'lib, aql-idrokli odam ongi va ahvoli ruhiyati (psixikasi)ning nodir hodisisi va odam o'z-o'zini anglab olishining noyob vositasidir. Odamning hozirgi zoti muayyan imonga ega bo'lmasa, u o'z-o'zini anglab olishi qiyinlashadi; imonsiz odamlar uchun o'z huzur halovati, o'ziga xos his tuyg'usidan boshqa ma'naviy "qadriyat" qilmaydi. Natijada imonsiz odamlar o'g'ri, hiyonatchi, poraxo'r, ta'magir, bosqinchi (terrorist) umuman inson zoti uchun harakatlari hususlarga ega bo'lib qiladi. Hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyo hamjamiyatining mo'tadil yashashga to'siq bo'lib turgan ijtimoiy hodisa – odamlarda, ayniqsa yoshlarda muayyan an'anaviy g'oyaviy-axloqiy qadriyatlar qadrsizlanib, oqibatda imoni va e'tiqodi yo'q o'ziga xos odamlar galasi fundamentalistik, ekstremistik vujudga kelishi xavfi paydo bo'imqoda. Shuning uchun falsafiy dunyoqarash asosida shakllangan imon-e'tiqod egalarining din ahillari bilan birlashib, ana shu ijtimoiy

ofatga qarshi kurashishlari tarixiy zaruriyat bo‘lib turibdi. Imonsiz odamlar stixiyali ‘tarzda o‘zlarining insonga xos bo‘limgan manfaatlari negizida allaqachon birlashib olganlar. Ularning eng ko‘zga chalinadigan galalari “mafiya”, “diniy fundamentalistlar”, “igilchilar” deb ataladi. Ana shu ijtimoiy buzuqlarga qarshi astoydil va izchil kurashdagina chinakam insoniy imon, e’tiqod qaror topishi mumkin.

Falsafiy qarashlarni ham olim va ulamolar, binobarin odamlar ijod qilgan. Ularning falsafiy va diniy qarashlarni ko‘pincha bir-biriga mutloq darajada qarama-qarshi qo‘yish aqli odamlar ishi emas. Har birida ham mavhum va real haqiqatlar bor. SHu sababli ijtimoiy ongning shakllari o‘rtasidagi tavofutlarni haddan ziyoda bo‘rtirib, qabartirib, ulardagи mushtaraklikni yo‘q qilib ko‘rsatish tarixiy haqiqatga mos emas. Dunyoviy va diniy qarashlar bir-birini to‘ldiruvchi jarayondir.

Endi “Iymon” tushunchasi bilan “din” tushunchasining mazmuniga e’tibor qaratsak, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, “imon” hamma dinlar mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun islomni ham ma’lum ma’noda imonshunoslik desa bo‘ladi. Zero, uning barcha ibodatlari, marosimlari, hayitlari, ramzlari ma’lum bir maqsadga - odamlarni Allohga, uning Kalomi Qur’onning barcha oyatlari ilohiyligiga qattiq ishongan, o‘z hayotini shu ruhiy xolat asosida belgiladigan shaxslar – aqli islomni kamol toptirishdan iboratdir.

Xo‘sish, ilmiy haqiqatlarga, falsafiy qarashlarga ishongan odamlarchi? Ana shu tayanch-ishonch asosida ham muayyan ruhiy holat tarkib topib, hayot yo‘nalishi vujudga kelayotgan ekan, ularni imonsiz-e’tiqodsizlar qatoriga qo‘shib yuborish adolatdan bo‘lmasa kerak.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlatning dinga va diniy tashkilotlarga nisbatan adolatli siyosati qo‘llanishi tufayli mamlakatimiz xalqlari dinga bo‘lgan munosabatini emin-erkin yuritish huquqiga ega bo‘ldi. Muayyan imon, e’tiqod ruhi yoshlarning ongiga, qalbiga go‘dakligidan oila, qarindosh-urug’, o‘quv va mehnat jamoalari, jamiyat ijtimoiy muassasalar vositasi ila singdirilib boriladi. Aql-idrokli odam zoti nima uchun tug‘ulganligi, hayotning ma’nosini madan iborat ekanligini anglab, o‘z xatti-harakatlarida, faoliyatida, o‘zi yashayotgan jamiyatdagi qonun-qoidalar, odob-axloq normalariga qattiq rioya qilishga odatlanib borishi lozim. Buning uchun

jamoatchilikning qattiq va izchil nazorati zarur. So‘z bilan ish birligi, shartnomalarga amal qilish, halol mehnat bilan kun kechirish, oilani boqish, tarbiyalash, insofli, diyonatli, adolatparvar bo‘lish, sahiylik, muruvvatilik, o‘z xalqi, uning madaniyati haqida qayg‘urish, milliy iftixorning oyoq osti qilinishiga yo‘l qo‘ymslik faqat imonli odamlargagina xos fazilatdir. Zero, imonli odamlar o‘z xattiharakatlarini o‘lchaydigan mezon – muayyan g‘oyaviy-axloqiy qadriyatga ega bo‘ladilar.

Diniy imoni egasi bo‘lgan shaxs asosiy orzu diniy ibodatlar, marosimlarni bajarish, diniy qadriyatlar asosida xayot yo‘nalishini belgilab, real dunyoda baxtiyor bo‘lish va oxiratda jannatdan joy olishdir. Ilmiy haqiqatlar atrofida imoni shakllangan shaxslar uchun esa asosiy ideal (yuksak orzu) hayotning ma’nosи shu yakkayu yagona olamda chinakam insoniy munosabatlar, umumiy farovonlik vaadolatri qaror toptirish uchun kurashda baxtiyorlikka, el-yurtning izzat-ikromiga sazovor bo‘lib, hayotida o‘zidan yaxshi nom qoldirib, avlodlar qalbida umrini davom ettirish, ya’ni ijtimoiy abadiylilikka musharaf bo‘lishdir. Diniy ma’nodagi imon bilan dunyoviy (ilmiy) ma’nodagi imon, e’tiqod orasidagi tafovut ana shundadir.

## 2. Din funksiyalarining jamiyat hayotidagi o‘rnini

Yuqorida biz imon-e’tiqod tushunchalari bilan tanishdik, ayni vaqtida bu tushunchalarining shakllanishi, mazmun-mohiyatining boyib borishi, dinlar tarixi bilan bog‘liq bo‘lsa, u o‘z o‘rnida xalqlar tarixi bilan bog‘liqidir. Shu vaziyatda biz ijtimoiy hayotda din funksiyalari mazmuniga ham e’tibor qaratamiz.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida iste’dodli, qobiliyatli olim va shoirlar, adib va mutafakkirlardan ibort xalq farzandlar etishib chiqib, o‘z ilg‘or fikrlari bilan fan va madaniyatning turli sohalarini rivojlantirib, hurfikrlilik mazmunini boyitdilar.

Din va uning funksiyalari masalalarini tahlil ilishda ilmiylik va ob‘ektivlik usulini qo‘llab, ularda diniy qarashlar taraqiyotiga, inson kamolotiga hizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon, e’tiqodni shakllantirish lozim.

Ibtidoiy din shakllaridan tortib to urug‘, qabila va milliy dinlarga, ularda jahon dinlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining ijtimoiy,

gnoseologik (nazariy bilish) va psixologik ildizlari mavjuddir. Ana shularni tarixiy dalillar asosida tahlil qilish orqali din funksiyalari haqida fikr yuiritish mumkin.

Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo‘lgan din xalqlar hayoti bilan bog‘liq holda rivojlangan, moslashgan, sekin-asta diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada muayyan ijtimoiy-siyosiy va madani-axloqiy vazifalarni bajarishni o‘z zimmasiga olgan. Bunday funksiyalar jamiyat tarqqiyotining yuqori bosqichida, ayniqsa yakkol ko‘zga tashlanadi.

Din funksiyalari hamma din tushunchasi mos va xos ravishda ijtimoiy-tarixiy jarayonida shakllangan, rivojlangan va mustahkamlanib borgan. Dinning, ayniqsa, islomning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o‘rni, vazifalari, fan va madaniyat bilan o‘zaro ta’siri xususida fikr yuritish o‘rinlidir. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har qanday din o‘z homiyları uchun to‘ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj xosil bo‘lishini olib ko‘raylik. U o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, masadlarga etishish kabi, ilojsiz bo‘lib ko‘ringanda bunday ma’naviy-ruhiy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro‘yobga chiqishi ilojsiz bo‘lgan paytda insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo‘lib yashash talablarida boshlangan va din bu o‘rinda ma’naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasallli beruvchilik vazifasini bajaradi. Din funksiyasining bu yo‘nalishida inson ruhiyatida mavjud bo‘lgan qayg‘uli, tashvishli damdlarni, asabiylik holatlarini ayrim shaxs yoki guruuhlar bilan birgalikda engishda ruhiy (psixologik ) omili muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, dinlar o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirib, unga e’tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta’limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funksiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma’naviy hayotning o‘z ta’siri doirasida bo‘lishini ko‘zda tutadi. Masalan, islom o‘tmishida Mrakaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, hattoki adabiyot va san’atiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Iudaizm dinida esa yahudiylarni mazkur din atrofida ushlab turish uchun ularni bir millat va yagon maslak egalari ekanliklari o‘qtirilib,

yagona Xudo Yaxve va Muso payg‘ambarga e’tiqod qilishga da’vat etadilar.

Xristianlikda ham e’tiqod qiluvchilarni unga yanada ko‘proq jalb etish uchun birinchidan cherkovlarni jozibador qilib jihozlash; ikkinchidan, tasivry san’at asarlaridan hamda turli musiqa janrlaridan foydalilaniladilar.

Uchinchidan, din dindorlarning hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funksiyasini bajaradi. Ayniqsa, xristianlik dinini turli yo‘nalishlariga e’tiqod qiluvchi Yevropa mamlakatlarda turli xalqlar, millatlar o‘rtasida tartib o‘rnatishda bu dinning regulyativlik funksiyasidan keng foydalanoqdalar.

Har qanday dinlarning ma’lum urf-odat, marosim va bayramlari bo‘lib, ularni o‘z vaqtida, diniy ta’lim va talab asosida bajarilishi shart qilib qo‘yilgan. Masalan, islom dinning arxon-ad-din talablarida kuniga besh vaqt namoz o‘qish, bir yilda bir oy ro‘za tutish, juma namozini ado etish, ramazon va qurban hayitlarini bayram qilish kabilalar belgilab qo‘yilgan. Bu talab va tartiblar musulmonlar hayotini tartibli o‘tishini ta’minlab turadi.

To‘rtinchidan, din aloqa bog‘lovchilik (kommunikativ) vazifani ham bajaradi. Dinning bu funksiyasi dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Bunda konkret bir dinga e’tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog‘liq bo‘lishi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib ado etish ko‘zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funksiyasini amalga oshirishga ko‘maklashadi, ayni paytda bu holatni nazorat qiladi.

Beshinchidan, din madaniyatni translyasiya qilish funksiyasi. Har bir din ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o‘ziga xos muayyan madaniy merosga ega. Bu meros ijtimoiy-tarixiy jarayonda diniy an‘analar, tajribalar asosida to‘planib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odat va nikoh marosimlari, dafn marosimi bilan bog‘liq tartib va qoidalarini bajarishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, yozma yodgorliklar, diniy kitob va jurnallarni nashr etish va diniy premetlarni yasashda ham o‘z aksini topadi.

Masalan, xristianlikda Iisus Xristosning xochga parchalanish holatini, krest, ikonalar yasash, buddaviylikda esa Buddha va boshqa xudolar xaykalini yasash kabilalar bu dinlarning madaniy merosiga kiradi.

Oltinchidan, din (ligimtimlovchilik) qonunlashtiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Milliy va jahon dirlari muayyan diniy manbalar asosida ijtimoiy-tarixiy jarayonda shakllangan va rivojlangan. Ligitimlashtirish funksiyasi esa diniy urf-odatlar, harakatlar, munosabatlarni tartib solish yuzasidan qonun va qoidalarni ishlab chiqish va shu asosda diniy hayotni barqaror kechishini ta'minlashdir.

Bulardan tashqari din funksiyasining falsafiy, nazariy jihatlari bo'lib, insonni yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, dorulfano, dorulbaqo – dunyo haqidagi masalalarga o'z munosabatlarini bildirishdan iborat. Har qanday dinning konkret tarixiy sharoitda bajaradigan funksiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lgan emas. U vaqtga, o'ringa, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

### **3. Diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar va din funksiyalarining o'zaro aloqadorligi**

Diniy tushunchalar, tasavvur va kayfiyatlarga moslashib, bularning bevosita ta'siri natijasida vujudga keladigan kishilar o'rtaсидаги aloqadorlik va diniy jamoa, uyushma va tashkilotlarning faoliyatları diniy munosabatlar deb ataladi. Diniy munosabatlar g'oyaviy-ijtimoiy munosabatlarning turi ·bo'lib, oqibatda ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli hisoblanadi.

Jamiyatda diniy munosabatlar alohida mavjud bo'lmay, ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari, chunonchi siyosiy, huquqiy, axloqiy-maviy munosabatlar, mehnat jarayonlari bilan uzviy bog'liq.

Diniy munosabatlar, birinchidan, har bir diniy jamoa, uyushma, tashkilotlar orasidagi, ikkinchidan, diniy tashkilotlararo va uchinchidan, tashqi munosabatlarga bo'linadi.

Diniy jamoa diniy e'tiqodga asoslangankishilar birligini muayyan ko'rinishi va diniy uyushmaning boshlang'ich bo'lagidir. Bu borlikning asosiy belgilari quyidagicha: 1) diniy e'tiqod, maqsad va vazifalar birligi; 2) diniy marosimlar va undan tashqariagi faoliyatlarining birligi; 3) etnik birlik tuyg'usi; 4) jamoa a'zolari orasidagi o'zaro taqsimlangan mavqe va vazifalarning birligi. Diniy

jamoalarning tuzilishi an'analar va urf-odalar, huquq yoki urningi dasturlar ligitimlashtirilgan qoida, fatvolar bilan belgilanadi.

Diniy jamoa mahsus mezonlar asosida rasmiy va norasmiy guruhlarga: "jamoa kengashi", "ruhoniylar", "qavmlar" va "va'zxonlar"ga, shuningdek diniy va xo'jalik, moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi guruhlarga bo'linadi. Dastlabki musulmon jamoasi 622-yili Madinada muhojirlar va ansorlardan iborat holda tashkil topgan. Inqilobgacha ko'p hollarda diniy birlik etnik birlikka mos kelgani uchun ham din etnik milliy birlik ma'nosini ham anglatgan. Mayjud qonunlarga binoan 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro diniy jamoa a'zosi bo'la oladi. Diniy jamoa O'zbekiston Respublikasi yangi tahriridagi "Vijdon erkinligi" haqidagi qonunga asosida kamida 100 mo'mindan iborat bo'lishi ozim, aks holda diniy guruh hisoblanmaydi. Diniy uyushmalar faoliyati o'z a'zolarining yashayotgan joyi bilan cheklanadi. U ixtiyoriy va mustaqil tashkilot bo'lib, moddiy jihatdan ham o'z-o'zini ta'minlaydi. Ishlarni olib borish, diniy mol-mulk va pul mablag'lari bilan bog'liq vazifalarni bajarish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish uchun diniy uyushma a'zolari o'z orasidan ijroiya organini saqlaydi. Diniy tashkilotlararo diniy munosabatlarga turli dinlarga e'tiqod qiluvchi tashkilotlar, ularning rag'bar va idoralari, ularning a'zolari o'rtaсидagi munosabatlar kiradi. Diniy tashkilotlarning ichki munosabatlari, ya'ni din funksiyalari omillaridan bo'lmish toat-ibodatga, diniy marosimchilikka taaluqli munosabatlar "muqaddas" yozuvlarda bayon qilingan bo'lib, dindor uchun majburiy va turg'unroq hisoblanadi. Diniy tashkiltlar vujudga kelgan dastlabi davlatlardanoq ular faqat kishilarning bevosita diniy ehtiyojoari, ya'ni toat-ibodatga taaluqli masalalar bilangina shug'ullanmagan; ayni zamonda jamiyatning xo'jalik siyosiy, huquqiy, ilmiy, ayniqsa g'oyaviy, axloqiy jabhalarida ham faol ishtiroq qilgan. Ba'zi xorijiy mamlakatlar va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. CHunonchi, Qadimgi Mesopotamiyada ibodathonalar shaharlar markazlarida joylashgan bo'lib, hunarmandchilik ishlari bilan shug'ullaniganlar, umuman xalq ishlarini yurituvchi markaz bo'lgan. Jamiyatni demokratlashtirish natijasida vujudga kelgan yangi sharoit diniy tashkilotlar faoliyatida yangi qirralarni vujudga kelishi va keng yoyilishiga, uning keng xalq ommasiga ommoviy axborot vositalari orqali targ'ibot qilinishiga ham sabab bo'imqoda. O'zbekiston diniy idorasining xayriya, madaniy

marosimlarni o'rganish va targ'ib qilish masalasi bilan faol shug'ullanish ham hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Bu yo'nalishdagi faoliyatlarni faqatgina dindorlar emas, dinga ishonmaydiganlar ham qizg'in qo'llab-quvvatlamoqdalar. Chunki bu faoliyat kishilarda mehr-oqibatning qaror topishi, xalqning axloqiy-ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqlishi ortib borishiga ham sabab bo'ladi. Ma'naviy merosni o'rganish orqali xalq, qolaversa, har bir kishi o'z-o'zini anglaydi.

Yuzaga kelgan yangi sharoitda diniy tashkilotlar ijtimoiy hayotda faol ishtiroq etish, boshqa ijtimoiy uyushmalar kabi ommaviy axborot vositalaridan keng foydaalanish huquqiga ega. O'rta asr sharoitlarida ham monostir, masjid va madrasalar dunyoviy ilm va maorif, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganlar. Bu vaziyat diniy tashkilotlarning jamiyatda tutgan mavqesining yuqori darajada bo'lishiga sabab edi.

Har bir tarixiy davr diniy tashkilotlarning faoliyatları o'zlariga xos tomonlariga ega. Bu tashkilotlarning muayyan ko'rinishdagi faoliyatları jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, mavjud sinflar orasidagi munosabatlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajalari, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, axloqiy vaziyatlar, hukmron g'oyalar, fanlarning rivojlanish darajalari va boshqa shu kabilardan iborat bo'lgan muhim vaziyatlarga bog'liqdir. Shuning uchun ham diniy tashkilotlarning faoliyatlariga har bir tarixiy sharoitning o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda yondashmoq zarur.

Diniy tashkilotlar mustaqil tus olgan hozirgi sharoitda uning faoliyati asosan dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu tashkilotlar boshqa siyosiy va ijtimoiy uyushmalar, partiya, kasaba uyushmalari, xotin-qiz, yosh, ijodiy tashkilotlari shakllana borishi mobaynida ular bilan muayyan tarzda aloqa o'rnatishga intiladi. Ruhoniylar oddiy dindorlar ham tashkilotlarga a'zo bo'lishlari mumkin. Bu uyushmalar o'z mohiyati bilan diniy bo'lmasada jamiyatda yoki mamlakatlararo munosabatlarda turli ta'sir o'tkazishda diniy tashkilotlar yo'lida xizmat qilishi mumkin. Xorijiy Yevropa mamlakatlardagi xristian siyosiy partiyalar, xalqaro inson tashkilotlarning faoliyatları bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston diniy idorasi moddiy jihatdan o'z qaramog'idagi musulmonlarning ixtiyoriy sadaqlari, musulmonlarga diniy hizmat ko'rsatish bilan bog'liq to'lovlar hisobiga ta'minlanadi.

Islom bilan bog'liq ko'pgina xalqaro tashkilotlar ham bor. Bular o'z darajalarini, harakatlariga ko'ra quyidagi uch guruhgaga bo'linadi:

1) Hukumatlararo Islom Konferensiyasi Tashkiloti – IKT. U 1969-yili tuzilgan.

2) Hukumatlar aralashmaydigan tashkilotlar: bularga siyosiy, jamoat arboblari a'zo bo'ladilar va ishida ishtiroq etadilar.

3) Sof diniy tashkilotlar, diniy mafkuraviy markazlarni birlashtiruvchi islom tashkilotlari. Bularning vakillari asosan dinni targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar.

Ijtimoiy ehtiyojlarning m'lum bir davrdagi muayyan turi bo'lgan diniy ehtiyojlar, u bilan bog'liq bo'lgan diniy tashkilotlarning faoliyati ijtimoiy vaziyatlar bilan belgilanadi. Demak, diniy tashkilotlar o'z faoliyatlari nuqtai nazaridan ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, xalqaro funksiyalarining bajarishdan tashqari diniy ehtiyojga ega bo'lgan xalqlar hayoti va ongida diniy munosabatlari, diniy tasavvur va kayfiyatlarni shakllantiruvchi diniy funksiyalarining tartibli, qonun-qoidalar asosida bajarilishini ta'minlashga ham e'tibor qaratadi.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. William L. Rowe. Philosophy of Religion. USA Wadsworth Cengage Learning. 2007. R. 1-2
2. Abdusamudov A.E.. Dinlar falsafasi. –T.: O'zMU. 2010.
3. Din falsafasi. – T.: 2011. – 180 b.
4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. Darslik. –T.: Mehnat. 2004.

### Mustaqil ish

1. Din funksiyalarining falsafiy mazmuni.(Referat tayyorlash)
2. Din funksiyalarining jamiyat hayotidagi o'rni. (Referat tayyorlash)
3. Diniy munosabatlari, diniy tashkilotlar va din funksiyalarining o'zaro aloqadorligi.(Taqdimot tayyorlash)
4. Din funksiyalari. (Referat tayyorlash)
5. Diniy tashkilotlar vujudga kelishi. (Referat tayyorlash)

## Glossariy

**Iymon** – bu odamning muayyan g'oya va axloqiy qadriyatlar real haqiqat ekaniga ishonchidan iborat ma'naviy-ruhiy holat bo'lib, aql-idrokli odam ongi va ahvoli ruhiyati (psixikasi)ning nodir hodisasi va odam o'z-o'zini anglab olishining noyob vositasidir.

**Din** – so'zi arab tilidan olingan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi.

**E'tiqod** – so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, **chuqur, mustahkam ishonch** ma'nosini anglatadi.

**Diniy iymon** – bu shaxs uchun asosiy orzu diniy ibodatlar, marosimlarni bajarish, diniy ko'rsatmalar asosida hayot yo'nalishini belgilab, real dunyoda baxtiyor bo'lish va oxiratda jannatdan joy olishdir.

**Ibtidoiy din** – dinning dastlabki shakli.

**Dinning kompensatorlik vazifasi** – har qanday din o'z homiyilari uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi vazifa.

**Dinning integrativlik funksiyasi** – dinlarning birlashtiruvchilik vazifasi.

**Dinning regulyativlik funksiyasi** – din dindorlarning hayotini tartibga solish, nazorat qilish vazifasini bajaradi. din aloqa bog'lovchilik () vazifani

**Dinning kommunikativ funksiyasi** – dinlarning aloqa bog'lovchilik vazifasi.

**Dinning ligimtimlovchilik funksiyasi** – din qonunlashtiruvchi vazifasi.

## Nazorat uchun savollar

1. Diniy imon-e'tiqod tushunchasi.
2. "Imon" va "din" tushunchalari o'rtaqidagi fikrlar va umumiylit tomoniyillari.
3. Din nuqtayi nazaridan hayotning mazmuni.
4. Ilmiy nuqtai nazardan hayotning mazmun-maqсади.
5. Din funksiyalari: kompensatorlik, integrativlik, regulyativlik, kommunikativlik, din madaniyati translyasiya qilish funksiyasi, ligimtimlovchilik.

6. Diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar va din funksiyalarining o‘zaro aloqadorligi.

7. Islom bilan bog‘liq xalqaro tashkilotlar.

## Test

**1) Iymon deganda nimani tushunasiz?**

A) Odamning muayyan g‘oya va axloqiy qadryatlar real haqiqat ekaniga ishonchi

B) Globallashuv sharoitida hayot uchun kurashish

V) Fundamental tushuncha

G) Ongdag'i diniy tasavvur

**2) Din va uning masalalarini tahlil etishda qanday usuldan foydalanish zarur?**

A) Ilmiylik va Obyektivlik

B) Nazariy va Falsafiy

V) Psixologik bilish

G) Tarixiy bilish

**3) Dinda kompensatorlik tushunchasi nimani anglatadi?**

A) O‘z tarafdorlari uchun “ovituvchi” tushuncha

B) Dinni buzish

V) Qonuniy nikohdan o‘tish

G) Tabiat bilan Dinning uyg‘unligi

**4) SHaxs va jamiyatni bir ta’limot atrofida saqlashga harakat qilish nima deyiladi?**

A) Integrativlik

B) Internatsializm

V) Indulgensiya

G) Psixik birlashuv

**5) Iuadizm dinining bosh xudosi va Payg‘ambari kimlar sanaladi?**

A) Xudo Yaxve va Muso

B) Xudo Axriman va Iso

V) Iso va uning shogirdlari

G) Dovud va Iso payg‘ambar

**6) Dinning dindorlar hayotini tartibga solishi nima deyiladi?**

- A) Regulyativlik
- B) Integrativlik
- V) Sixronizm
- G) SHariat qoidalari

**7) Isus Xristos ya’ni Xristianlik dinining asoschisi qaerda tug‘ilgan.**

- A) Quddus (Nazaret shahrida)
- B) Karfagenning shimoli-sharqida
- V) Rim atrofida
- G) Isroiuning hozirgi poytaxti Tel-Avivda

**8) Dinda “Ligimtivlovechilik” tushunchasi nimani anglatadi?**

- A) Qonuniylashtiruvchi
- B) Ilohiylashtirish
- V) Hayotga tadbiq etish
- G) munozarali,bahsli

**9) Dastlabki musulmon jamoasi qachon tashkil topgan?**

- A) 622-yil
- B) 631-yil
- V) 628-yil
- G) 660-yil

**10) “Vijdon erkinligi” haqidagi qonunga asosan diniy guruh bo‘lishi uchun necha kishidan iborat bo‘lishi kerak?**

- A) 100 mo‘min kishi
- B) 120 mo‘min kishi
- V) 130 mo‘min kishi
- G) 150 mo‘min kishi

**11) Qadimgi Mesopotamiyada Ibodatxonalar asosan qaerda qurilgan?**

- A) SHahar markazlarida
- B) Hukmdor qasri oldida

V) Xavfsizlik uchun shahardan chekkada

G) Mesopotamiyada ibodatxonalar bo'lmagan,xalqning uyi o'zi  
uchun ibodatxona vazifasini o'tagan

**12) Hukumatlararo Islom konferensiyasi Tashkiloti qachon  
tashkil topgan?**

A) 1969-yil

B) 1968-yil

V) 1966-yil

G) 1967-yil

## **9-MAVZU. DINIY VA FALSAFIY DUNYOQARASH SHAKLLARI**

### **Reja:**

- 1.Odam va olam to‘g‘risidagi dunyoqarashlar.
- 2.Antik davrda naturfalafaning vujudga kelishi.
- 3.Diniy va falsafiy dunyoqarashlarning Darvin nazariyasida aks etishi.
- 4.Diniy dunyoqarash va diniy ong.
- 5.Diniy tushunchalarning ontolgik jihatlari.

**Tayanch tushunchalar.** Dunyoqarash, materiya, asotirlar, ikki haqiqat, astronomiya, diniy ong, ilmiy dunyoqarash, diniy mafkura, atom, panteizm, deizm, shartli reflekslar, galaktika, Darvin nazariyasi.

### **1.Odam va olam to‘g‘risidagi dunyoqarashlar**

Dunyoqarash falsafa fanining asosini tashkil qilib, olam va odam haqidagi bir butun qarashlar, g‘oyalar tizimini yaratadi. Falsafa qomusiy lug‘atida yozilishicha, hozirgi zamонавиј fanlar rivojlanmagan paytda olamga mexanika nuqtai nazaridan qarash, ya’ni, mexanitsizm hukmron edi. Natijada olamda, ayniqsa Evropa fanida olamda yuz bergen jonsiz tabiatdagi har bir hodisa, hatto jonli tabiatdagi o‘zgarish jarayonlarini ham mexanika qonunlari asosida tushuntirish mumkin deb qaralib ilmda mexanizm kabi oqimlarni shakllanishiga olib keladi. (115 b.). jumladan, XVII – XVIII asrlarda matematika, mexanika fanlarining yutug‘iga asoslangan olamning mexanistik manzarasi deistik (xudoni tan oluvchi, lekin uni tabiat taraqqiyotiga daxli yo‘q deb bilish) qarashlarni keltirib chiqaradi. Deizmga ingliz faylasufi CHerbern asos solgan, uning vakillari Toland, Lokk, Volter, Russo, Lessing, Lomonosov, Radishchev va boshqalardir.

XIX asrning oxirida fizik bilimlar doirasida “olam manzarasi” atamasi qo’llana boshlagan. Olimlardan G.Gers birinchilardan bo‘lib predmetlarning ichki va tashqi holatlar yig‘indisini fizik olam manzarasi deb atadi.bunday atamadan keng foydalangan M.Plank olam manzarasini ilmiy va va amaliy jihatdan farqladi. Amaliy jihatdan u insonning olam haqida sekin-asta bir butun tasavvurlarini

paydo bo'lishini tushundi. Ilmiy jihatdan esa, M.Plank obyektiv dunyoning modelini mutlaq hodisa sifatida talqin etdi.

"Olam manzarasi"ning hozirgi fundamental tushunchasini ishlab chiqishda bunday yirik tabiatshunos olimlarning asarlari katta ahmiyatga ega. Shunga asosan hozirgi vaqtida fundamental fanlar qo'lga kiritgan tushuncha va prinsiplar asosida olamning ilmiy manzarasini eng umumiyl tushunchalar sistemasi deb izohlanadi. Bunday umumiy tushuncha barcha fanlar kashf etgan ilmiy yo'nalishlar va ularni amaliyotda sinash orqali to'plangan ijobiy tajribalar asosida shakllanadi va dunyoqarashga molik muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Dunyoqarash insonning obyektiv olam haqidagi qarashlarining majmui, unda o'zining tutgan o'rni, ob'ektiv borliqqa munosabati hamda shu qarashlarga mos tushadigan hayotiy mavkei, ishonchi, ideali, faoliyati, olamni o'rganish va bilish prinsiplaridir. Ammo dunyoqarash shu bilan chegaralanmaydi, balki u inson, jamiyat va dunyo haqida to'plangan va ma'lum prinsiplarga asoslangan qarashlar yig'indisidir. Binobarin, bunday dunyoqarash kishilarda turli darajada – ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy, axloqiy, ilmiy-nazariy darajada talqin etiladi.

Dunyoqarash ijtimoiy va individual ongning mavqeい hisoblanib, u o'z mohiyatiga ko'ra tarixiy jarayon sifatida kishilik jamiyatni paydo bo'lishi bilan bog'liq. Har qanday dunyoqarashning shakllantiruvchi manbai ijtimoiy borliq va jamiyatning moddiy shart-sharoitlari hisoblanadi.

Kishilik jamiyatni tarixiy taraqqiyotida dunyoqarashning vujudga kelishi va shakllanishi har bir davrning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida va dastlabki sinfiy jamiyatda tabiiy-ilmiy bilimlarning ko'rtaklari bo'lgan, xolos. Ayni vaqtida tabiat va inson haqida diniy tasavvurlar asosiy o'rinn egallagan o'sha davr odamlarida ilmiy bilimlarning va hayotiy tajribalarning etishmasligi shunga olib kelgan.

Kishilarning kundalik hayotiy faoliyatida tirik va notirik tabiat, odam organizmi haqidagi ijobjiy bilimlar uzliksiz to'plana bordi. Ammo bu bilimlar asotirlilik (mifologik), so'ngra diniy dunyoqarash bilan murosada yashagan holda ichki yashirin ziddiyatlar ham sodir bo'lib turgan. Shu vaqtida din homiyilari ham tabiatni tadqiq qilishda,

osmon yoritgichlarini kuzatishdan chetda qolmaydilar, to'plangan bilimlarni kelajak avlod uchun zarur deb hisoblaydilar.

Qadimgi Sharq kohinlari fan va ilmiy bilimlar bilan qiziqishda birinchilardan ekanligi tarixdan ma'lum. Xususan, ular matematika, astronomiya va meditsina sohalarini o'rgandilar, to'plangan bilimlardan o'zlarining iqtisodiy va mafkuraviy manfaatlarini mustahkamlashda foydalandilar.

Biroq ma'lum tarixiy bosqichga kelib tabiat va olam hodisalari haqidagi to'plana borgan ilmiy bilimlar diniy qarashlar bilan kelisha olmasligi ma'naviy madaniyatda namoyon bo'lди. Turli qabilalarda shakllangan diniy, afsonaviy qarashlarda tabiat hodisalarini va inson hayotini sababiyat asosida tushunish elementlari bor edi. Olam manzarasining afsonaviy tushunchasi ibtidoiy odam ongingin xususiyatiga bog'liq edi. Ya'ni ular uchun tabiat – urug' jamoasi, osmon, er, suv, inson va hokazolar esa qon-qarindoshlik munosabatlarida jamoaning a'zolaridir.

## 2. Antik davrda naturfalafaning vujudga kelishi

Asotirlar va diniy tasavvurlarga nisbatan yangi shakl, avvalo, Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston so'ngra qadimgi Yunoniston narurfilosofiyasida maydonga chiqadi. U o'zining turli bosqichlarda rivojlanishidan qat'i nazar, stixiyali-materialistik xarakterga ega edi. Ana shular asosida olamning diniy tushunchasiga qarshi demokrat Epikur, Lukretsiy Karlarningi naturfalsafasi yuzaga keldi.

Demokritning atomistik ta'limoti quyidagilarga asoslanadi: 1. Materiya paydo ham, yo'q ham bo'lmaydi; 2. Hech narsa sababsiz va zaruriyatiz sodir bo'lmaydi; 3. Atom va bo'shliqdan tashqari hech narsa mavjud emas; 4. So'zlar harflardan iborat bo'lganidek, turli predmetlar turli atomlarining birikishidan paydo bo'ladi. Atomistik nazariya tarafdoरlarining olam bepoyonligi, tabiiy zaruriyati va harakatning doimiyligi haqidagi ilg'or fikrlari o'z zamonasiga nisbatan taraqqiyparvar g'oyalar edi, xolos.

Ammo o'rta asrdagi hurfikrililikning yorqin namoyondasi ikki haqiqat haqidagi nazariyaga asoslangan edi. XII-XIV asrlarda vujudga kelgan bu nazariya filosofiya va ilohiyot ilmida har biri haqiqatga mustaqil yo'l bilan erishishni yoqladi. Ikki haqiqat nazariyasining asoschisi arab faylasufi Ibn Rushd edi. Siger Bratantskiy, Dune Skott,

U.Okkam va boshqalar bu nazariyaga tayanib, xudo va dunyoning abadiyligi, har bir odam tanining o'limga mahkumligi haqidagi falsafiy xulosalari kishilarda hayotga aql ko'zi bilan qarash qobiliyatini shakllantirdi.

Tabiatshunoslikning keyingi taraqqiyotida Ulug'bek va uning shogirdlari olib borgan astronomik kuzatishlarning natijalari, N.Kopernikning kashfiyoti koinot manzarasining panteistik (xudo bilan tabiat bir deb qarash) tushunchasini vujudga keltirdi. Bu kashfiyotlar erni koinotning markazi deb kelgan fikrni puchga chiqarib, uning quyosh atrofida aylanuvchi planetalardan biri deb isbotladi. Xudoni esa tabiat bilan hamma joyda birga deb qaradi.

XIX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida tabiatshunoslikda vujudga kelgan buyuk kashfiyotlar ichida tabiat rivojlanish jarayonida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan uch kashfiyotni ko'rsatish mumkin. Bular o'simlik va hayvonlar organizmining hujayralaridan tuzilganligining ochilishi, energiyaning saqlanish qonunini eksperimental asoslanishi va nihoyat, CH.Darvinnning organizm haqidagi evolyusion nazariyasidan iborat. Bu uch kashfiyot tabiatga eskicha qarashlarni rad etib, yangicha fikr yurg'izish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Garchi aqliy shakl tabiat dunyosidagi juda ko'p texnologik tizimlarni tashkil qiluvchi haqiqatga yaqin gipoteza bo'lsada bu biz uchun kerak bo'lgan yagona gipotezami? CHarls Darwin (1809-1882) va evolyutsiya nazariyasiga qadar bu noaniq edi. CHunki ham aqliy shakl gipotezasi bilan musobaqalashsa texnologik tizimning izohlariga ega edi. Lekin evolyutsiya nazariyasi taraqqiy etganidan buyon bunday munozara shakllari ishonchilik kuchini yoqotdi. Hozir biz aqliy shakl ta'kidlanmaydigan gipoteza va yaxshigina rivojlangan texnologik tizimlarga, izoh berilgan tabiiy gipotezaga egamiz. Qisqacha aytganda Darvinnning tabiiy tanlanish nazariyasi nima uchun tabiat juda ko'plab omon qolishga moslashgan organizmlarni o'z ichiga olishini tushuntirishni ko'zda tutadi.

Bu nazariyaga ko'ra hayvonlar va o'simliklar ularining avlodlaridan meros bulib kolgan o'zgarishlar va hilma-hilliklarni boshdan kechiradi. Ba'zi turfa hilliklar organizmlarni doimiy yashashga intilishda qolgan populyatsiyalar bilan ustunlik bilan ta'minlaydi. Xayvonlar va o'simliklar quvvatlay oladigandan ko'ra ko'prok nasl koldirishidan buyon tabiat yashash uchun kurasha

oladigan turlarini qolganlaridan qo‘proo‘ quvvatlaydi. Shu tariqa omon qolishga moslashigan kuchli rivojlangan katta populyatsiyalar aniqlanadi.

Diniy va falsafiy dunyoqarashlarning Darvin nazariyasida aks etishi.

XX asrning boshlari XXI asrning davomida bizning planeta o‘rnashgan, birgalikda yashovchi organizmlarni talabga javob beradigan darajada izoxlash uchun Darvinnинг tabiiy tanlanish nazariyasining asosliligi ustidan muhokama yuzaga keldi.

Biologiya fani Darvin nazariyasiga asoslanib paydo bo‘lganiga qaramastan nazariyaning o‘zi aqliy shaksiz tabiiy tanlanish sayyoramizda yashovchi jonzotlar jamlanmasini tashkil etish uchun yetarli emasigligini ta‘kidlovchi ba’zi biologlar tomonidan tankid kilib kelingan. Masalan, J.Bexe ko‘plab biologik tizimlar molekulalar darajada kamaymaydigan majmua ekanligi xakida Darvinnинг tabiiy tanlanish prinsiplari hisobot bera olmasligini aytadi. Bexe qandaydir kamaymaydigan majmuuga misol sifatida qopqonni taklif etadi. Qopqonlar o‘zaro bog‘langan bir qator qismlarga ega (prujina, asos, bolg‘a, tutqich, panjara) va ularning barchasi qopqonning sichqonni tutishi uchun kerakli.<sup>49</sup>

